

X.B.YUNUSOV, N.B.DILMURODOV, O.N.CHORIYEV,
SH.Z.DONIYOROV, E.A.MUXTAROV

LOTIN TILI VA VETERINARIYA ATAMALARI

O'QUV QO'LLANMA

OBILIQ FAMILIA ORTV
ERE ERVDITVS PRIMVM P
CHIPRESVL AD CARDINALA
LEGATIONE FVNGERETV
ITOR VIR IPSE DOCTI
LICE BONI QVI PRO
IENQ CONCILIA VSQ
ABOD AQT MTR EPIDE

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA
VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO'MITASI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va
patologik anatomiya kafedrasи

**X.B.YUNUSOV, N.B.DILMURODOV, O.N.CHORIYEV,
SH.Z.DONIYOROV, E.A.MUXTAROV**

**LOTIN TILI VA
VETERINARIYA ATAMALARI
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-son buyrug'iiga asosan
840000 – Veterinariya ta'lif sohasi talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**Toshkent - 2023
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UO'K: 324.323.356.14

KBK: 48.15(50'zb)

619:47
L - 79

X.B.Yunusov, N.B.Dilmurodov, O.N.Choriyev, Sh.Z.Doniyorov,
E.A.Muxtorov. Lotin tili va veterinariya atamalari. O'quv
qo'llanma. – Toshkent, “Fan ziyozi” nashriyoti, 2023, 300 bet

Ushbu o'quv qo'llanma Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chovachilik va biotexnologiyalar universiteti 840000 – Veterinariya ta'lim sohasi talabalari uchun fanning namunaviy dasturi asosida yaratildi. O'quv qo'llanma anatomik va gistologik, klinik hamda farmatsevtik atamashunoslik deb nomlangan boblardan iboratdir. Bu boblar o'z ichiga barcha veterinariya tibbiyoti atamalarini qamrab olib, talabalarga fundamental va mutaxassislik fanlarini integral o'qishida yaqindan yordam beradi.

O'quv qo'llanma Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chovachilik va biotexnologiyalar universiteti markaziy uslubiy Kengashi tomonidan (27.06.2023-y. № 11) chop etishga tavsiya qilindi.

Taqrizchilar:

Q.N.Norboev – veterinariya fanlari doktori, professor

N.O.Hamraulova – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

SHARTLI BELGILAR



Nazorat uchun savollar:



Quyidagi maqollarni yod oling.



Uyga vazifa




Mustaqil bajarish uchun mashqlar.



Takrorlash uchun test savollari

NB! (Nota Bene!) – Yaxshi tushun! E'tibor ber!

ISBN: 978-9910-743-3-3-7



So‘z boshi

Ma’lumki kasbni mukammal egallash, kasb tilini aks ettiruvchi so‘zlar va terminlarni o‘rganish bilan boshlanadi. Hozirgi zamon veterinariy tibbiy terminlari – keng qamrovli va murakkab terminlardan deb hisoblash mumkin. Bunda bir necha ming yillik so‘zlar va birikmalar mujassamlashgan. Tibbiy va biologik terminlarda ko‘p asrlik an‘analarni lotin tilining ishlatalishida alohida ahamiyatga ega. Talabalar mutaxassislik tilini o‘rganishi uchun o‘quv bazasini yaratish lozim. “Lotin tili va veterinariya atamalari” o‘quv qo‘llanmasi shular jumlasidandir. U bilimdon veterinariya mutaxassisini tayyorlashda va uning kasbiy til madaniyatini rivojlantirishda kerak bo‘ladi. Lotin tilini o‘qitish tibbiy terminlarining asosini o‘qitishdan boshlanadi. Talabalarning kasb tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun asosiy o‘quv bazasi zarur. “Lotin tili va veterinariya atamalari” bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi shunday baza bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma veterinariya ta’lim yo‘nalishlari I bosqich talabalari uchun tuzilgan. Uslubiy qo‘llanmada lotin tili fonetikasi, harf va tovushlar tasnifi, hayvonlar skeleti va ichki a’zolari, kasalliklar nomlari, dori shakllari, dorivor o‘simlik qismlariga doir ma’lumotlar kiritildi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada veterinariya tibbiyoti atamalarining yasalishi va ularning zamonaviy tibbiyot terminologiyasi (anatomik, davolash hamda dorishunoslik)da qo‘llanishi berilgan. O‘quv qo‘llanmadagi mavzular III ta bobga bo‘lingan:

I. Anatomik va gistologik atamashunoslik. Bunda anatomik iboralarning yasalashi, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar, ot va sifat, sifat darajasi, son berilgan;

II. Klinik atamashunoslik. Klinik atamalarni yash usullari. O‘quv qo‘llanmaning bu bo‘limida tibbiyotning davolashga doir atamalarining yasalishi: lotincha va grekcha ma’nodosh so‘zlar (rasmlar asosida) va ularning tibbiyotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan qoidalar va mashqlar berilgan;

III. Farmatsevtik atamashunoslik. Bu qismda fe’l so‘z turkumi, fe’llarning mayl kategoriyalari, ularni retseptda qo‘llashga doir yo‘l-yo‘riqlar, dori shakllari, dorivor o‘simliklar (rasmlar asosida) nomlari hamda lotincha va o‘zbekcha retseptlar berilgan.

Har bir bobda qisqacha grammatik material, mustaqil bajarish uchun mashqlar, mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari, LM (leksik minimum) va kasbga oid ibora hamda maqollarni o‘z ichiga oladi. Ayrim mavzular bo‘yicha o‘z-o‘zini tekshirish uchun topshiriqlar berilgan bo‘lib, ular ma’lum tushunchalarni o‘zlashtirish kabi muhim o‘quv-uslubiy vazifani bajaradi.



I BOB. ANATOMIK VA GISTOLOGIK ATAMASHUNOSLIK



LEONIDA
LATINA

LOTIN TILI VA VETERINARIYA ATAMALARI FANIGA KIRISH.

Darasning maqsadi: Lotin tili va veterinariya atamalari fanining tarixi, maqsadi, vazifalari va mazmunini o'rganish. Nima sababdan 100 yillar mobaynida tibbiyot va biologiyada lotin tili qo'llaniladi — shu to'g'rida tasavvurga ega bo'lish.

Darsning mazmuni: Tibbiyot, fan, texnika, ishlab chiqarishning har qanday sohalarida ham muvaffaqiyat bilan ish olib borish uchun mutaxassis o'sha sohaga tegishli maxsus leksikani ya'ni atamani to'g'ri tushunishi va qo'llashi zarur.

Atamaning asosiy vazifasi (lotinchcha *terminus* - chegara) ilmiy tushunchani bir ma'noda aniq ifodalab berishdan iborat. Atama so'z ham (fan, to'qImagen, kasallik, appenditsit, flyurografiya), so'z birikmasi ham (ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi, giperitonik kasallik, gigiyena) bo'lishi mumkin. Atamalar kundalik turmushda ishlatiladigan adabiy tildagi so'zlardan farq qilib, ilmiy va ilmiy texnika tushunchalarini ifodalaydi. Uilmiy nazariy xulosa natijasi, ma'lum bir ilmiy nazariy parcha aksidir (bilimlar ilmiy tizimi).

Definitsiya yoki aniqlik

Kundalik turmushda ishlatalidagan so‘zlardan farqli o‘laroq, ilmiy tushunchaga **definitsiya** (lotincha — **definito**) yoki qisqacha tushuntirish qo‘sishma ravishda yoziladi. Definitsiyada ilmiy tushunchaning ba’zi bir muhim tomonlari ochib beriladi.

Maxsus lug‘atlarda atamashunoslikka va ensiklopediyaga oid atamalar tushuntirishlar bilan beriladi, masalan: “**Pnevmoniya** — bu o‘pka to‘qimalarida mustaqil holda yoki biror kasallik asorati sifatida hosil bo‘luvchi shamollahash jarayonidir”.

Ilmiy tushuncha mohiyatini bilish, bu bir tushunchani ikkinchisi bilan bog‘lay bilish — fanning tushunchalar tizimida uning o‘rnini belgilab berish demakdir.

Atamalar, atamalar tizimi

Ma’lum bir fan, atamashunosligi tushunchalar tizimidagi ilmiy tushunchani ifodalashda o‘zaro bir-biri bilan aloqada va munosabatda turgan nomlar, so‘zlar, so‘z birikmalari tizimidir. Atamashunoslik lug‘atning boshqa qatlamlaridan farq qilib tartibga, normaga solish predmeti hamdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash vazirligi qoshida o‘zbekcha tibbiy atamalarni tartibga solish bo‘yicha atamashunoslik qo‘mitasi ish olib bormoqda.

Atamashunoslik doimiy harakatda, unda nimadir o‘zgaradi, qo‘shiladi, iste’moldan chiqadi, chetlashadi. Ko‘plab avvaldan tanish maxsus atamalar yangi ilmiy mazmun kasb etadi.

Atamashunoslik — bu fan, ilmiy adabiyot tilining ajralmas tarkibiy qismidir. Akademik V.X.Vasilenko fikricha “aniq bir atamashunoslikning yo‘qligi fan uchun nomunosibdir”. Vrachlik diplomining olinishi yosh mutaxassisning tibbiy xodim kasbiga oid bo‘lgan tilni bilishi haqida guvohlik beradi.

Siz til o‘rganish mobaynida yo‘liqishingiz mumkin bo‘lgan jiddiy obyektiv qiychiliklardan biri — bu tibbiy xodim professional tilining o‘ziga xos xususiyatlaridir. Bu eng avval yunonizm va lotinizmlarning ya’ni kelib chiqish jihatdan yunoncha va lotincha bo‘lgan tildan va yashash o‘rnidan qat’iy nazar har qanday mamlakat shifokori qo‘llovchi professional so‘zlar, nomlar, atamalardir. Nima sababdan “o‘lik til” hisoblanuvchi lotin tili rivojlanishga faol ta’sir o‘tkazib kelmoqda? Bu savolga javob berish uchun lotin tili tarixi vauning tibbiyot taraqqiyotidagi roli bilan umumiy holatda tanishib chiqish zarur.

Lotin tili tarixidan.

Lotin tili (*lingua Latina*) hind-yevropa tillari oilasining italiy tillari guruhiga mansub. U uzoq o'tmishda hosil bo'lgan. Dastlab bu tilda Italiya markazidagi Latsiy viloyatida istiqomat qiluvchi lotin qabilasi (*Latini*), hamda Qadimgi Rim ahli va milodiy I asr boshlarida Rim qo'l ostiga o'tgan Apennin yarim oroli hududidagi italiy qabilalar so'zlashishgan. Mil. av. III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili Rim legioni bilan birga yanada qadimiyroq madanaiyatga ega davlatlar – Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va b. – hamda Yevropaning u davrda madaniyati kam yerlarga kirib bordi. Qadimiy davr lotin tili tarixi bir-biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi 5 ta davrga ajratiladi:

- 1) eng qadimgi lotin tili davri (mil. av. VI-IV asrlar);
- 2) klassik davrgacha bo'lgan lotin tili davri (mil. av. III-II asrlar, adabiy lotin tilining shakllanish vaqt);
- 3) klassik, "oltin" lotin tili davri (mil. av. I asr, juda boy leksika va rivojlangan adabiyoti bilan ajralib turadi);
- 4) klassik davrdan keyingi, "kumush" lotin tili davri (milodiy I asr, adabiy tilning fonetik va morfologik meyorlari uzil-kesil shakllandi);
- 5) so'ngi bosqichdagi lotin tili (II-VI asrlar; yozuv tili bilan xalq-so'zlashuv tili – "xalqona lotin" o'rtaida tafovut paydo bo'ldi).

V asrda Rim imperiyasi qulaganidan keyin xalq-so'zlashuv tilining mintaqaviy farqlanishi tezlashib, bu narsa IX asrga kelib alohida, mustaqil roman tillarining (italyan, fransuz, portugal, ispan, rumin, moldavan va b.) paydo bo'lishiga olib keldi. Yozma lotin tilining birligi saqlanib qoldi, u leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi, klassik lotin tilining asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi barqarorlashdi. Adabiy lotin tili tarqalgan barcha hududlarda u ma'muriy boshqaruva, savdo-tijorat, muktab tili edi; o'rta asrlarda butun G'arbiy Yevropa umumiyligi yozuv tili bo'lib qoldi; XVIII-XIX asrlargacha diplomatiya, ilm-fan va falsafa tili, XX asrda esa katolik cherkovi tili, Vatikanning (italyan tili bilan birga) rasmiy tili bo'lib qoldi. Lotin tili Yevropa madaniyati rivojida ulkan rol oynadi. Yevropa tillaridagi siyosiy, ilmiy va texnik terminologik tizimlarning leksik jihatdan boyishi va ko'payib borishiga ijobjiy ta'sirkor satdi.

Loti tili qadimiy Hind-Yevropa tillariga xos, uni Xett tili, Hind-Eron, Kelt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususiyatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar cho'ziqligining fonologik farqlanishiga egaligi, urg'uso'zning oxirgi bo'g'iniga tushmasligi, undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat. Morfologik xususiyatlari: fleksiyadan shakl yasashning asosiy vositasi sifatida foydalanish, fleksiyaning 5 turi mavjudligi, turlanishning 6 kelishikka asoslanishi, fe'llarda 3 xil mayl (indikativ, konyunktiv, imperativ) va 2 xil nisbat (aktiv va o'rta passiv) farqlanishi va boshqalar. So'z tartibida fe'lgap

oxirida keladi. Lotin tili leksikasida yaqin qarindosh yoki noqarindosh qabilalar tillarining ta'siri saqlanib qolgan. Lotin tiliga yunon tili, ayniqsa, mil. av. III-I asrlarda kuchli va davomli ta'sirko'rsatgan. Lotin tili leksikasi, yunon tili bilan birga, ilmiy terminologiya sohasida hanuz baynalmilal terminlarni yaratishda manba bo'lib xizmat qilmoqda.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Amīci - fures tempōris* – Do'stlar - vaqt og'rilar.
2. *Amat victoria curam* – Intilganga tole yor.
3. *Amīcus Plato, sed magis amīca verītas (Arastu)* – Aflatun [menga] do'st, lekin haqiqat ustunroq.



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tili va veterinariya atamalari fanini o'rganish bo'lajak veterinariya mutaxassislari uchun nimaga kerak?
2. Lotin tili tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qadimiy davr lotin tili tarixi nechta davrga ajratiladi?



LOTIN TILI FONETIKASI.





Darsning maqsadi: Lotin alifbosi harflari yozilishi va o'qilishini eslab qolish. Ushbu harflarni ifodalaydigan tovushlarni talaffuz qila olish.


Darsning mazmuni: *Fonetika* - (yunoncha: *phonetikos* — tovushga, tovush chiqarishga oid, tovushli, ovozli) — tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini, bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismalarini o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi.



Shu bilan birga, ayrim tilshunoslardan fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyektini yanada kengaytiradilar lotin tili fonetikasi doirasida, asosan, nutq tovushlari ularning artikulyatsion, akustik, perceptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi.




Lotin tili alifbosi



Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor.

Yozilishi	Nomi	O'qilishi	Misollar	Rasm
A a	a	a	auris	
B b	be	b	bronchus	
C c	tse	ts / k	cerebrum	
			costa	
D d	de	d	dens	

E e	e	e	ethmoidalis	
F f	ef	f	femoris	
G g	ge	g	gaster	
H h	ga	h	hepar	
I i	i	i	intestinum	


J j	yot	y	jejunum	
K k	ka	k	keras	
L l	el	l	labium	
M m	em	m	musculus	
N n	en	n	nasus	
O o	o	o	oris	

P p	pe	p	pulmonis	
Q q	ku	k	vertebra quinta	
R r	er	r	ren	
S s	es	s / z	scapula	
T t	te	t	thoracalis	

U u	u	u	ungula	
V v	ve	v	vertebra	
X x	iks	ks	larynx	 
Y y	epsilon (igrek)	i	hyoideus	
Z z	zeta	z	Zygomaticum	

Tovushlar tasnifi

- a, e, o, i, u, y harflari unli harflarni beradi.
- b, c, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z harflari undosh harflarni beradi.



1-rasm. Itning tana kesimlari va yo'nalishlari.



Uyga vazifa

1. Lotin tili alifbosini yod oling.
2. Unli va undosh harflarning o'qilishini eslab qoling.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Scientia potentia est* - Bilim bu kuchdir
2. *Mens sana in corpore sano* - Sog' tanda sog'lom aql
3. *Patriam amare et defendere debemus* - Vatanni sevmoq va himoya qilmog'imiz kerak.



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor va ular qanday talaffuz qilinadi?
2. c harfi qanday tovushlami ifodalaydi?
3. s harfi qanday o'qiladi?
4. j harfi a, o, u, e unli harflari bilan birlashtirilganda qanday talafiiiz etiladi?
5. h, l, k, x, z harflarining o'qilish qoidasini aytинг.

Darsning maqsadi: unli tovushlar va diftonglar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish. Ularning yozilishini, qo'llanilishini hamda talaffuzini o'rganish.

Darsning mazmuni: unli harflar o'z navbatida bir unlilar (monoftonglar) va ikki unlilar (diftonglar) ga bo'linadi.

Lotin tilida 6 ta unli tovush mavjud, unli tovushlar bu tilda *vocales deb* ataladi, ulardan 3 tasi yumshoq va 3 tasi qattiq unlilarn hisoblanadi.

Unli tovushlar - **a, e, i, o, u, y**

Yumshoq unlilar – **i, e, y**

Qattiq unlilar - **a, o, u**

Klassik lotin tilida va qadimiy hind-yevropa tillarida unlilar uzun va qisqa talaffuz qilingan. Agar unli harfning ustiga “ – ” to‘g‘ri chiziq qo‘yilsa, u cho‘ziq talaffuz qilinadi. Misol: *lingua*, *amoca*.

Agar unli harfning ustida yoysimon belgi bo‘lsa, bu unli harf qisqa talaffuz qilinadi - *tabula*, *aquila*. Unli harflarning uzun yoki qisqaligiga qarab, so‘z ma’nosи o‘zgaradi:

Unli harflarning talaffuzi

- **A a – a – aorta** – [aorta] – aorta
- **E e – e – vertebra** – [vertebra] – umurtqa
- **O o – o – foramen** – [foramen] – teshik
- **I i – i – vita** – [vita] – hayot

• **I i** harfi so‘z yoki bo‘g‘in boshida unli harfdan oldin kelsa, hamda ikki unli harf orasida kelsa [y] kabi talaffuz qilinadi: *iugularis* [yugularis] bo‘yinturraqa oid; *iunctura* [yunktura] bog‘lanma; *maiор* [mayor] kattaroq; *iuga* [yuga] tepalik.

Yuqorida ko‘rsatilgan vaziyatlarda zamonaviy veterinariya tibbiyoti terminshunosligida *i* o‘rniga **J j** – yot harfi qo’llaniladi: *jugularis* [yugularis]; *junctura* [yunktura]; *major* [mayor]; *juga* [yuga].

• **J j** harfi faqat yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardagina yozilmaydi, chunki unda [y] tovushi bo‘lmagan: *iatria* [atria] davolash; *iodum* [iodum] yod.

- **U u – u – rotundus** – [rotundus] – yumaloq
- **Y y – i – myologia** – [miologiya] – muskullar haqidagi fan

Y y ipsilon, igrek (*fr. i grec – yunoncha «i»*) yunon tilidan kelib chiqqan so‘zlarda ishlatalidi: *tympanum* [timpanum] (yun. τύμπανον) nog‘ora; *gyrus* [girus] (yun. γύρος) pushta.

«y» harfi yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda old qo‘sishimcha, o‘zak va qo‘sishimcha sifatida uchrashi mumkin. Shuning uchun quyidagi old qo‘sishimcha, o‘zak va qo‘sishchalarni esda saqlash kerak.

- hyper - yuqori, ko‘proq	hypertonia - qon bosimining ko‘tarilishi
- hypo - past, kamroq	hypotonia - qon bosimining pasayishi
- oxy - taxir	Oxygenium - kislород
- hydr - suv	Hydrogenium – vodorod
- pyr - issiqlik	Antipyrinum - antipirin
- poly - ko‘p	Polyvitamina - polivitamin
- glyc - shirin	Glycerinum-glitserin
- myc- qo‘ziqorin	Biomycinum – biomitsin.

DIFTONGLAR TALAFFUZI

Bir tovushni ifodalovchisi ikki unli harf birikmasi *diftong* deb ataladi. Lotin tilida, asosan, quyidagi diftonglar qo‘llaniladi:

«ae» unli harflari birikmasi o‘zbekcha «е» deb o‘qiladi. Masalan: aegrotus (egrotus) — bemor, gangraena (gangrena) — tirik to‘qimalarning o‘lishi, Laevomycetinum (levomitsetinum) — levomitsetin.

«oe» unli harflari birikmasi o‘zbekcha «е» deb o‘qiladi. Masalan: oedema (edema) — sliish, Foeniculum (fenikulum) — shivist.

«au» unli harflari birikmasi (au) dagi (u) harfi qisqa o‘qiladi. Masalan: Aurum (aurum) — oltin, trauma (trauma) — shikastlanish.

«eu» unli harflar birikmasi (eu) dagi (u) harfi qisqa o‘qiladi. Masalan: neuralgia (neuralgiya) — asab kasalligi, pneumonia (pneumoniya) — o‘pkaning yallig‘anishi. Leukomycinum (leukomitsin) — leykomitsin.

«ai» unli harflar birikmasi lotin tilida «ai» deb talaffuz qilinadi. Masalan: Daimeton (daimeton) — daimeton, Dikcainum (dikaynum) — dikain, Naucain (naukain) — novokain.


«ei» unli harflar birikmasi lotin tilida «ei» deb talaffuz qilinadi. Masalan: Luteine (luteine) — lutein.

«ou» unli harflar birikmasi o‘zbekcha «у» deb o‘qiladi. Masalan: croup (krup) — hujaldoqning o‘tkir yalliglanishi.

Ba‘zi vaqtarda qator kelgan ikki unli harf birikmasi diftong hosil qilmaydi, u holda ikkinchi unli harfning ustiga ikki nuqta qo‘yiladi va unlilar ayrim-ayrim o‘qiladi. Masalan: aér (aer) — havo, Aérosolum (aerozolum) - aerozol, Aloë (aloy) — sabur, dyspnoë (dispnoe) — nafas qisishi.

aē— ae — aér — [aer] — havo

oë — oe — aloe — [aloe] — aloe



2- rasm. Otning tana qismlari

1-*caput* – bosh, 2-*regio colli dorsalis* {*nucha*} - bo'yinning yuqorgi qismi, 3-*regio colli ventralis* (*jugulum*) - bo'yinning pastki qismi, 4-*regio interscapularis-qarchig'ay* qismi, 5-*thorax-ko'krak*, 6-*regio thoracolateralis* - ko'krakning yon qismi. 7-*regio praesternalis* – to'sh oldi qismi, 8-*regio sternalis* - to'sh qismi, 9-*regio xiphoidea* - to'shning qilichsimon qismi, 10-*hypochondriaca* - qovurg'a osti. 11-*lumbus*- bel. 12- *regio mesogastrium* - qorinning o'rta sohasi, 13-*regio umbilicalis* - kindik sohasi. 14-*fossa paralumbalis* - och biqin. 15-*regio inguinalis* - chov sohasi. 16-*regio pubica* - qov sohasi. 17-*cauda* - dum. 18-*regio scapularis* - kurak sohasi. 19-*brachialis* – yelka. 20-*subregio articuli scapulohumeralis* - yelka bo'g'imi. 21-*cubitus* - tisak. 22-*antebrachium* - bilak tirsak. 23-*carpus* - bilakuzuk. 24-*metacarpus* - kaft. 25-*digitus* - barmoqlar*(barmoq). 26- *sacralis* - dumg'aza. 27- *tuber coxae* – maklok, 28- *glutaea* - sag'ri. 29-*tuber ischiadicum* - quymich do'ngligi. 30-*subregio trochanterica* - tos-son qismi. 31-*femoralis* - son sohasi. 32-*cruris*- boldir. 33- *art. tarsus* -tovon bo'g'imi. 34-*metatarsu*-yoq kaft. 35- *digitus* - barmoq.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

1-mashq. O'qing. Unli hatflarning o'qilish qoidasiga rioya qiling.

Amarus, Valeriana, emulsum, tabuletta, pasta, gaster, rubor, organum, linimentum, mastitis, costalis, bacterium, ventriculus, optimus, morbus, internus,

tuberculum, sepsis, duodenum oculus, hepatitis, medicamentum, ureter, elasticus, abdomen, vertebra, uterus, vagina, vena, sutura, scapula, papilla, medulla, urina, arteria, Kalium, lobulus, decoctum, Amygdala, spiritus.

2-mashq. Diftonglarni aniqlang, tagiga chizing va talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Aceteinum, Aminocaine, anaemia, amarus, auris, bacca, bacterium, Cysteinum, caecum, cito, cutis, Daimeton, dens, decoctum, emulsum, faex, gaster, haema, Herocaine, internus, intercain, Juniperus, Laevomycetinum, lobulus, Luteine, Leukomycin, Kalium, medulla, nasus, Neurotinum, oedema, Novocainum, papilla, Procaine, rubor, scabies, scapula, Syntocainum, sutura, succeus, tabuletta, tuberculum, ureter, uterus, vagina, vertebra, vena.

3-mashq. O'qing. Diftong va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Vertebrae – umurtqalar, costae – qovurg‘alar, oesophagus – qizilo‘ngach, pleura – parda, auricularis - quloqqa oid, corpus esicae felleae - o‘t pufagining tanasi, aponeurosis serbar - pay, pseudomembrana - sohta parda, uropolticus - siyidik ishlab chiqaruvchi, oedema - shish, aér – havo, haematopoeticus - qon ishlab chiqaruvchi.



Uyga vazifa

4-mashq. So‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Costae, venae, suturae, anaemia, aegar, praecordium, praemolaris, foetor, gangraena, dyspnoë, diaeta, aëronum, oedema, foeniculum, vertebrae, caecus, oesophagus, auris, haematopoëticus, neurocranium, pleura, auricularis, pseudomembrana.


5-mashq. Diftonglarni aniqlang, tagiga chizing va talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Praeparatum, diaeta, apnoë, anaemia, paediatric, haema, oedema, gangraena, haematogenum, aurum, pneumonia, Aloë, Aminocaine, Daimeton, Intercain, Luteine, Foenicum, Crataegus, roentgenum, aurus, bacteriaemia, oestrogenus, haemostaticus, aér, hyperaemia, trauma, leukaemia, croup, dyspnoë, Novocainum.



Quyidagi maqollarni yod oling.

*1. Pigritia est mater omnia vitiorum
onasi.*




2. Medicina fructusior nulla - Tibbiyot fanidek sermahsul fan olamda yo‘q.

3. Vita sine litteris mors est - Ilmsiz hayot o‘limdir.




Nazorat uchun savollar:

1. Diftong deb nimaga aytildi?
2. Qanday diftonglarni bilasiz?



3-rasm. Otda umurtqa pog‘onasining qismlarga bo‘linishi




UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI.

Darsning maqsadi: undosh tovushlar va digraflar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish. Ularning yozilishini, qo‘llanilishini hamda talaffuzini o‘rganish.

Darsning mazmuni: undosh harflar (*Consonantes*)

- **Bb** – harfi [b] deb talaffuz qilinadi: basis – asos, negiz.
- **Cc** harfi a, o, u unlilar oldida, barcha undosh harflari oldida, so‘z oxirida [k] kabi o‘qiladi, mas.:
 - *caput* – [kaput] – bosh
 - *costa* – [kosta] – qovurg‘a
 - *cutis* – [kutis] – teri
 - *cranium* – [kranium] – kalla
- **Cc** harfi e, i, y unlilari oldida va ae, oe diftonglar oldida tursa [ts] kabi o‘qiladi, mas:
 - *cito* – [tsito] – tez
 - *cella* – [tsellya] – hujayra

- *cyclus* – [tsiklyus] – sikl
- *caecus* – [tsekus] – ko‘r
- *coeruleus* – [tseruleus] – zangori, ko‘k



- Dd – harfi [d] deb talaffuz qilinadi: da - ber.
- Ff – harfi [f] deb talaffuz qilinadi: folium - barg.
- Gg – harfi [g] deb talaffuz qilinadi: glandula- bez.
- H h - harfi o‘zbekcha [g] harfi singari talaffuz qilinadi.

Masalan: herba [gerba] – o‘t, yer ustki qism
homo [gomo] - odam, kishi.

- J j - harfi a, o, e, u unli harflari bilan birgalikda quyidagicha o‘qiladi:
jo [yo] - jocus [yokus] - hazil
ja [ya] - janua [yanua] - eshik
ju [yu]- juniperus [yuniperus] - archa
je [ye] - jecur [yekur]- jigar.

Yunon tilida *j* harfi bo‘limganligi sababli yunonchadan o‘tgan so‘zlarda *j* harfi o‘rniga *I*, *i* harfi yoziladi:

Iodum [iodum] – yod.

Shuning uchun *iod*- o‘zakli murakkab so‘zlar *I* harfi bilan yoziladi. “yod” so‘zining xalqaro kimyoviy belgisi *I*.

Iodolipolum [iodolipolyum] – yodolipol

Iodoformium [iodoformium] – yodoform.

• K k - harfi [k] tovushini beradi, lekin bu harf tibbiy lotin tilida kam qo‘llaniladi:

Kalium [kalium] - kaliy

Keratinum [keratinum] - keratin.

- Ll - harfi yumshoq talaffuz qilinadi:

mel [mel] - asal

lac [lyak]- sut.

- Mm – harfi [m] deb talaffuz qilinadi: magister - o‘qituvchi.
- Nn – harfi [n] deb talaffuz qilinadi: niger - qora.
- Pp – harfi [p] deb talaffuz qilinadi: Piper - qalampir.
- Rr – harfi [r] deb talaffuz qilinadi: ruber - qizil.

- Ss - harfi ikki tovushni [z] va [s]ni ifodalaydi. Agar s harfi ikki unli harf o'rtasida yoki har qanday bir unli bilan m yoki n harflari o'rtasida kelsa [z] deb, boshqa hollarda [s] deb o'qiladi.

Masalan: dosis [dozis]-doza

Rosa [roza] - na'matak

mensis [menzis] - oy

reumatismus [reumativizm]-revmatizm

Solanum [solanum]-ituzum

- Tt – harfi [t] deb talaffuz qilinadi: tuber [tuber - tuganak].
- Vv – harfi [v] deb talaffuz qilinadi: vitrum – kichkina shisha ididsh.
- X x - harfi [ks] tovushini beradi:
 - pix [piks] - smola, qatron
 - faex [feks] - xamirturush.
- Z z -harfi yunonchadan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydi va [z] deb talaffuz qilinadi:
 - rhizoma [rizoma] - ildizpoya
 - Glycyrrhiza [glitsiriza] - qizilmiya, shirinmiya.
- Lekin zincum so'zida z harfi [s] deb o'qiladi:
 - Zincum [sinkum] - rux.

HARF BIRIKMALARINING TALAFFUZI


- Q q harfi doim u bilan qo'llaniladi va [kv] kabi o'qiladi:
 - aqua – [akva] – suv
- Ngu harf birikmasi unlilardan oldin kelsa, [ngv] kabi, undoshlar oldidan kelsa, [ngu] kabi o'qiladi:
 - lingua – [lingva] – til
 - angulus – [angulyus] – burchak
- Ti harf birikmasi unlilardan oldin kelsa, [tsi] kabi, x, s undoshlaridan keyin kelsa, [ti] kabi o'qiladi:
 - solutio – [solyutsio] – eritma
 - mixtio – [mikstio] – aralashma

DIGRAFLAR TALAFFUZI

Yunon tilidan kelib chiqqan so'zlarni tegishli tovush orqali yetkazish uchun rimliklar tomonidan lotin tiliga kiritilgan ch, ph, rh, th digraflari mavjud:

- ch – x – nucha – [nuxa] – gardan
- ph – f – phosphorus – [fosforus] – fosfor

- *rh – r* – rheum – [reum] – rovoch
 - *th – t* – thorax – [toraks] – ko'krak qafasi
- Sch* harf birikmasi [**sx**] kabi o'qiladi:
- *ischium* – [**isxium**] – quymuch



4-rasm. Ot skeleti



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

6-mashq. “C” harfi o'qilishiga e'tibor bering:

caput - bosh; collum - bo'yin; cavitas - bo'shliq; occiput - ensa; truncus - poya, tana; facies - yuža; caecus - ko'r; cerebrum - bosh miya; clavicularis - o'mrovga oid; scapula - kurak suyagi; accessorius - qo'shimcha; musculus - mushak; sceleton - skelet; cruciatus - xochsimon; cementum - sement; cavum cranii - kalla bo'shlig'i; saccus lacrimalis - ko'z yoshi haltasi; cartilago - tog'ay; condylus - do'ng; biceps - ikki boshli; cellula - katakcha, hujayra; corpus - tana; sulcus palatinus - tanglay egati; sulci palatini - tanglay egatlari; vertebrae cervicales - bo'yin umurtqalari; vertebrae sacrales - dumg'aza umurtqalari; os

coccygis - dum suyagi; foramina sacralia dorsalia - orqa dumg'aza teshiklari; bucca - lunj; buccae - lunjlar.

7-mashq. "I" va "j" harflari o'qilishiga e'tibor bering:

intestinum - ichak; infraspinatus - o'tkir qirra osti; iater (*yun.*) - shifokor; paries inferior - pastki devor; insula - orolcha; junctura (iunctura) - bog'lanma; jugum (iugum) - tepalik; jugularis (iugularis) - bo'yinturuqqa oid; canalis palatinus major (maior) - katta tanglay kanali; fossa infratemporalis - chakka osti chuqurchasi; tuberculum majus (maijs) - katta do'mboqcha; jejunum (ieiunum) - och ichak; iliacus - yonboshga oid

8-mashq. "Ss" va "s" harflari o'qilishiga e'tibor bering:


fossa - chuqurcha; humerus - yelka suyagi; mesenterium - ingichka ichak tutqichi; impressio - botiq; sinus - sinus; sigmoideus - sigmasimon; septum nasi - burun to'sig'i; canalis hypoglossalis - til osti kanali; processus styloideus - bigizsimon o'simta; basis cranii - kalla asosi; segmentum - segment; pars petrosa - toshsimon qism; chiasma - kesishma; fissura - yoriq; dens incisivus - kesuvchi tish; platysma - bo'yinning teri osti mushagi; mesogastrium - me'da tutqichi; mucosus - shilliqli; nasolacrimalis - burun-ko'z yoshiga oid; sulcus sinus transversi - ko'ndlalang sinus egati.

9-mashq. "X" va "z" harflari o'qilishiga e'tibor bering:

flexio - bukish; axis - o'q, ikkinchi bo'yin umurtqasi; externus - tashqi; maxillaris - yuqori jag'ga oid; fornix - gumbaz; index - ko'rsatkich, ko'rsatkich barmoq; punctum fixum - qotirilgan nuqta; plexus - chigal; larynx - hiqildoq; dexter - o'ng; maxilla - yuqori jag'; circumflexus - aylanib o'tuvchi; radix - ildiz; extremitas - oxir; os coxae - chanoq suyagi; stratum zonale - belbog'li qavat; zygomaticus - yonoqqa oid; trapezius - trapetsiya; zona orbicularis - aylanma soha; vena azygos - toq vena.

10-mashq. Atamalarни o'qing va ostiga chizing harf birikmalarining talaffuziga e'tibor bering.

Althaea, aether, bronchus, camphora, chirurgus, bronchialis, Morphinum, encephalon, Hippophaë, Kalanchoë, kephalargia, metaphisis, nephritis, phlegmone, phystiotherapia, physiologia, thorax, xerophagia, Ichthyolum, Rheum, phalanx, rheuma- tismus, saccharum, raphae, erythema, therapia, diaphoreticus, Phosphorus, Mentha, concha, cirrhosis, Helianthus, Phenolum, Chamomilla, Schizandra, diaphragma, Ephedra, lethargia, cholecystopathia, Strophanthus, pharmacologia, chronicus, Glycyrrhiza, terebinthina.



5-rasm. Suyakning tuzilishi



Uyga vazifa

11-mashq. So‘zlarni o‘qing va o‘qilish qoidalarini tushuntiring.


Charta, Arachis, Rheum, Quercus, aether, diphthericus, lingua, solutio, camphora, Glycyrrhiza, haemostaticus, Norsulfazolum, praecipitatus, cochlear, Chamomilla, Equisetum, Mentha, aqua, axungia, extractum, scatula, mel, unguentum.

12-mashq. C harfi [s] tovushini ifodalovchi so‘zlarni topib yozing.

Carbo, cytologia, cito, Cucurbita, calor, Citrus, bacca, baccae, decoctum, cera.

13-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va s harfining [z] tovushidek o‘qilishini tushuntiring.

Anisum, dosis, usus, Vaselinum, narcosis, mensura, gargarisma, suasor, plasma.



6-rasm. Ot muskullarining lotincha nomlanishi.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Manus manum lavat* - Qars ikki qo‘ldan chiqadi.
2. *Verum amicum pecunia non parabis* - Xaqiqiy do‘sni pulga sotib ololmaysan.
3. *Unum castigbis, centum emendabis* - Birni jasolaysan, yuzni tuzatasan.



Nazorat uchun savollar:

1. q va ngu harf birikmalari qanday o‘qiladi?
2. ti, su harf birikmalari qanday o‘qiladi?
3. Digraf deb nimaga aytildi va qanday digraflarni bilasiz?
4. sch harf birikmasi qanday o‘qiladi?

Ad|min|is|tra|tio



SO‘ZLARNING BO‘G‘INLARGA BO‘LINISHI.

Darsning maqsadi: Urg‘u qoidalarini bilib olish. Lotin so‘zlar talaffuzida urg‘uli bo‘g‘inni ajratib o‘qiy olish.

Darsning mazmuni: Lotin tilida ham so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi, urg‘u olgan bo‘g‘in katta ovoz kuchi bilan talaffuz etiladi. So‘zda qancha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

Bo‘g‘inlar so‘zning oxiridan boshlab hisoblanadi:

pro – fūn – dus
3 2 1

Lotin tilida bo‘g‘inlar cho‘ziq yoki qisqa bo‘lishi mumkin.

Cho‘ziqlik qoidasi

1. Agar bo‘g‘inda diftong bo‘lsa, o‘scha bo‘g‘in cho‘ziq talaffuz qilinadi: *gangraena* - to‘qimalarning o‘lishi, *diaeta* - parhez; *lagoena* - shisha idish

2. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki x va z undoshlari oldida kelsa, shu bo‘g‘in cho‘ziq o‘qiladi: *maxilla* - yuqori jag‘; *tabuleta* - tabletka; *unguentum* - surtma; *Glycyrrhia* - qizilmiya; *reflexus* - refleks.

3. Agar bo‘g‘inda **ur, in, at, ut, ar, al, ox** qo‘sishimchalari bo‘lsa, bu bo‘g‘inlar cho‘ziq o‘qiladi. *fissura* - tirkish; *analginum* - analgin; *nitratis* - nitrat; *acutus* - o‘tkir; *aquosus* - suvli; *muscularis* - mushakli; *costalis* - qovurg‘aga oid.

Qisqalik qoidasi

1. Agar unli harf unli harf oldida kelsa, o‘scha bo‘g‘in qisqa o‘qiladi: *oleum* - moy; *labium* - lab; *folium* - barg.

2. Agar unli harf **bl, br, cl, cr, dl, dr, pl, pr, tl, tr** harf birikmalari oldida kelsa, shu unli qisqa talaffuz qilinadi: *vertebra* - umurtqa; *cerebrum* - bosh miya; *cicatrix* - chandiq; *palpebral* - qovoq.

3. Agar unli harf **ch, th, ph, rh, qu** harf birikmalari oldida kelsa, qisqa o‘qiladi: *stomachus* - oshqozon; *reliquus* — qoldiq; *amaphos* - amafos; *choledochus* - o‘t (safro)ga oid.

4. Agar bo‘g‘inda **ul, ol, ib, il, id** harf birikmalari bo‘lsa, bo‘g‘in qisqa o‘qiladi: *iectabilis* - igna orqali dori yuborishga taalluqli; *gracilis* - nafis; *solubilis* - eruvchan; *fluidus* - suyuq.

5. **ia** qo‘sishimchasiga ega bo‘lgan ayrim yunon atamalarida urg‘u i harfiga tushadi: *Dysenteria* — ichburug‘; *anaemia* — kamqonlik; *therapia* — davolash; *hypertonia* — qon bosimining ko‘tarilishi.

URG‘U QOIDALARI

Lotin tilida ham so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi, urg‘u olgan bo‘g‘in katta ovoz kuchi bilan talaffuz etiladi. So‘zda qancha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

1. Bo‘g‘inlar so‘zning oxiridan boshlab hisoblanadi:

pro – fún – dus

3 2 1

2. Bir bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u unli harfga tushadi:

déns, ós

3. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u so‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inga tushadi:

vé – na

2 1

óš – sa

2 1

4. Lotin tilida urg‘u odatda so‘z oxiridan ikkinchi cho‘ziq bo‘g‘inga qo‘yiladi. Agar so‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘in qisqa bo‘lsa, u holda urg‘u so‘z oxiridan uchinchi bo‘g‘inga qo‘yiladi.

trans – vér – sus

3 2 1

tu – bér – cu – lum

4 3 2 1

5. So‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inlar quyidagi hollarda cho‘ziq o‘qiladi:

a) bo‘g‘in tarkibida diftong bo‘lsa:

di – áe – ta

3 2 1

pe – ri – to – náe – um

5 4 3 2 1

b) unli harf ikki yoki undan ko‘p undoshdan oldin kelsa:

li – ga – mén – tum

4 3 2 1

la – bi – rín – thus

4 3 2 1

c) unli harf z va x undoshlaridan oldin kelsa:

re – flé – xus

3 2 1

gly – cyr – rhí – za

4 3 2 1

d) -ura, -itis, -oma ot yasovchi suffikslari:

in – ci – sú – ra

4 3 2 1

bron – chí – tis

3 2 1

a – de – nó – ma

4 3 2 1

e) -al-, -ar-, -at-, -in-, -os-sifat yasovchi suffikslari:

or – bi – tá – lis

4 3 2 1

ar – ti – cu – lá – ris

5 4 3 2 1

ha – má – tus

3 2 1

pel – ví – nus

3 2 1

pa – la – tí – nus

4 3 2 1

spi – nó – sus

3 2 1

NB! Serotinus va trigeminus sifatlarida -in- suffiksi qisqa o‘qiladi.

6. So‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inlar quyidagi hollarda qisqa o‘qiladi:

a), b, c, d, g, p, t harflari l, r harflari bilan birikmalaridan oldin unli kelsa:

vér – te – bra

3 2 1

cé – re – brum

3 2 1

b) unli yoki h harfidan oldin unli kelsa:

ó – le – um

3 2 1

fó – ve – a

3 2 1

éx – tra – hunt

3 2 1

c) -ol-, -ul-ot yasovchi suffikslari:


scá – pu – la
3 2 1

al – vē – o – lus
4 3 2 1

d) -ic-, -id-, -il-, -it- sifat yasovchi suffikslari:

tho – rá – ci – cus flú – i – dus so – lú – bi – lis com – pó – si – tus
4 3 2 1 3 2 1 4 3 2 1 4 3 2 1

7. Bo'g'inning cho'ziqligi harf ustiga to'g'ri chiziqcha (ä, ö, ï), qisqligi – yarim oy (ä, ö, ï) qo'yib belgilanadi: fissūra, canālis, tunīca, tuberosītas, lamīna, gingīva, pylōrus, orbīta.



7-rasm. Bo'g'imning tuzilishi.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

14-mashq. Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qing:

costa - qovurg'a; apex - uch; arcus - yoy; bursa - halta; bulbus - piyozbosh; cauda - dum; barba - soqol; cavum - bo'shliq; minor - kichikroq; cornu - muguz; situs - holat; ramus - shox; collum - bo'yin; manus - qo'l; vomer - dimog'; sternum - to'sh suyagi; atlas - I bo'yin umurtqasi; sella - egar.

15-mashq. So'z oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlab, urg'u qo'ying.

medulla ossium - suyak iligi; membrum inferius - quyi mucha; epigastrium - qorin usti; substantia compacta - zich modda; ligamentum - boylam; processus transversus - ko'ndalang o'simta; corpus maxillae - yuqori jag' tanasi; ductus choledochus - o't yo'li; facies poplitea - taqim yuzasi; quadruplex - to'rt karra; palpebra superior - yuqori qovoq; periosteum - suyak usti pardasi; arcus vertebrae - umurtqa ravog'i.

16-mashq. Suffixlar cho'ziq yoki qisqaligini hisobga olib, urg'u qo'ying:

hiatus sacralis - dumg'aza tirqishi; incisura vertebralalis - umurtqa o'ymasi, clavicularis - o'mrovga oid; mentalis - engakka oid; sulcus pulmonalis - o'pka egati; foramen spinosum - o'tkir qirrali teshik; fossa glandulae lacrimalis - ko'z yoshi bezi chuquri; processus zygomaticus - yonoq o'simtasi; incisura supraorbitalis - ko'z kosasi usti o'ymasi; pars squamosa - tangasimon qism; nodi pancreatici - me'da osti bezi (limfatik) tuguni; pelvinus - chanoqqa oid; pubicus - qovga oid; foveolae granulares - donador chuqurchalar; glomerulus - koptokcha; geniculum - tizzacha; hamulus pterygoideus - qanotsimon ilmoqcha; fossa pterygopalatina - qanot-tanglay chuquri; digitatus - barmoqsimon; cribrosus - g'alvirsimon.



Uyga vazifa

17-mashq. Quyidagi so'zlarni bo'g'inga bo'lib urg'u qo'ying.

equus, pila, pauper, silva, scribtor, sagitta, aratrum, ablativus, abesse, majus, laboreo, aegrotus, epistula, amica, puella, potentia, janua.

18-mashq. Zaruriy holatlarda lug'atga murojaat qilgan holda urg'u qo'ying.

alae vomeris - dimog' suyagi qanotlari; gingiva - milk; trachea - kekirdak; osteologia - osteologiya; myologia - miologiya; pars superior duodeni - o'n ikki barmoq ichak yuqori qismi; glossopharyngeus - til-halqumga oid; orbita oculi - ko'z kosasi; peroneus - kichik boldirga oid; carpeus - qo'lning kaft usti qismiga oid; articulatio sacrococcygea - dumg'aza-dum bo'g'imi; cartilagineus - tog'ayga oid; organon gustus - ta'm a'zosi; gluteus - dumbaga oid; pylorus - pilorus; peritoneum - qorin parda; metathalamus - metatalamus (ko'ruv bo'rtig'i ortidagi miya qismi); minimus - eng kichik; musculus levator fornicis - gumbazni ko'taruvchi mushak; os coccygis - dum suyagi; apertura thoracis inferior - ko'krak qafasi pastki tuynugi; nervus trigeminus - uch shoxli asab tolasi; labyrinthus ethmoidalis - g'alvirsimon labirint.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Ut sementem facis, ita metes* - Nima eksang shuni o'rasan.

2. *Disce, sed a doctis, indoctos ipse doceto* - Bilgandan o'rgan, bilmaganga o'rgat.

3. *Amor tussisque non celatur* - Sevgi va yo'talni yashirib bo'lmaydi



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tilidagi so'zlar bo'g'inqlarga qanday bo'linadi?

- Bo‘g‘inlarning cho‘ziqlik qoidasini aytинг.
- Bo‘g‘inlarning qisqalik qoidasini aytинг.
- Lotin tilida urg‘u qaysi bo‘g‘inga qo‘yiladi?



MORFOLOGIYA. SO‘Z TURKUMLARI. OT SO‘Z TURKUMI. ANATOMIK ATAMASHUNOSLIKDA I VA II TURLANISHDAGI OTLAR.

Darsning maqsadi: Otning grammatik kategoriyalari, besh xil turlanish bclgilari, rod belgilari, I-II turlanishdagi otlarning lug‘at shaklini bilish; anatomik atama tarkibini tahlil qila olish, atamani tashkil etuvchi so‘zlarning grammatik vazifasini aniqlash; atamalarni lotin tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila bilish.

Darsning mazmuni: *morfologiya* (yun. *morphe* — shakl va *logiya* — fan) (tilshunoslikda) — 1) tilning morfologik qurilishi; 2) so‘z shakllari haqidagi ta’limot. Birinchi ma’nosida ob’yektni anglatса, ikkinchi ma’nosida tilshunoslikning shu ob’yektni o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi.

So‘zlarning ma’no va grammatik jihatidan o‘xshashliklariga ko‘ra ayrim leksik-grammatik turlarga bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan guruhlarga so‘z turkumlari deb ataladi. Lotin tilida ham o‘zbek tilidagidek mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari mavjud.

Mustaqil so‘z turkumlari:

- **Nomen Substantivum** - ot so‘z turkumi
- **Nomen Adjectivum** - sifat so‘z turkumi
- **Verbum** – fe'l so‘z turkumi
- **Pronomen** - olmosh so‘z turkumu
- **Numerale** - son so‘z turkumi
- **Adverbium** - ravish so‘z turkumi.

Yordamchi so‘z turkumlari:

- **Praepositio** - old ko‘makchilar yoki predloglar
- **Conjunctio** - bog‘lovchilar
- **Interiectio** - undov
- **Particulae** - yuklamalar

Ot so‘z turkumi (Nomen Substantivum).

Predmetning ma’nosini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, rod, kelishik kategoriyalariga ega bo‘lib, kim? nima? so‘roqlariga javob beradigan so‘z turkumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar quyidagi grammatik kategoriyalarga ega :

1. Otlar lotin tilida uchta rodga ega:

Genus masculinum (m) - mujskoy rod (m.r)

Genus femininum (f) - jenskiy rod (j.r)

Genus neutrum (n) - sredniy rod (s.r)

2. Otlar lotin tilida ikkita songa ega:

Numerus singularis (sing) - birlik son

Numerus pluralis (plur) - ko'plik son

3. Otlar lotin tilida beshta kelishikka ega:

Casus nominativus (nom) - bosh kelishigi , - kim? nima?

Casus genetivus (gen) - qaratqich kelishigi, -kimning? nimaning?

Casus dativus (dat) - jo'nalish kelishigi, - kimga? nimaga?

Casus accusativus (acc) - tushum kelishigi , - kimni? nimani?

Casus ablativus(abl) - birgalik kelishigi, - kimdan? nimadan?

Yana (*casus vocativus*) nomli kelishik borki u faqt muloqt qilishda qo'llaniladi. Tibbiyat so'zlarida qo'llanilmaydi va biz buni inobatga olmaymiz.

4. Lotin tilida otlar 5-ta turlanishga ega: ular qaratqich kelishigining birlik sonidagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi.

Turlanish	I	II	III	IV	V
Qo'shimcha	ae	i	is	us	ei

Otlar turlanishlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I turlanish *Genus femininum*

II turlanish *Genus masculinum, Genus neutrum*

III turlanish *Genus masculinum, Genus femininum, Genus neutrum*

IV turlanish *Genus masculinum, Genus neutrum*

V turlanish *Genus femininum*

5. Otlarning negizini aniqlash uchun qaratqich kelishik birlik sonidagi shaklidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak, so'z o'zagiga barcha kelishik qo'shimchalarini qo'shish orqali turlanadi:

Nom	Gen	Rod	Turlanish	O'zak
morbus	morbi	M	II	morb
dies	diei	F	V	di
arcus	arcus	M	IV	arc
bursa	bursae	F	I	burs
corpus	corporis	N	III	corpor

6. Lotin tilida otlarning rodini bosh kelishik birlikdagi qo'shimchasi orqali aniqlanadi. Bosh kelishik birlikda *genus femininumda -us, -er, genus femininumda -a, es, genus neutrumda -um, -on, -u* qo'shimchalariga ega bo'ladi.

7. Lotin tilida otlar lug‘at shaklida ko‘rsatiladi va faqat shu shaklda yodlanadi. Otlarning lug‘at shakli avvalo bosh kelishik birlikda to‘liq, so‘ngra qaratqich kelishigi birlidagi qo‘shimchasi va rodi ko‘rsatiladi:

Nom.sing, Gen.sing, rod

vesica, ae, f - pufak

dorsum, i, n - orqa

corpus, oris, n - tana

mater, tris, f - miya pardasi

genu, us, n - tizza

fundus, i, m - tub

magister, tri, m - o‘qituvchi

homo, inis, m - odam

arcus, us, m - yoy

dies, ei, f - kun

Otlar ikkita songa ega:

Numerus singularis - birlik son. Otning birlik soni ot o‘zagidan hosil bo‘ladi.

Lug‘atda berilishi birlik sonidir. (a, us, er, ir, um, or, os, as, es, x, o, io, en, us, u, s,)

Misol: pomum, schola , uva, floris, amocus, magoster va boshqalar.

Numerus pluralis - ko‘plik son. Otning ko‘plik soni ot o‘zagiga qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil qilinadi.(ae, i, a, es, a, u, ua,es)

Misol: amocae, magostro, bella, mari, domus, fructus, dies.

I va II turlanishdagi otlar

Otlarning **birinchi** turlanishiga *Gen. Sing.da -ae, Nom. Sing.da -a* qo‘shimchasiga ega bo‘lgan *genus femininum*dagi otlar kiradi .

Nom., Gen.,

ala, ae f -qanot

crista, ae f -qirra

aorta, ae f -aorta

gingiva, ae f -milk

arteria, ae f -arteriya

papilla, ae f -so‘rg‘ich

bucca, ae f -lunj

patella, ae f -tizza qopqog‘i

fossa, ae, f -chuqur

protuberantia, ae f -do‘nglik

concha, ae f -chig‘anoq

pulpa, ae f -go‘sht, pulpa

costa, ae f -qovurg‘a

scapula, ae f -kurak suyagi

Otlarning **ikkinci** turlanishiga *genus masculinum* va *genus neutrum*dagi otlar kiradi. *Masculinum Nom. Sing.da -us, -er, Neutrum Nom. Sing.da - um, -on* qo‘shimchalariga ega bo‘lgan otlar kiradi. Ikkala roddagi otlar *Gen. Sing.da -i* qo‘shimchasi bilan turlanadi.

Nom. Sing., Gen. sing.

alveolus, i m -katakcha, alveola

liber, bri, m – kitob

angulus, i m -burchak

ligamentum, i n -boylam

brachium, i n -yelka

manubrium, i n -dasta

calcaneus, i m -tovon suyagi

musculus, i m -mushak

cavum, i n -bo‘shliq

oesophagus, i, m -qizilo‘ngach

collum, i, n -bo‘yin
 cranium, i n -kalla
 colon, i, n -chambar ichak
 digitus, i m -barmoq
 frenulum, i n -yugancha
 humerus, i m -yelka suyagi
 jugum, i n -tepalik
 labium, i n -lab

olecranon , i, n -tirsak o‘sig‘i
 uterus, i, m -bachadon
 septum, i n -to‘siq
 sulcus, i m -egat
 radius, i m -bilak suyagi
 rectum, i, n -to‘g‘ri ichak
 sternum, i n -to‘sh suyagi
 tympanum, i n -nog‘ora



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

22-mashq. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

- | | |
|---------------------|-------------------|
| 1) foliorum | 6) extra |
| 2) olea | 7) folium |
| 3) extractum | 8) unguenta |
| 4) unguenti | 9) olei |
| 5) suppositoria cts | 10) suppositorium |

23-mashq. II turlanishidagi otlarni ko‘rsating.

- | | |
|------------------|-----------------|
| 1) globulus, i,m | 4) morbus, i,m |
| 2) habitus, us,m | 5) exitus, us,m |
| 3) sirupus,i, m | 6) succus, i,m |

24-mashq. O‘zbek tiliga tarjima qiling :

1.Sulcus costae. 2.Septum linguae. 3.Collum mandibulae. 4.Collum scapulae. 5.Angulus mandibulae. 6.Capitulum humeri. 7.Muculus linguae. 8.Vena colli. 9.Vena cerebri. 10.Sutura crani.

25-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

1.Qovurg‘aning bo‘yni. 2.Umurtqaning venasi. 3.Qovurg‘aning egati. 4.Ko‘krakning qirrasi. 5.Pastki jag‘ning kesmasi. 6.O‘mrov suyaging sinishi. 7.Umurtqaning arteriyasi. 8.Qovurg‘a bo‘yning qirrasi. 9.Patki jag‘ning sinishi. 10.Qovug‘aning do‘mboqchasi. 11.Tilning devorchasi. 12.Katta miyaning arteriyasi. 13.Burunnig orqasi.



Uyga vazifa

26-mashq. II turlanish *genus neutrum*dagi otlarni ko‘rsating.

- | | |
|--------------------|-------------------|
| 1) Magnolia, ae, f | 2) Ferrum, i, n |
| 3) aegrotus, i, m | 4) cornu, us, n |
| 5) decoctum, i, n | 6) ampulla, ae, f |

7) Secale, is, n


8) acidum, i, n

27-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Collum radii, caput humeri, fossa olecrani, os digitii, sulcus sinus, os coxae, truncus encephali, fossa acetabuli, basis patellae, vagina musculi, bulbus aortae, limen nasi, arteria genus, musculus uvulae.

28-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

Umurtqa tanasi, qovurg'a boshchasi, aorta yoyi, kallaning asosi, burun bo'shlig'i, kurak bo'yinchasi, o'simta qini, burun yo'li, pastki jag' o'ymasi, gangliy kapsulasi, yuqori jag' do'mbog'i, bo'yin mushagi, egar orqasi, burun to'sig'i, pastki jag' o'ymasi, o'simta chuqurchasi, umurtqa ravog'ning oyoqchasi, qovurg'a do'mboqchasingyuzasi, o'simta plastinasi, egar orqasi, shox yadrosi, chig'anoq asosi, burun (bo'shlig'i) dahlizi.



9-rasm. Otda og'iz va burun bo'shlig'ini tuzilishi.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. Ignavum fucus pecus a praesepibus arcent – Odamni olasi ichida.
2. Ignorantia non est argumentum – Bilmaslik ayb emas.
3. Citius, altius, forties – Tezroq , balandroq, kuchliroq



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tilida otlar nechta rodga ega?
2. Otda nechta son bor?

3. Otlar nechta kelishikka ega?
4. Lotin tilida otlar nechta turlanishga ega?
5. Otlarning lug‘at shakli qanday?
6. Lotin tilida otlar negizi qanday aniqlanadi?

OTNING NEGIZINI ANIQLASH

So‘zning asosiy tugallanmasiz qismi *negiz* deb ataladi. Negizni aniqlash uchun so‘z qaratqich kelishigiga qo‘yilib uning tugallanmasi olib tashlanadi.

<i>Bosh kelishik</i>	<i>Qaratqich kelishik</i>	<i>Rod</i>	<i>Negiz</i>
vertebra	Vertebrae	<i>f</i>	vertebr-
canalis	Canalis	<i>m</i>	canal-
septum	Septi	<i>n</i>	sept-
zygoma	Zygomaticus	<i>n</i>	zygomat-
regio	Regionis	<i>f</i>	region-
ductus	Ductus	<i>m</i>	duct-
cornu	Cornus	<i>n</i>	corn-
facies	Faciei	<i>f</i>	faci-
crus	Cruris	<i>n</i>	crur-
foramen	Foraminis	<i>n</i>	foramin-

OT RODINI ANIQLASHNING UMUMIY QOIDALARI.

Nominativus va Genetivus singularisda ot qo‘shimchalari

Lotin tili otlarining grammatik rod belgisi *Nom. sing.* qo‘shimchasi hisoblanadi. Misol uchun, *Nom. sing.* da –er qo‘shimchasini olgan barcha otlar *m* rodiga mansub (cancer, cri *m* - saraton - II turl.; vomer, eris *m* - dimog‘ - III turl.); *Nom. sing.* da –u bilan tugallanuvchi otlarning barchasi *n* rodida (genu, us *n* - tizza; cornu, us *n* - muguz) va h. Turli rodli otlarda *Nom. sing.* bir xil qo‘shimchaga ega bo‘lgan holatlarda, rodini faqat *Gen. sing.* qo‘shimchalarining ma’lum birikmasi orqali aniqlash mumkin.

<i>Turlanish</i>	<i>I</i>	<i>II</i> ·		<i>III</i>			<i>IV</i>		<i>V</i>
Rod	f	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
Nominativus singularis	a	<i>us, er</i>		<i>Har xil</i>			<i>us</i>		<i>es</i>
Genetivus singularis	<i>ae</i>	<i>i</i>		<i>is</i>			<i>us</i>		<i>ei</i>

NB!

1. *Nom. sing.* da -a qo'shimchali otlar *froдiga mansub*. *Gen. sing.* da ular -a qo'shimchasini oladi, ya'ni I turlanishda turlanadi:
costa, ae f - qovurg'a - I turl.
vertebra, ae f - umurtqa - I turl.
pulpa, ae f - pulpa - I turl.

NB!

-ma otlari orasida *Gen. sing.* da -atis bilan tugallanuvchi, yunoncha kelib chiqishli *n* roddagi so'zlar mavjud: zygoma, atis *n* - yonoq.

2. *Nom. sing.* da -um yoki -on qoshimchali otlar *neutrum rodiga mansub*. *Gen. sing.* da ular -i qo'shimchasini oladi, ya'ni II turlanishda turlanadi:
tuberculum, i *n* - do'mboqcha - II turl.
sternum, i *n* - to'sh suyagi - II turl.
acromion, i *n* - acromion - II turl.
skeleton, i *n* - skelet - II turl.

So‘zning turlanish yoki tuslanishdagi o‘zgaruvchan qismiga tugallanma deyiladi:

Succus purus — toza shira

aqua pura — toza suv

unguentum purum — toza surtma

Bu atamalarda **-us**, **-a**, **-um** tugallanmalardir.

Atamaning asosiy ma‘nosini bildiruvchi, so‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchalar olmagan qismiga negiz deyiladi:

costa (negiz—cost)

vertebra (negiz—vertebr)

intervertebral (negiz—intervertebr)

Lotin tili anatomik va farmatsevtik atamalarda, yunon tili klinik atamalarda ko‘p uchraydi.

Ko‘p atamalar bog‘lovchi unli harf yordamida va unsiz ikkita negizning qo‘silihisi bilan hosil bo‘ladi:

Psychotherapia - ruhiy kasallikni davolash

psyshe - ruh

therapia - davolash

Oncologia - o‘smalarni o‘rganuvchi fan

onco - o‘sma

logia - fan

Dermatologia - teri kasalliklarini o‘rga-nuvchi fan

dermat - teri

logia - fan

Ko‘pchilik murakkablashtirilgan dorilarning nomi qisqartirilgan murakkab so‘zlardan iborat bo‘ladi. Ular shu murakkablashtirilgan dori tarkibiga kiradigan dorilarning nomini qisqartirish asosida tuziladi. Misollar:

Tempalginum - tempalgin

Tempidonum - temp

Analginum - algin

Galmaginum - kalmagin

Galcium - cal

Magnium - magni

Goffetaminum - kofetamin

Goffeinum - coffe

Ergotaminum - tamin

**Tibbiy atamalarning yasalishida qo'llaniladigan asosiy so'z yasovchi
qo'shimchalar**

So'z yasovchi qo'shimcha		Ma'nosi	Misollar
Lotincha	Yunoncha		
1	2	3	4
in-, im-	a-, an-	inkor etish, sifatsiz	invalidus – kuchsiz, majruh; impotentia – jinsiy zaiflik
			Analginum – og'riq qoldiruvchi dori
contra-	anti-	qarshi	Contraceptinum – homilaga qarshi dori
			antifebrilis – isitmaga qarshi
-alg-	dys-	og'riq	Neuralgia – asab kasalligi
-dol-			Promedolum – og'riq qoldiruvchi dori
	a'zo faoliyatining buzilishi		dyspnoë – nafas qisishi
	-aesths-	sezish	anaesthesia – og'riqsizlantirish usulining umumiyl nomi
	-arthr-	bo'g'in	Arthralgia – bo'g'im og'rig'i
cor(d)-	-card (i)	yurak	Corazolum – yurak dorisi
			Cardiolgia – asab kasalligi natijasida yurakning xastalanishi
-bili-	-chol (e)-	jigar o'ti	Bilitrastum – rentgen orqali o't pufagini tekshirish uchun qo'llaniladi-gan rangli modda
			cholecystitis – o't pufagining yallig'lanishi
.	-cyst-	pufak	cystitis – siyidik pufagining yallig'lanishi
	-derma-, dermat-	teri	dermatitis – teri yallig'lanishi; dermatologia – teri kasalliklarini o'rganuvchi fan
	-ectomia-	kesib tashlash	Nephrectomia – buyrakni kesib olib tashlash; tonsillectomia – bodomsimon bezni kesib olib tashlash

	endo-	ichki,	endonasalis – burun ichi
intra-		ichidagi	intravenousus – ko'k tomir ichidagi
	enter	ingichka ichak ustida	enteritis – ingichka ichak yallig'lanishi
	epi-	ustki qism, keyin	epidermis – teri ustki qavati; epicrisis – favquloddagi keskin holatdan keyin, kasallik haqidagi oxirgi (keyingi) fikrmulohazalar
	-gaster-	me'da, oshqozon	gastritis – me'da shilliq pardasining yallig'lanishi
	haem (o)	qon	haemostaticus – qon to'xtatuvchi
	-aemia-		anaemia – kamqonlik
inter-		orasi	intercostalis – qovurg'alar oralig'iga oid
	-itis-	yallig'lanish	bronchitis – bronx yallig'lanishi
	-logia-	fan	oncologia – o'smalarni o'rganuvchi fan
	-meta-	joyidan ko'chirish,	metastasis – og'riqning bir a'zodan ikkinchi a'zoga o'tishi
trans-		o'zgartirish	transfusio – quyish; transplantatio – biron-bir a'zoni kesib olib, boshqa joyga o'tkazish
	nephhr-	buyrak	nephritis – buyrakning yallig'lanishi
	-neur-	asab	Neuralgia – asab kasalligi
	-onco-	o'sma	Oncologia – o'smalarni o'rganuvchi fan
	-oma-		Osteoma – suyak to'qimalaridan o'suvchi o'sma
	-ot-	qulq yonida	otitis – qulq yallig'lanishi
	-para-	yonida, o'xhash, atrofida	parasternalis – ko'krak yonida; paratyphus – ich terlamaga o'xhash kasallik paracentralis – markaz atrofida

	-pathia-	kasallik	apathia — befarqlik holati
	-phil(ia)-	moyil, holat	haemophilia — qon oqishiga moyillik; spasmophilia — titrab qaqshashlik holati
	-peri-	atrofida, ustida	pericardium — yurak xaltachasi; periosteum — suyak ustipardasi
	-proct-		proctitis — to‘g‘ri ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi
	-rect(o)-	to‘g‘ri ichak	rectoscopia — to‘g‘ri ichakni tekshirish
re-		qayta, yangidan	reanimatio — qayta tiriltirish
	-scopia-		rectoscopia — to‘g‘ri ichakni tekshirish; gastroscopia — me‘da bo‘shlig‘ini tekshirish
-stomia		jarrohlik yo‘li bilan sun‘iy teshik ochish	Nephrostomia — buyrakdan sun‘iy teshik ochish
	-therapia-	davolash	Hydrotherapia — suv bilan davolash
	-tomia	kesish	Tracheotomia — kekirdakni kesish
	-tonia	bosim	Hypertonia — qon bosimining ko‘tarilishi
	-trophia	oziqlanish	atrophia — oriqlash
-ur (ia)		siydik	dysuria — siydik chiqishining qiyinlashuvi; diureticu — siydik haydovchi



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

19-mashq. Quyidagi so‘z yasovchi qo‘sishchalarni ma’nosiga qarab joylashtiring va o‘qing.

<i>alg</i>	— qulоq
<i>arthr</i>	— yurak
<i>cardi</i>	— bo‘g‘in
<i>chole</i>	— pufak
<i>cyst</i>	— ichki
<i>endo</i>	— o‘t
<i>itis</i>	— o‘sma

<i>gastr</i>	— buyrak
<i>dermat</i>	— og'riq
<i>contra</i>	— yallig'lanish
<i>aesthes</i>	— me'da
<i>nephru</i>	— teri
<i>oma</i>	— qarshi
<i>ot</i>	— sezgi

20-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni ma'nosiga qarab o'z o'rniغا qo'yib chiqing va o'qing.

<i>atrophia</i>	— qon bosimining ko'tarilishi
<i>reanimation</i>	— siydiq chiqishiningqiyinlashuvi
<i>hydrotherapia</i>	— o'smalarni o'rganuvchi fan
<i>dysuria</i>	— asab kasalligi
<i>Corazolum</i>	— oriqlash
<i>intravenousus</i>	— qayta tiriltirish
<i>gastritis</i>	— suv bilan davolash
<i>neuralgia</i>	— yurak dorisi
<i>oncologia</i>	— ko'k tomir ichidagi
<i>hypertonia</i>	— oshqozon shilliq pardasiningyallig'lanishi



Uyga vazifa

21-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tilida yozing va ma'nosini o'zbek tiliga tarjima qiling.

(Analginum), (invalidus), (dermatologiya), (tempalginum), (kalmaginum), (neuralgia), (koftaminum), (onkologiya), (interkostalis), (antipirinum), (korazolum), (dispnoe), (anemia), (hidroterapia).



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Radix littererum amarae sunt fructus dulces* - Ilmnning ildizi achchiq, mevasi esa shirin.

2. *Quilibet fortunae suae faber* - Har kim o'z baxtini o'zi yaratadi.

3. *Qui quaerit – reperit* - Izlagan imkon topar.




Nazorat uchun savollar:

1. Lotincha so'z yasovchi qanday qo'shimchalarni bilasiz?

2. Yunoncha so'z yasovchi qanday qo'shimchalarni bilasiz.

3. Anatomik va farmatsevtik atamalarda qaysi so'z ko'proqishlatiladi.

4. Murakkab atamalar qanday yasaladi?



8-rasm Terlning tuzilishi.



PREDLOG (OLD KO'MAKCHI)LAR VA BOG'LOVCHILAR.

Darsning maqsadi: Veterinariya tibbiy va farmatsevtik iðboralarida predloglar yordamida hosil qilinadi. Lotin tilida predloggarni yasalishi va qo'llanilishini o'rganish. Tibbiy atamalarni bir-biri bilan bog'ash vazifasini hajaruvchi so'zlarni o'rganish.

Darsning mazmuni: predlog ayrim ot yoki otlarni ikkinchi bir so'z bilan bog'lab ularni orasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Har qaysi predlog faqat ma'lum kelishiklar bilan birga ishlataladi. Lotin tilida pedloglar fuqat ikkita kelishikda accusativus va ablativus kelishiklari bilan birga qo'llanadi.

Qo'shimcha	Ma'nolari	Misollar
<i>a, ab</i>	dan, ga, ning, uzoq, yiroq	<i>abductor</i> -uzoqlashtiruvchi <i>abscessus</i> -chekinish,yara,chipqon
<i>ad</i>	yaqinlashtiruvchi (yaqinda, yonida)	<i>adductor</i> -yaqinlashtiruvchi <i>adrenalis</i> -buyrakka yaqin
<i>anti</i>	oldda, qarshida, oldinda, ilgarida	<i>antibrachium</i> -bilak <i>antiuterinus</i> -bachadon oldi
<i>circum</i>	tevaragida, atrofida	<i>circumflexus</i> -aylanma

		<i>circumanalis</i> -orqa teshik atrofida o'rnashgan (joylashgan)
<i>contra</i>	qarshi, qarama-qarshisida	<i>contralateralis</i> -qarama-qarshi tomonda joylashgan
<i>extra</i>	dan, tashqari, vaziyatdan tashqari	<i>extracordialis</i> -yurakdan tashqari <i>extrauterinus</i> -bachadondan tashqari
<i>in, im</i>	ga, da, ichki, siz/ichki harakatni inkor etish	ga, da, ichki, siz/ichki harakatni inkor etish
<i>sub</i>	ostida, pastdan, past	<i>subcutaneus</i> -teri osti <i>subclavius</i> -o'mrov osti <i>subacutus</i> -qattiq (o'tkir) kasallik haqida
<i>super</i> <i>supra</i>	ustida, ustiga	<i>superciliaris</i> -qosh ustidagi <i>superficies</i> -yuz, ust, bet <i>supercutus</i> -favqulotda, xafvli <i>superspinalis</i> -orqa o'simta ustida
<i>trans</i>	orqali, orqa, boshqa tomon	<i>transversus</i> -ko'ngalang <i>transurethralis</i> -siyidik chiqaruvchi yo'l orqali o'tkazish
<i>infra</i>	ostiga, tubiga, ostida, tubida	<i>infraorbitalis</i> -ko'z ostida <i>infracostalis</i> -qovurg'a ostida
<i>intra</i>	orasida, o'rtasida, biror narsa oralig'idagi holat	<i>interosseus</i> -suyak oralig'i intervertebralis-umurtqa orasida
<i>per</i>	orqali, juda (umumiyl tushunchani oshirish)	<i>peracutus</i> -juda o'tkir <i>pertussis</i> -ko'k yo'tal <i>percutaneus</i> -teri orqali hosil qilish
<i>post</i>	keyin, so'ng, orqasidan	<i>postnatalis</i> -tug'ulishdan so'ng postoperativus-operatsiyadan so'ng
<i>prae</i>	old, oldinda, old tomoni	<i>praecardialis</i> -yurakka tegishli old tomon <i>praecardium</i> -yurakka tegishli qism
<i>pro</i>	oldidan	<i>prominins</i> -chiqb turuvchi

Casus accusativusda ishlatiladigan predloglar:

- | | |
|---------------|----------------------|
| <i>ante</i> | - oldida |
| <i>ad</i> | - uchun, -gacha, -da |
| <i>contra</i> | - qarshi |
| <i>intra</i> | - ichida |

<i>per</i>	- orqali
<i>post</i>	- keyin, so‘ngi

Masalan :

<i>ad aegrotam</i>	- kasal uchun
<i>intra vetriculum</i>	- me‘da ichida (oshqozon)
<i>per vaginam</i>	- qin orqali
<i>post partum</i>	- tug‘gandan keyin
<i>ante operationem</i>	- operatsiya oldidan
<i>contra scabiae</i>	- qichimaga qarshi

Casus ablativusda qo‘llanadigan predloglar:

<i>prea</i>	- dan oldin
<i>cum</i>	- bilan
<i>de</i>	- haqida
<i>ex</i>	- dan
<i>sine</i>	- siz
<i>pro</i>	- uchun
<i>a; ab</i>	- ...dan, haqida

Masalan :

<i>cum aqua</i>	- suv bilan
<i>de morbo</i>	- kasallik haqida
<i>ex officina</i>	- dorixonadan
<i>sine colore</i>	- rangsiz
<i>pro aegrota</i>	- bemor uchun

Casus accusativus va ablativusda qo‘llanadigan predloglar:

<i>in – ga; -da</i>	<i>sub - ostida</i>
---------------------	---------------------

Masalan:

<i>in aquam</i>	- suvgaga
<i>in aqua</i>	- suvdaga
<i>sub linguam</i>	- til ostiga
<i>sub lingua</i>	- til ostida

Casus ablativusning ma’lum formalari 1-turlanishdagi otlarda kelishik qo‘shimchalari o‘rnida predloglar qo‘llanilishi mumkin:

<i>causa</i>	- sababli
<i>gratia</i>	- uchun

amicorum causa – do'stim sababli

Qolgan barcha predloglar *casus accusativusda* qo'llaniladi:

<i>apud</i>	– yonida
<i>circum</i>	– atrofida
<i>inter</i>	– o'rtasida
<i>ob</i>	– natijasida
<i>propter</i>	– natijada
<i>trans</i>	– orasidan, qarshi (sida)

Bog'lovchilar

Tibbiy atamalarni bir-biri bilan bog'lash vazifasini bajarib, turlanmaydigan so'z **bog'lovchi** deb ataladi

<i>et</i>	– va, bilan
<i>aut</i>	– yoki
<i>ut fiat</i>	– hosil bo'lguncha
<i>seu</i>	– yoki
<i>sed</i>	– lekin

Masalan:

<i>Costa et vertebra</i>	– qovurg'a va umurtqa
<i>Convallaria aut Valeriana</i>	– marvaridgul yoki belladonna
<i>misce, ut fiat pulvis</i>	– kukun hosil bo'lguncha aralashtir
<i>capsula seu ampulla</i>	– kapsula yoki ampula



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

75-mashq. Old qo'shimchalarni aniqlang va ularning ma'nolarini tushuntiring.

Suprarenalis, infiltratum, interarticularis, proruberantina, praeparatus, subclavius, submaxillaris, transformare, insolubilis.

76-mashq. Old qo'shimchalarining ma'nosini tanlang.

...costalis, e	–qovug'a ostidagi
...osseus, a, um	–suyaklararo
...mucosus, a, um	–shilliq ostidagi
...orbitalis, e	–ko'z kosasi ustidagi
...pharyngeus, a, um	–halqum orasidagi

77-mashq. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) in capsulam | a) til ostida |
| 2) in capsula | b) kapsulada |
| 3) sub chartam | c) qog‘oz ostida |
| 4) sub charta | d) dorixonaga |
| 5) in officinam | e) quticha ostiga |
| 6) in officina | f) kapsulaga |
| 7) sub scatulam | g) dorixonada |
| 8) sub scatula | h) til ostiga |
| 9) sub linguam | i) quticha ostida |
| 10) sub lingua | j) qog‘oz ostiga |

78-mashq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1.Arteria circumflexa humeri.
- 2.Linea obliqua glandulae thyroideae.
- 3.Ramus calcaneus arteriae peroneae.
- 4.Plica tunicae mucosae vesicae felleae.
- 5.Bursa musculi glutei.
- 6.Apex nasi.

79-mashq. O‘qing, tarjima qiling.

In osse ischii corpus, ramum inferiorem distinguimus. Rami ossis ischii angulum formant. Apex crassus anguli tuber ischiadicum nominatur os coxae est os compositum. Os ilium, os pubis et os ischii os coxae formant. Pars inferior brevis et crassa ossis ilium corpus ossis ilium nominatur

format – vujudga kelishi, hosil qilish

nominator – nomlamoq

crassus – qo‘pol, yo‘g‘on

liber – bo‘s, erkin



Uyga vazifa

80-mashq. Old qo‘sishchalarni aniqlang va ularning ma’nolarini tushuntiring.

permanens, supercilium, infraspinatus, supscapularis, intertrchantericus, intramuscularis, intermuscularis, infraorbitalis.

81-mashq. Old qo‘sishchalarning ma’nosini tanlang.


- | | |
|--------------------|-----------------------|
| ...clavicularis, e | –kurak ustidagi |
| ...muscularis, e | –muskullar ichidagi |
| ...mandibularis, e | –pastki jag‘ ostidagi |
| ...ganglionaris, e | –tugun orqasidagi |
| ...ganglionaris, e | –tugun oldida |

82-mashq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1.Digitus pedis.
- 2.Planta pedis.
- 3.Os digitii pedis.
- 4.Forma cranii.
- 5.Fractura crani.
- 6.Musculus longus femoris.
- 7.Ligamentum teres uteri.
- 8.Arteria ligamenti teretis uteri.

83-mashq. O'qing, tarjima qiling.

Pars superior lata et tenuis ossis ilium format. In margina superiore libero alae ossis ilium crista crassa est. Os pubis corpus breve et crassum, ramum superiore et ramum inferiore distinguimus. Rami ossis ischii angulum format. Apex crassus anguli tuber ischiadicum nominatur.



17-rasm. Yurakning sagittal kesimi

Quyidagi maqollarni yod oling.

1. Optimum medicamentum ques est - Orom eng yaxshi malhamadir.
2. Ut quisque est doctissimus, ita est modestissimus - Kim aqli bo'lsa u kamtarin hamdir.
3. Bonum initium est dimidium facti - Yaxshi boshlangan ish yarim bitgan ish.




Nazorat uchun savollar:

1. Accusativus kelishigida qanday predloglar qo'llaniladi?

2. Ablativus kelishigida qanday predloglar ishlataladi?

3. Tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchilarni misollar asosida izohlang.



18-rasm. Yurakning tashqi tuzilishi

1-atrium dextrum; 2-v.cava inferior; 3-v.cordis parva; 4-a.coronari dextra; 5-valvula sinus coronarii; 6-sinus coronarius; 7-r.interventricularis posterior a.coronariae dextrae; 8-v.cordis media; 9-ventriculu dexter; 10-apex cordis; 11-ventriculus sinister; 12-v.posteriorventricul sinistri; 13-r.circumflexus a.coronariae sinistre; 14-v.cordis magna 15-v.obliqua atri sinistri; 16-atrium sinistrum; 17-w.pulmonales sinistrale; 18-a.pulmonalis sinistra; 19-arcus aortae; 20-a.subclavia sinistra 21-a.corotis communis sinistra; 22-truncus brachiocephalicus; 23-v.cava superior; 24-a.pulmonalis dextra; 25-w.pulmonales dextrae.

ANATOMIK TERMINLARNI BIRLIK VA KO'PLIK SHAKLIDA ISHLATILISHI

Anatomik terminlarni tuzishda ot va sifat so'z turkumiardan foydalilanildi. Ot qaysi rodda ishlatsila sifat ham shu rodda bo'ladi.

Ala dextra corporis;
Tuberculum minus frontis;
Processus major dentis;

Anatomik terminlarni ko'plik shaklida ishlatalishi

Gen. Pl. shakiini yasash uchun quyidagilarni bilish shart:

- 1) otlarning va sifatlarning lug'at shakli;
- 2) turlanishi;
- 3) negizni to'g'ri tanlash;
- 4) negizga Gen. Pl. qo'shimchasini qo'shish.

Eslab qoling: Turlanish Gen. Pl.

I	-arum
II	-orum
IV	-uum
V	-erum

I, II, V turlanishdagi otlarga I guruh hamda orttirma daraja sifatlariga qaratqich kelishigi qo'shimchasining umumiy komponenti "um" xarakteri unli asosga "r" orqali qo'shiladi. IV turlanishdagi otlarga esa bevosita xarakterli unli "u" ga qo'shiladi.

Lug'at shakli	Turlanish	Negizi	Xarakterli unli	Qo'shimcha	Gen. Pl.
glandula, ae, f	I	glandul	a	rum	glandularum
nervus, i, m	II	nerv	o	rum	nervorum
septum, i, n	II	sept	o	rum	septorum
ganglion, i, n	II	gangli	o	rum	gangliorum
textus, us, m	IV	text	u	um	textuum
cornu, us, n	IV	corn	u	um	cornuum
facies, ei, f	V	faci	e	rum	facierum
thoracicus	II	thoracic	o	rum	thoracicorum
thoracica	I	thoracic	a	rum	thoracicorum
thoracicum	II	thoracic	o	rum	thoracicorum


Mustahkamlash uchun mashq:

I. Otlarning turlanishini jadval yordamida aniqlang:

concharum, sulcorum, processum, digitorum, facierum, lamellarum, arteriarum, oculorum, lingularum, ligamentorum, plexum, genuum, aperturarum, recessum.

II. Gen. Pl shaklini yasang:

pes, pedis, m; cavitas, atis, f; foramen, inis, n; unguis, is, m; thenar, aris, n; dens, dentis, m; caput, itis, n; frons, frontis, n; paries, etis, m; tempus, oris, n; canalis, is, m; apex, icis, m; calcar, aris, n; tuberositas, atis, f; cervix, icis, f; os. ossis, n; ars, artis, f; stapes, edis, m; glans, glandis, f; meninx, ngis, f.



19-rasm. Qon tomirlarni tuzilishi.

Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

commissura, ae f
glandula, ae suprarenalis
medulla, ae f

bitishma
buyrak usti bezi
miya, miyaga oid modda

m. oblongata	uzunchoq miya
m. ossium	suyak iligi
m. spinalis	orqa miya
trachea, ae f	traxeya
vagina, ae f	qin
vesica, ae f	pufak

II turlanishdagi otlar

atrium, i n	yurak bo'lmasi, yurak oldi
bronchus, i m	bronx
lobus, i m	bo'lak
retinaculum, i n	ushlab turuvchi
thalamus, i m	talamus, ko'rish do'mbog'i
thymus, i m	ayrisimon bez, timus

IV turlanishdagi otlar

abscessus, us m	abssess, yiringli yara
-----------------	------------------------

I guruh sifatlari

arteriosus, a, um	arteriyaga oid
cardiacus, a, um	yurakka oid
oblongatus, a, um	uzunroq
pyloricus, a, um	meddaning chiqish qismiga oid
sanguineus, a, um	qon tashuvchi

II guruh sifatlari

cerebellaris, e	miyachaga oid
generalis, e	umumiy
medullaris, e	miyaga oid
paranasalis, e	burun oldiga oid
semilunaris, e	yarim oy, o'roqsimon



Nazorat savollari

1. I turlanishdagi otlar Gen. PI. da qanday qo'shimchani oladi?
2. II turlanishdagi otlar Gen. PI. da qanday qo'shimchani oladi?
3. III turlanishdagi otlar Gen. PL da qanday qo'shimchani oladi?
4. IV turlanishdagiotlar Gen. PI. da qanday qo'shimchani oladi?
5. V turlanish otlar Gen. PI. da qanday qo'shimchani oladi?



SON SO'Z TURKUMLARI.

Darsning maqsadi: 1 dan 15 gacha sanoq va tartib sonlarni; lotin va yunon kelib chiqishga ega son prefikslarini bilib olish. Terminlarda son prefikslarini ajrata olish.

Darsning mazmuni: Lotin tilida sonlar (*numeralia*) grammatic jihatdan to'rtga bo'lib o'tganiladi: sanoq sonlar (**cardinalia**), tartib sonlar (**ordinalia**), taqsim sonlar (**distributiva**) va ravish sonlar (**adverbia**).

Sanoq sonlar (*cardinalia*).

Sanoq sonlar xuddi arab tilidagi raqam va yozuv orqali ifodalanadi. Rim raqamlari arab raqamlariga nisbatan soddaroq bo'lib, ular jami yettita belgidan iboratdir. Bular quyidagilar: I bir, V besh, X o'n, L ellik, C yuz, D besh yuz, M ming. Ushbu belgilarning o'rinni almashuvi orqali xohlagan sonni ifodalash mumkin. Buning uchun qaysi belgi qaysi belgidan oldin yoki keyin kelishini esda saqlash lozim. Bu quyidagicha:

Sanoq va tartib sonlarning jadvali

Rim raqamlari	Arab raqamlari	Sanoq sonlar (Cardinalia)	Tartib sonlar (Ordinalia)
I	1	unus, a, um	primus, a, um
II	2	duo, ae, o	secundus,a,um,alter
III	3	tres, tria	tertius,a,um
IV	4	quattor	quartus,a,um
V	5	quinque	quintus,a,um
VI	6	sex	sextus,a,um
VII	7	septem	septimus,a,um
VIII	8	octo	octavus,a,um
IX	9	novem	nonus,a,um
X	10	decem	decimus,a,um
XI	11	undecim	undecimus,a,um
XII	12	duodecim	duodecimus,a,um
XIII	13	tredecim	tertius decimus
XIV	14	quatuordecim	quartus decimus
XV	15	quindecim	quintus decimus
XVI	16	sedecim	sextus decimus
XVII	17	septendecim	septimus decimus
XVIII	18	duodeviginti	duodevicesimus
XIX	19	undeviginti	undevicesimus

XX	20	viginti	vicesimus
XXI	21	viginti unus unus et viginti	vicesimus unus et vicesimus
XXII	22	viginti duo duo et viginti	vicesimus alter alter et vicesimus
XXVIII	28	duodetriginta	duodetricasimus
XXIX	29	undetriginta	undetricesimus
XXX	30	triginta	tricesimus
XL	40	quadraginta	quadragesimus
L	50	quinquaginta	quinquagesimus
LX	60	sexaginta	sexagesimus
LXX	70	septuaginta	septugesimus
LXXX	80	octoginta	octogesimus
XC	90	nonaginta	nonagesimus
C	100	centum	centesimus
CI	101	centum et unus	cantesimus et primus
CC	200	ducenti, ae, a	ducentesimus
CCC	300	trecenti, ae,a	trecenresimus
CD	400	quadringtoni, ae, a	quadrigentesimus
D	500	quingenti, ae, a	quingentesimus
DC	600	sescenti, ae,a	sescentesimus
DCC	700	septingenti, ae,a	septingentesimus
DCCC	800	octingenti, ae,a	octingentesimus
CM	900	nongenti, ae, a	nongentesimus
M	1000	mille	millesimus

Sanoq sonlarning yasalishi.

1) Sanoq sonlardan 1 dan 10 gacha tub sonlar hisoblanib, ularni yodda saqlamoq kerak. Ular quyidagilar:

- | | |
|----------------|-----------|
| 1- unus, a, um | 6- sex |
| 2- duo, ae, o | 7- septem |
| 3- tres, tria | 8- octo |
| 4- quattuor | 9- novem |
| 5- quinque | 10- decem |

2) 11 dan 17 gacha sonlarni yasash uchun avval birlik keyin o'nlik qo'shish yo'li bilan yasaladi. Masalan:

- | | |
|-------------------|-----------------|
| 11- undecim | 15- quindecim |
| 12- duodecim | 16- sexdecim |
| 13- tredecim | 17- septendecim |
| 14- quattuordecim | |

3) 18, 19, 28, 29, 38, 39 kabi sonlarni yasash uchun birlik va o'nlik sonlar o'rtafiga de predlogi yoziladi va bir kam yoki ikki kam deb sanaladi. Masalan:

18- duodeviginti	38- duodequadraginta
19- undeviginti	39- undequadraginta
28- duodetriginta	48- duodequinquaginta
29- undetriginta	49- undiquinquaginta

4) O'nlik sonlarni yasash uchun birlik sonlaridan keyin **-ginta** qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan:

20- viginti	60- sexaginta
30- treginta	70- septuaginta
40- quadruginta	80- octoginta
50- quinquaginta	90- nonaginta

5) Yuzliklarni yasash uchun birlik sonlaridan keyinikki yuz, uch yuz va olti yuz sonlarini ifodalashda **-centi**, qolgan yuzliklarni ifodalashda **-genti** qo'shimchalari qo'shiladi.

100- centum	600- sescenti, ae, a
200- ducenti, ae, a	700- septengenti, ae, a
300- trecenti, ae, a	800- octingenti, ae, a

6) 21 dan 27 gacha, 31 dan 37 gacha va hakazo sonlarni yasashda ikki xil usul qo'llaniladi:

- a) avval o'nlik keyin birlik **viginti tres, viginti sex**; yoki
- b) avval birlik keyin o'nlik **tres et viginti, sex et viginti**.

Sanoq sonlarning turlanishi

Lotin tilida sanoq sonlardan **unis**, **a**, **um**, **duo**, **ae**, **tres**, **ia**, **ducenti**, **-ae**, **-a**, va qolgan yuzliklar, hamda **milia** kelishiklarda turlanadi. Boshqa sonlar esa turlanmaydi.

Unus, **a**, **um** soni faqat birlik sonda huddi ko'rsatish olmoshlaridek turlanadi.

m. f. n.

Nom. Unus una unum

Gen. unius unius unius

Ikki **duo**, **ae** soni faqat ko'plikda, huddi I va II turlanish otlaridek qo'shimchalarni olib tashlanadi.

m. f. n.

Nom. Duo duae duo

Gen. duorum duarum duorum

Uch **tres**, **ia** soni faqat ko'plikda uchinchi turlanishi otlaridagi unilari variyantidek turlanadi.

m.f.n.

Nom. tres tria

Gen. trium trium

Ikki yuzdan to'qqiz yuzgacha bo'lgan sonlar ham faqat ko'plik sonda, I va II turlanish otlaridek turlanadi.

m. f. n.

Nom. Ducenti ducentae ducenta

Gen. ducentorum ducentarum ducentorum

Tartib sonlar (*numeralia ordinalia*)

Lotin tilida ham tartib sonlar huddi nemis va rus tillaridagi kabi rod, son hamda kelishik qo'shimchalariga ega bo'lib, I-II turlanish sifatlaridek turlanadi. Tartib sonlarning yasalishi quyidagi qoidalarga binoan yuz beradi:

1) Birinchi va ikkinchi tartib sonlari huddi rus, ingliz, nemis va fransuz tillaridagi kabi boshqa o'zakdan hosil bo'ladi:

O'zbekcha	lotincha	ruscha	inglizeha	nemischa	fransuzcha
bir	unus, a, um	один, а, о	one	eins	un, une
birinchi	primus, a, um	первый, ая, ое	first	erste	premier, e
ikki	duo, ae	два, две	two	zwei	deux
ikkinchi	secundus, a, um	второй, ая, ое	scond		second

2) Uchdan o'n yettigacha tartib sonlarini yasash uchun, sanoq sonlarning asosiga **-us, -a, -um** rod qo'shimchalarini qo'shiladi.

O'zbekcha	rim raqami	sanoq son	tartib son
Uchinchi	III	tres	tertius, a, um
To'rtinchi	IV	quattuor	quartus, a, um
Beshinchi	V	quinque	quintus, a, um
Oltinchi	VI	sex	sextus, a, um

3) O'n sakkizdan yuqori sonlarda esa, sanoq sonlarning asosiga **-essim** va **-us, -a, -um** rod qo'shimchalari qo'shiladi.

O'zbekcha	rim raqamlari	sanoq son	tartib son
O'n sakkiz inchi	XVIII	duodeviginti	duodevicesimus, a, um
O'n to'qqizinchi	IXX	undeviginti	undevicesimus, a, um
Yigirmanchi	XX	viginti	vicesimus, a, um

Sanoq sonlar orasida faqat unus, a, um; duo, duae, duo; tres, tria rod qo'shimchasiga ega. Tartib sonlar I guruh sifatlari kabi moslashadi va turlanadi.

Taqsim va ravish sonlar (*distributive et adverbia*)

Taqsim (distributiva)

1. *singüli, ae, a* - bittadan

2. *bino, ae, a* - ikkitadan

3. *terno, ae, a* - uchtadan

10 deno, ae, a - o'ntadan

100 centzni, ae, a - yuztadan

1000 singüla milla (milleni) – mingtadan *milies* – 1000 marotaba

Taqsim sonlar suffiks – *n-* va jinslarning ko'plik shaklidagi –*I, ae, a* yordamida tuziladi. Ravish sonlar esa suffiks –*ies* yordamida tuziladi. Nechtdan? So'rog'iga javob bo'ladigan taqsim sonlar ot bilan kelishilgan holda ko'plik shaklida sifat kabi I va II turlanishlar bo'yisha turlanadi.

Ravish (adverbia)

semel – bir marotaba

bis – ikki marotaba

ter – uch marotaba

decies – 10 marotaba

centies – 100 marotaba

1000 singüla milla (milleni) – mingtadan *milies* – 1000 marotaba

Taqsim sonlar suffiks – *n-* va jinslarning ko'plik shaklidagi –*I, ae, a* yordamida tuziladi. Ravish sonlar esa suffiks –*ies* yordamida tuziladi. Nechtdan?

So'rog'iga javob bo'ladigan taqsim sonlar ot bilan kelishilgan holda ko'plik shaklida sifat kabi I va II turlanishlar bo'yisha turlanadi.

Old qo'shimcha sifatida qo'llaniluvchi lotin va yunon sonlari.

Anatomik terminshunoslikda lotin kelib chiqishiga ega son prefikslari, farmasevtik va klinik terminshunoslikda esa yunon kelib chiqishiga ega son prefikslari ustunlik qiladi.

O'zbekcha	Lotin prefikslari	Misollar	Yunon prefikslari	Misollar
yarim	semi-	semilunar, e yarimoysimon	hemi-	hemispherium, i n yarim palla
bir	uni-	unicornis, e bir shoxli	mono-	mononucleosis, is f mononukleoz
ikki	bi-	biceps, ipitis ikki boshli	di-	dicheilia, ae f qo'sh lab
uch	tri-	trigeminus, a, um uch shoxli	tri-	trioxazinum, i n triokszin
to'rt	quadri-	quadriceps, ipitis to'rt boshli	tetra-	tetraboras, atis m tetraborat
besh		.	pent-	pentaminum, i n pentamin
olti			hex-	hexenalum, i n geksenal
yetti			hept-	heptylresorcinum, i m geptilrezorsin
nakkiz			octo-	octoestrolum, i n oktestrol

NII! (Nota Bene!) Rim raqamlari — qadimgi rimliklar qo'llagan raqamlar.

Rim raqamlari 7 ta: I, V, X, L, C, D, M. Rim raqamlar aslida lotin harflari bo'lib, ularning son qiymatlari quyidagicha:

Simvol	I	V	X	L	C	D	M
Qiymat	1	5	10	50	100	500	1000

Har qanday natural sonni Rim raqamlari yordamida yozish mumkin, bunda quyidagi qoidaga rioya qilinadi:

1. katta raqam kichigidan oldin yozilsa, raqamlar qo'shiladi.

Masalan, LI = 50 + 1 = 51; CI = 100 + 1 = 101; XI = 10 + 1 = 11.

2. kichik raqam kattasidan oldin yozilsa, katta raqamdan kichigi I lik, X lik va C lik sonlar ayrıldi.

Masalan XL = 50 — 10 = 40; XC = 100 — 10 = 90; IX = 10 — 1 = 9.

3. Sonlarni yozishda ayni bir Rim raqamlari ketma-ket 3 martadan ko'p qatnashmaydi.

Masalan, XXX = 30, ammo 40 o'rniغا XXXX emas, balki XL = 50 — 10 = 40 yoziladi. Rim raqamlari yordamida sonlar ustida arifmetik amallar bajarish noqlay. Rim raqamlari endilikda asrlar, asar boblari, oyлarning raqamlari, tartib sonlarini belgilashda qo'llaniladi.

Masalan, XXI asr, VII bob, sentyabr — IX oy, III chorak.

Qadimgi rim xalqlari hozirgi kunda ham "*rim raqamlari*" nomi bilan saqlanib kelayotgan raqamlash tizimdan foydalanganlar. Biz va butun dunyo, bu tizimdan hozirda ham bayram kunlarini belgilashda, konferensiyalarning tartib raqamini belgilashda, kitobning boblarini (masalan, so'z boshi betlarini), tarixdagi asrlarni, she'rlarning bandlarini va hokazolarni raqamlashda juda keng foydalamaniz.

Tarixi

Rim raqamlarining kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. V raqami dastlab qo'l panjasini tasvirlash belgisi sifatida, X esa ikkita beshlikdan tuzilgan bo'lishi ehtimol. Huddi shunga o'xshash 1000 ni tasvirlovchi belgi 500 ni tasvirlovchi ikki belgidan (yoki aksincha) tuzilgan bo'lishi mumkin.

Rim raqamlashida beshlik sanoq tizimining izlari sezilib turibdi. Rimliklar tilida (lotin tilida) esa beshlik sanoq, tizimining asari yo'q. Demak, bu tizimni rimliklar boshqa xalqlardan olgan bo'lishi kerak (etrusk xalqidan olingan bo'lishi juda ehtimol).

5000 gacha bo'lgan hamma butun sonlar yuqorida aytilgan raqamlarni takrorlab yoziladi. Bunda katta raqam kichik raqamdan oldin (chapda) tursa, bunqumlar qo'shiladi, agar kichik raqam katta raqamdan oldin (chapda) tursa (bu holda uni takror yozish mumkin emas) kichigi kattasidan ayrıldi.

Masalan, VI = 6, ya'ni 5+1; IV = 4, ya'ni 5-1; XL = 40, ya'ni 50-10; LX = 60, ya'ni 50+10. Bir xil raqam ketma-ket uch martadan ortiq yozilmaydi: LXX = 70; LXXX = 80; 90 soni XC shaklida yoziladi (LXXXX shaklda emas).

Dastlabki 12 ta son rim raqamlari bilan quyidagicha yoziladi:

I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XII

Misollar: XXVIII = 28, XXXIX = 39;

CCCXCVII = 397; MDCCCXVIII = 1818.

Bu xil yozishda katta sonlar bilan arifmetik amallar bajarish juda qiyin. Shunga qaramay Rim raqamlashi Italiyada XIII asrgacha, g'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida esa XVI asrgacha ishlatib kelting.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

84-mashq. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Musculus biceps femoris, musculus quadratus femoris, musculus biceps brachii, musculus triceps brachii, nervus trigeminus

85-mashq. So'zlarni lotin tiliga moslashtirib tarjima qiling.

1. Birinchi va beshinchi barmoq.
2. Ikkinci va uchinchi falanga.
3. Beshinchi va oltinchi qism.
4. Uchinchi bo'g'im.
5. Yettinchi bo'yin umurtqasi.

86-mashq. Tarjima qiling.

Trecenti sexaginta quinque dies;

Trecentorum octaginta octo dierum;

Anno millesimo nongentesimo septuagesimo sexto.

Cor in quattuor partes dividitur

In serie vertebrarum cervicalium prima vertebra atlas, secunda axis, septima promines nominator.



Uyga vazifa

87-mashq. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Duodenum musculus quadratus plantae, musculus triceps surae, ligamentum quadratum, lamina quadrigemina, lobus quadratus hepatis.

88-mashq. So'zlarni lotin tiliga moslashtirib tarjima qiling.

1. Beshinchı bo'yin umurtqası.
2. O'n ikinchi ko'krak umurtqası.
3. Uchinchi kichik boldır arteriyası.
4. Birinchi va ikinchi katta jag' tish.

89-mashq. Tarjima qiling.

Trecentae sexaginta quinque noctes.

Annus millesimus nongentesimus septuagesimus sextus.

Duo superiora et duo inferiora.

Duos ventriculos et duo atria.

Os zygomaticus tria foramina et duos processus frontalem.




Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Ubi concordia, ibi victoria* - Totuvlik bor joyda g'alaba bor.
2. *Una hirunda non facit ver* - Bitta qaldır'och bahor olib kelmaydi.
3. *Usus optimus magister est* - Tajriba eng yaxshi ustozdir.



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tilida sonlar nechtaga bo'linadi?
2. Sanoq sonlarda o'ngacha sanay olasizmi?
3. Tartib sonlarda o'ngacha sanay olasizmi?
4. Lotinchada qanday old qo'shimchali sonlar bor?
5. Yunonchada qanday old qo'shimchali sonlar bor?



20-rasm. Limfa (limpha) aylanish tizimi.

QON TOMIRLAR TIZIMI HAQIDAGI ILM - ANGIOLOGIA

Qon tomirlar tizimining umumiy anatomiysi

Tomirlar tizimi organizmda muhim vazifani bajaradi. Ularning ichida suyuqlik ***hema***, ***limpha*** (qon, limfa) oqadi. Bu suyuqlik hujayra, to'qimalar hayoti uchun kerak bo'lgan ozuqa moddalar va kislорodni (arteriyalar) yetkazib beradi, ulardan organizm uchun keraksiz moddalami ekskretor a'zolariga (venalar) olib borib tashqariga chiqaradi. Tomirlar ichidagi suyuqlik tarkibiga qarab ikki qismga: qon tomirlar va limfa tomirlarga bo'linadi. Qon tomirlar teri va shilliq pardalar epiteiliyida, sochlarda, ko'z olmasining shox pardasida va bo'g'imlar tog'ayida bo'lmaydi. Qon tomirlar tizimida qon oqadi. Bu tizimga arteriyalar, venalar, mikrosirkulator tizim va yurak kiradi. Bu tizim organizmda modda almashinuvini ta'minlaydi. Qon tomirlar tiziminining markaziy a'zosi yurak - ***cor***, ***kardia*** hisoblanadi. U ritmik ravishda qonni harakatga keltiradi. Yurakdan boshlanib, organizmgaga tarqaladigan tomirlar arteriyalar deb ataladi. Bu nomni birinchi bo'lib emmizdan oldingi uchinchi asrdayashagan Gippokrat bergen bo'lib ***aer*** — havo, ***tereo*** — saqlayman degan ma'noni bildiradi. Hujayra va to'qimalardan qonni yumkka olib keluvchi tomirlar venalar deyiladi. Arteriya va venalar o'rta sidagi mikrotsirkulator qismi: arteriola, prekapillar, kapillar, postkapillar va venulalardan iborat. Odam tanasida ikkita (katta va kichik) qon aylanish doirasi tafovut qilinadi. Kichik (o'pka) qon aylanish doirasi o'pkada qonni kislорod bilan boyitish uchun xizmat qiladi. U o'ng qorinchadan o'pka poyasi bo'lib boshlanib, o'pkaga yetib kelib o'ng va chap o'pka arteriyasiga bo'linadi va alveolalami o'rab karbonat angidridni alveolaga berib, kislорodni qabul qiladi. Kislорodga to'yingan qon 4-7 ta o'pka venalari orqali chap bo'lmachaga quyiladi. Katta qon aylanish doirasi chap qorinchadan aorta bo'lib boshlanadi. Aortadan chiqqan arteriyalar a'zolar va to'qimalarga tarqaladi. To'qima va a'zolardan chiqqan venalar o'zaro qo'shilib ittila yirik: yuqori va pastki kovak venalami hosil qilib o'ng bo'lmachaga quyiladi. Bundan tashqari, uchinchi (yurak) qon aylanish doirasi yurakning o'zini qon bilan ta'minlaydi. U aortadan chiqadigan yurakning toj arteriyalari bo'lib boshlanib, yurak venalari bo'lib tugaydi. Yurak venalari vena sinusini hosil qilib o'ng bo'lmachaga ochiladi. Arteriya va venalaming o'rta sidagi mikrotsirkulator tizim joylashgan bo'lib, qon bilan to'qima o'rta sidagi aloqani ta'minlaydi. Bu tizim arterioladan boshlanadi. Uning tarkibiga prekapillar, kapillar va postkapillar borib venullaga o'tib ketadi.

OLMOSH VA RAVISH SO'Z TURKUMLARI.

Darsning maqsadi: Veterinariya terminologiyasida olmosh va ravishning qo'llanilishi va so'z yasashda ishlatalishini o'rganish. Ot, sifat va son o'rniда qo'llaniladigan olmoshlarni o'rganish.

Darsning mazmuni: lotin tilida ham o'zbek tilidagidek olmosh (*pronomina*)lar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. **Pronomina personalia** – Kishilik olmoshlari
2. **Pronomina reflexivum** – O'zlik olmoshlari
3. **Pronomina possesiva** – Egalik olmoshlari
4. **Pronomina demonstrativa** – Ko'rsatish olmoshlari
5. **Pronomina determinative** – Aniqlash olmoshlari
6. **Pronomina relativa** – Nisbiy olmoshlari
7. **Pronomina interrogativa** – So'roq olmoshlari
8. **Pronomina indefinite** – Guman olmoshlari
9. **Pronomina negativa** – Inkor olmoshlari.

Pronomina personalia (Kishilik olmoshlari)

Kishilik olmoshlari otlar kabi kelishiklarda turlanib, ularning I va II shaxs birlik va ko'plik formalari mavjud.

Kishilik olmoshlarining kelishiklarda turlanish jadvali.

Numerus	Casus	Persona prima	Persona secunda
Singularis	Nom.	<i>ego</i> - men	<i>tu</i> - sen
	Gen.	<i>mei</i> - mening	<i>tui</i> - sening
	Dat.	<i>mihi</i> - menga	<i>tibi</i> - senga
	Acc.	<i>me</i> - meni	<i>te</i> - seni
	Abl.	<i>me</i> - mendan	<i>te</i> - sendan
Pluralis	Nom.	<i>nos</i> - biz	<i>vos</i> - sizlar
	Gen.	<i>nostri</i> - bizning	<i>vestri</i> - sizlarning
	Dat.	<i>nobis</i> - bizga	<i>vobis</i> - sizlarga
	Acc.	<i>nos</i> - bizni	<i>vos</i> - sizlarni
	Abl.	<i>nobis</i> - bizdan	<i>vobis</i> - sizdan

Pronomina reflexivum (O'zlik olmoshlari)

Lotin tilida o'zlik olmashtalarining faqat III shaxs formasi mavjud bo'lib, ular rus tilidagi hamma shaxslar bilan moslashadi. Lotin tilida I va II shaxs kishilik olmoshlari yordamida qo'llaniladi. Masalan: *in aqua me video* – men o'zimni (aksimni) suvda ko'rayapman; *te vides* – sen o'zingni ko'rayapsan; *se*

videt – u o‘zini ko‘rayapdi; *nos videmus* – biz o‘zimizni ko‘rayapmiz; *vos videtis* – sizlar o‘zingizni ko‘rayapsizlar; *se vident* – ular o‘zlarini ko‘rayapdilar.

O‘zlik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Singularis et pluralis	
Nominativus	-
Genetivus	sui – o‘zining
Dativus	sibi – o‘ziga
Accuzativus	se – o‘zini
Ablativus	se – o‘zidan

O‘zlik olmoshlari xuddi kishilik olmoshlaridek “cum” predlogi bilan hum qo‘llanadi: secum – o‘zim bilan.

Pronomina possesova (Egalik olmashlari)

Egalik olmoshlari morfologik jihatidan birinchi va ikkinchi turlanishdagi sifatlarga o‘xshaydi. Masalan,

<i>meus , mea , meum</i>	- мой, моя, моё - mening
<i>tuus , tua , tuum</i>	- твой, твоя, твоё - sening
<i>suus , sua , suum</i>	- свой, своя, своё - o‘zimning
<i>noster , nostra , nostrum</i>	- наш, наша, наше - bizning
<i>vester , vestra , vestrum</i>	- ваш, ваша, ваше - sizning.

Hozirgi zamon hind-yevropa tillarida egalik olmoshlari ko‘proq ega viziifasida kelmoqda.

Masalan:

amo (1 - shaxs) amicum meum - men o‘zimning do‘stimni sevaman.

amas (2 - shaxs) amicum tuum - sen o‘zinginning do‘stingni sevasan

amat (3 - shaxs) amicum suum - u o‘zining do‘stini sevadi.

Pronomina demonstratova (Ko‘rsatish olmoshlari)

Lotin tilida ko‘rsatish olmoshlari predmet va shaxsni so‘zlovchiga nisbatan yaqin va uzoqligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Ko‘rsatish olmoshlari kishilik olmoshlari o‘rnida ham qo‘llaniladi.

Hic, haec, hoc (эта, этот, это) – *bu*. Bu ko‘rsatish olmoshlari predmet va shaxsni so‘zlovchiga nisbatan yaqinligini ifodalaydi;

Iste, istu, istud (этот, эта, это; тот, та, то) – *bu* ko‘rsatish olmoshlari predmet va shaxsning so‘zlovchiga nisbatan 2-shaxsga aloqadorligini ko‘rsutadi.

Ille, illu, illud (тот, та, то) - bu ko'rsatish olmoshlari predmed va shaxsni so'zlovchiga nisbatan uzoqligini ifodalaydi.

Is, eu, id (этот, эта, это; тот, та, то) - bu ko'rsatish olmoshlari predmet va shaxsni so'zlovchiga nisbatan qaysinisi qarashli ekaligini ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Masalan: Hunc librum legi – Men bu kitobni o'qidim. (Qaysiki meni qo'limdagi yoki yonimdagi).

Iustum librum legi.- Men bu kitobni o'qidim. (Qaysiki sening qo'lingdagi yoki qo'shni stoldagi).

Illum librum legi - Men bu kitobni o'qidim. (Qaysiki hozir menda yo'q kitobni).

Eum librum legi - Men bu kitobni o'qidim. (Qaysiki men o'ylagan kitobni).

Is, eu, id ko'rsatish olmoshlari 3-shaxs birlikda kishilik olmoshlari o'rnila qo'llaniladi.

Pronomona determinatova (Aniqlash olmoshi)

Aniqlash olmashiga quyidagilar kiradi: *ipse, ipsu, ipsum* - o'zi (uchchala rodda); rus tilida esa (сам, сама, само) ma'nolarini ifodalaydi. Bu aniqlik olmoshlari *ille, illa, illud* ko'rsatish olmashlari kabi kelishiklarda turlanadi, lekin nom. Acc. sing.da neutrumda - *m-* qo'shimchasi bilan turlanadi. *Idem, iudem, idem* – uchchala rodda "*o'shani o'zi*" ma'nosini ifodalaydi. Rus tilida (тот же, он же) – ma'nolarini ifodalaydi. Bular ham *is, eu, id* korsatish olmoshlari kabi turlanadi, va *-dem* - yuklamasidan tarkib topadi va acc.sing. va gen.plur.da - *m – n – ga* aylanadi.

Pronomina relativa (Nisbiy olmoshlari)

Lotin tilida *quo, quae, quod* nisbiy olmoshlari qo'llanadi. Bu nisbiy olmoshlari sifatlar kabi "qaysiki"; rus tilida (который, –ая, –ое) ma'nolarini va otlar kabi kim?, nima? ma'nolarini ifodalaydi. *Quo, quae, quod* – nisbiy olmoshlari uchchala rodda kelishiklarda quiydagicha turlanadi:

Casus	Singularis			Pluralis		
	M	F	N	M	F	N
Nom.	quo	quae	quod	quo	quae	quae
Gen.	cujus	cujus	cujus	quorum	quarum	quorum
Dat.	cuo	cuo	cuo	qui'büs	qui'büs	qui'büs
Acc.	quem	quam	quod	quos	quas	quae
Abl.	quo	que	quo	qui'büs	qui'büs	qui'büs


Pronomina interrogatova (So'roq olmoshlari)

Quo?, quae?, quod? olmoshlari sifatlarga nisbatan qanday? qanaqa? qaysi? so'roq olmoshlari vazifasida ishlataladi. Turlanishda ular nisbiy olmoshlar *quo*, *quae*, *quod* kabi turlanadi. Otlarga nisbatan qo'llanadigan so'roq olmoshlari quyidagilar: *quis?*, *qui?* - kim?, *nima?*, *quis?* - so'roq olmoshi xuddi -*qui* so'roq olmoshidek; *quid* - so'roq olmoshi esa *quod*-so'roq olmoshidek turlanadi va ularning faqat birlik formasi mavjud.

Agar otlar bittadan ortiq bo'lsa, uter, utra, utrum (который -ая- ое (из двух) кто?, что?- (из двух) – qaysiki ikkitadan bittasini ifodalsh uchun ishlataladi. *Qui?* nisbiy so'roq olmoshi Genetivusda turlanganda *cujus?*, *quorum?* (kimning?, kmlarning?) nisbiy-so'roq olmoshlarini ham ifodalaydi:

Cujus liber est? - Kimning kitobi?

Quorum libri sunt? - Kmlarning kitoblari?



21-rasm. Bosh miyaning saggital kesimi:

1 - o'ng yarim shar; 2 - qadoqsimon tana jiyagi; 3 - kamar jiyagi; 4 - targ'il tana tirsagi; 5 - qadoqsimon tana stvoli; 6 - iyaning yon qorinchasi; 7 - yon orinchaning tomirli chigali; 8 - uchinchi qorinchaning tomirli chigali; 9 - qorinchalararo shaffos to'ziq; 10 - qadoqsimon tana aylana valigi; 11 - epifiz; 12 - kulrang modda; 13 - oq modda; 14 - miyachaning birlamchi yorig'i; 15 - miyacha po'stlog'i; 16 - oq modda (savr daraxti shoxi); 17 - miyacha; 18 - chuvalchangsimon o'simta; 19 - uchki qismi; 20 - orqa miya; 21 - markaziy kanal; 22 - to'rtinchchi qorinchaning tomirli chigali; 23 - uzunchoq miya; 24 - miyaning orqa elkani; 25 - to'rtinchchi qorincha; 26 - rupetviyasimon tana; 27 - miyaning oldingi elkani; 28 - miya ko'prigi; 29 - katta miya oyoqchasi; 30 - o'ria miyaning suv yo'li; 31 - yopqich; 32 - to'rt tepalik plastinkasi; 33 - miyaning orqa qo'shilish joyi; 34 - uchinchi qorincha; 35 - ko'rish do'ngligining oralig moddasi; 36 - so'rg'ichsimon tana; 37 - yoriqcha ustuni; 38 - gipofiz; 39 - kulrang do'nglik; 40 - ko'rish nervi; 41 - oxirgi plastinka; 42 - miyaning oldingi qo'shilish joyi; 43 - oriqcha; 44 - hidlov piyozchasi.

Pronomona indefinota (Gumon olmoshlari)

Gumon olmoshlari *quiſ*, *quo*, olmoshlariga quiydagи noaniqlik qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi: *alī*, *piam*, *quam*, *dam*, *que*, *vis*, *libet* va *cunqu*. Gumon olmoshlari gapda ot yoki sifat o'mida ham kelishi mumkin.

Ot gumon olmoshlari:

Quiſ, *qua*, (*quae*), *quid* *aliquiſ*, *aliquu*, *aliquid* - kimdir – (кто нибудь)

Quispiam, *quaepiam*, *quidpiam*

Quisquam, *quidquam*, (*quicquam*)

Quidam, *quaedam*, *quiddam* – kimdir – (кто то)

Quisque, *quiaequ*, *quidque* - har bir – (каждый)

Sifat gumon olmoshlari

Quo, *quu* (*quae*), *quod*; *aliquo*, *aliquu*, *aliquod* – qandaydir - (какой нибудь)

Quispiam, *quaepiam*, *quodpiam* – qandaydir – (какой то)

Quisque, *quiaequ*, *quodque* – har bir – (кажды)

Quicunque, *quaecunque*, *quodcunque* – qanday bo'lsa ham –(какой бы ни).

Tibbiyatda quyidagi olmoshlar qo'llaniladi:

- | | |
|-------------------|------------------------|
| 1. Pro me | — o'zim uchun |
| 2. Per se | — toza holda |
| 3. Da tales doses | — shunday miqdorda ber |

Adverbium (Ravish so'z turkumi).

Lotin tilida ravish ikki turga bo'linadi:

1. Mustaqil ravishlar: fere- deyarli, ubi – qayerda, semper-har doim
2. Sifatdan tashkil topgan ravishlar

Ravishlar sifatlarning gen.sing.dagi qo'shimchasining o'zgarishi bilan hosil bo'ladi. Ikkinchи turlanishdagi sifatlarning gen.sing.dagi *-i*- qo'shimchasini *-e*- qo'shimchasiga almashinishi natijasida hosil qilinadi.

Nom.sing	Gen.sing.	Adverbium
Latus, e, um - keng,	lato	late,
rectus, a, um - to'g'ri,	recto	recte,
citus, a, um - tez,	cito,	cite
rarus, a, um - siyrak,	raro	rare
pulcher, a, um – chiroyli	pulchro	pulchre
minimus, a, um – eng katta	minimo	minime

fortissimus, a, um - eng mard

fortissimo

fortissime

Uchinchi turlanishdagi sifatlardan *gen.sing.dagi* –*is-* qo'shimchasini –*iter-suffiks* bilan, negizi –*nt-* bilan tugagan sifatlarga –*er-* suffiksini qo'shib ravish hosil qilinadi.

Nom.sing	Gen.sing.	Adverbium
acer – o'tkir	acris	acr̄ter
celer – tez	celerites	celer̄ter
fortis – mard	fortis	fort̄ter
felix – baxtli	felicis	felic̄ter
sapiens – dono	sapientis	sapienter

Ravish sifatida sifatlarning va otlarning *acc.* va *abl.sing.* (neutrum) shakllarining ba'zilari ishlatalidi. Masalan, *partim-* qisman; *multum* – ko'p; *primum* – avvalom bor, birinchidan; *facile* – oson; *casu* – behosdan; *multo* – ko'pgina; *merito* – munosib.

Ravishlarning qiyosiy darajasi sifatida, sifatlardan tashkil topgan –*ius-* bilan tugallanadigan sifatlarning neutrum rodiga tegishli *acc.sing.* shakli qo'llaniladi. Masalan: *Altius* – balandroq; *latius* – kengroq; *celerites* - tezroq; *felicius* - baxtliroq. Ravishlarning ortirma darajasi sifatlarning ortirma darajasidan “e” suffiksini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Masalan: *fortissime* (fortissimus- dan); *celerrime*, *minime*.

Tibbiyotda ko'p qo'llaniladigan ravishlar:

<i>una</i> — teng, baravar
<i>statim</i> — darhol quantum
<i>bis</i> — ikki marta
<i>optime</i> — juda yaxshi
<i>minime</i> — juda kichik
<i>aceptice</i> — zararsizlantirilgan holda
<i>exactissime</i> — juda ani
<i>modice</i> — o'rta, me'yorida
<i>tigide</i> — sovuq, sovuq usul bilan
<i>remitter</i> — yupqa, mayda
<i>remilente</i> — yanada sekinroq
<i>missime</i> — juda ham tezlik bilan,
<i>longe</i> — yuqori darajada

<i>cito</i> — tez, tezlik bilan
<i>satis</i> — keragicha
<i>bene</i> — yaxshi
<i>maxime</i> — juda katta
<i>caute</i> — ehtiyyotlik bilan
<i>exakte</i> — aniq
<i>.grosse</i> — yo'g'on, katta
<i>calide</i> — issiq, issiqlik holatida
<i>lente</i> — sekin (harakat asosida)
<i>tenuissime</i> — juda yupqa, mayda
<i>simpliciter</i> — oddiy
<i>ultralente</i> — juda ham sekin



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

90-mashq. So‘z birikmalarini turlang.
nostra magistra, amocüs meus, suus liber

91-mashq. Quyida olmoshlar ishtirok etgan gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Amocüs meus mecum legit et scribit.
2. Amoci libros a me accipiunt.
3. Tibi ego doo, an non?
4. Pecuniam tibi debeo.
5. Epistulam a te accipio.
6. Fabulam nobis narre!
7. Mecum ambula!
8. Sani sumus, ut vides.

92-mashq. Quyida olmoshlar ishtirok etgan gaplarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Men senga kitob jo‘natyapman.
2. Men bilan birga o‘qi.
3. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga xat yozyapti.
4. Mening do‘stim yangi hikoya o‘qiyapti.
5. Bu uning o‘zining kitobi.

93-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Da pro me, da pro auctore, pro usu proprio, recipe iodum per se ad usum internum , medicum me curat.

94-mashq. Quyidagi sifatlardan ravishlar hosil qiling.

altus , a, um – baland; brevis, e – qisqa; levis, e-yengil; prudens - har xil fikrli

95-mashq. Quyidagi ravishlarni lotincha muqobiliga qarab moslashtiring.

Grosse	— juda ham sekin
modice	— sovuq
longe	— yanada sekinroq
calide	— yo‘g‘on
frigide	— me‘yorida
lente	— favqulodda holat
semilente	— issiq
ultra lente	— sekin



Uyga vazifa

96-mashq. Quyida olmoshlar ishtirok etgan gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ager ab illis colitur, qui agricolae vocantur. 2. Isti libri tibi a me
mittuntur. 3. Perdo etiam id, quod habeo. 4. Quod hodie non est, id cras erit.
5. Cum duo faciunt idem, non est idem. 6. Idem sum, qui eram.

97-mashq. Quyida olmoshlar ishtirok etgan gaplarni lotin tiliga tarjima
qiling.

1.Biz o'zimizning do'stlarimizga yordam beryapmiz. 2.O'qituvchi bizga
kitob beryapti. 3.Menda bu kitob yo'q. 4.Men otamga xat yozyapman.

98-mashq. Gaplarni tarjima qiling va olmosh turini aniqlang.


1.Hic dies alios mores postulat. 2.Haec mea culpa non est. 3.Ipse ego is sum
adulescens, quem tu quaeris. 4.Nihil difficulti amanti puto. 5.Natura nihil facit
frustra.

99-mashq. Quydagi ravishlarni o'z o'miga qo'ying.

ana	— zararsizlantirilgan holda
cito	— juda katta
citissime	— juda kichik
statim	— ehtiyyotlik bilan
quantum satis	— teng
bis	— tez
bene	— juda ham tez
optime	— darhol
maxime	— keragicha
mimime	— ikki marta
caute	— yaxshi
aseptice	— juda yaxshi

100-mashq. Quyida ravshlar qatnashgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima
qiling.

Da citissime, para infusum calide, extende tenuissime, spiritus Vini optime
rectificatus, sirupus simpliciter, misce liquorem exactissime, statim da
medicamentum, pulvis modice grossus, pulvis longe subtilissimus.



22-rasm. Orqa miya (*medula spinalis*) ni tuzilishi.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Vox audita latet littera scripta manet* - Aytilgan so‘z uchib ketar, yozilgani qolar.
2. *Optimum medicamentum quies est* - Orom eng yaxshi malhamadir.
3. *Alit lectio ingenium* - O‘qish aqlni mustahkamlaydi.



Nazorat uchun savollar:

1. Lotin tilida olmoshlarning qanday turlari mavjud?
2. Kishilik olmoshlari kelishiklarda qanday turlanadi?
3. O‘zlik olmoshlari asosan qaysi shaxslarda qo‘llaniladi?
4. Ravishlar nechaga bo‘linadi?
5. Mustaqil ravishlar qanday?
6. Yasama ravishlar qanday hosil qilinadi?

Sifat yasovchi suffikslar

1. So'z yasovchi negizda ko'rsatilgan belgiga boy bo'lish ma'nosini anglatuvchi sifatlar:

Suffikslar	So'z yasovchi ot negizi		Yasama so'z misollari	
-os- (us, a, um)	squam-a fibr-a infect-io	tanga tola yuqish	squam-osus fibr-osus infecti-osus	tangali tolali yuqumli

2. So'z yasovchi negizda ko'rsatilgan belgiga tegishlilik ma'nosini anglatuvchi sifatlar:

Suffikslar	So'z yasovchi ot negizi		Yasama so'z misollari	
-al- (is, e)	coron-a	toj	coron-alis	toj tomirga oid; tish tojiga oid
-ar- (is, e)	clavicul-a	o'mrov	clavicul-aris	o'mrovga oid
-ic- (im, u, um)	thorax, acis zygoma, atis gaster, tris	ko'krak qafasi yonoq me'da	thorac-icus zygomat-icus gastr-icus	ko'krakka oid yonoqqa oid me'daga oid
-e- (us, a, um)	perone pharynx, ngis oesophag-us	kichik boldir suyagi halqum qizilo'ngach	peron-eus pharyng-eus oesophag-eus	kichik boldirga oid halqumga oid qizilo'ngachga oid
-in- (us, u, um)	palat-um uter-us pelv-is	tanglay bachadon chanoq	palat-inus uter-inus pelv-inus	tanglayga oid bachadonga oid chanoqqa oid

Eslatma:

1) agar so'z yasovchi negizlar -lyoki -r bilan tugallansa, -al/-ar- suffikslari dilimilatsiyasi ro'y beradi: *vertebralis*, *clavicularis*.

2) -al/-ar- suffiksli bir qator sifatlar «o'xshashlik» nostandart umumiyligi tushiydi: *circularis* - doiraviy; *reticularis* - to'rsimon; *pyramidalis* - piramidasimon.

3. So‘z negizida ko‘rsatilgan belgiga o‘xhashlik ma’nosini anglatuvchi sifatlar:

Suffikslar	So‘z yasovchi ot negizi		Yasama so‘z misollari	
-ide- (us, a, um)	rhombos delta	romb delta	rhombo-ideus delto-ideus delto-ides	rombsimon deltasimon
-form- (is, e)	crux, crucis	xoch	cruci-formis	xochsimon

Bu turdagи ko‘pchilik sifatlar XVII asarda anatomlar tomonidan sun’iy yaratilgan. Ulardan ayrimlari, mas., *m. arytaenoideus* - cho‘michsimon mushak; *m. hyoideus* - asl. ipsilonsimon mushak (*ypsilon*, *v*), *m. mastoideus* - so‘rg‘icsimon mushak; *m. pterygoideus* - qanotsimon mushak, umuman so‘z yasovchi negizda berilgan jismlarga o‘xhash emas. Bunday «ziddiyat» bilan *vena mastoidea* - so‘rg‘ichsimon vena terminsi ham taqdirlangan, negaki u so‘rg‘ichga o‘xshamaydi; uning nomi *processus mastoideus* - so‘rg‘ichsimon o‘simtaga tegishliligi bilan tushuntiriladi. *venae sigmoideae* terminsiga ham monand sabab topamiz: ushu termin bilan ifodalangan venalar sigma yunon harfiga umuman o‘xshamaydi, amma ular *colon sigmoideum* - sigmasimon chambar ichakka tegishli.

4. So‘z yasovchi negizda ko‘rsatilgan belgini tashuvchi ma’nosini anglatuvchi sifatlar:

Suffikslar	So‘z yasovchi ot negizi		Yasama so‘z misollari	
-fer (us, a, um)	semen, inis	urug‘	semin-i-fer	urug‘ga oid (urug‘ tashiydigan)
	sudor, oris	ter	sudor-i-fer	terga oid
-phor- (us, a, um)	Oon	tuxum	oo-phorus	tuxum tashiydigan

5. Negizda ko‘rsatilgan belgini

- 1) “tug‘diradigan, yetishtiradigan, chaqiradigan” (faol ma’no); 2) “tug‘iladigan, chaqiriladigan” (sust ma’no) anglatuvchi sifatlar:

Suffikslar	So‘z yasovchi ot negizi		Yasama so‘z misollari	
-gen- (us, a, um)	cancer	saraton	cancero-genus	saraton chaqiradigan
	pyon	yiring	pyo-genus	yirinlatadigan;
	enteron	ichak	entero-genus	yiringlagan ichak kasalligi sababli



25-rasm. Otda teri yallig'lanishi (*dermatitis*)



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

111-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling:

Tuberalis, tuberosus, tuberculum, tuberositas, tubicularis; tubus, tubulus, tuba, tubula, tubalis; bulla, bullosus; capitulum, capitalis; denticulus, dentalis; vesicula, vesicularis.

112-mashq. Qo'shimchalarni belgilang, so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling:

Cuticula, tuberculum, mammilla, frenulum, glomerulum, ossiculum, ventriculus, corpusculum, lingula, lingualis, singularis, radicula, ventralis, dorsalis, tympanicus, caninus, meningeus, membranosus, cardiogenus (*yun. cardia - yurak*), spongiosus, analis, femoralis, geniculum, maxillaris, mandibularis, mucosa, serosa, granulosus, alveolaris, gluteus, coccygeus, carpeus, parotideus, tarseus, phalangeus, caroticus, pubicus, neurogenus.

113-mashq. -io qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang.

Resectum - kesib olmoq, qirqib olmoq; extirpatum - ildizi bilan yulib olmoq; secretum - kesmoq, qirqmoq; punctum - sanchmoq; extractum - chiqarmoq; extensum - uzatmoq, cho'zmoq, obturatum - tiqinlamoq; occlusum - bekitmoq; contractum - tortmoq; luxatum - chiqmoq, siljimoq; invasum - bostirib kirmoq; transfusum - quymoq; secretum - ajratmoq; depressum - tushirmoq, bosmoq; commotum - chayqatmoq; compressum - qismoq; infectum - singdirmoq,

yuqtirmoq; selectum - tanlamoq; mutatum - o'zgartirmoq; injectum - ichiga tashlamoq; perforatum - teshib o'tmoq.

114-mashq. Ma'no jihatidan so'z yasovchi qo'shimchalardan foydalangan holda sifat yasang:

"simon, o'xshash" - xanjar (*yun. xiphos*), bigiz (*yun. stylos*), pona (*yun. sphen*), trapetsiya (*yun. trapezion*), o'rgimchak to'ri (*yun. arachne*), qalqon (*yun. thyreos*), qanot (*yun. pteryg-*), so'rg'ich (*yun. mastos*), pona (*lot. cuneus*), zamburug' (*lot. fungus*), duk (*lot. fusum*), chuvalchang (*lot. vermis*).

"ko'p, boy" - tolali, shilliqli, g'orli, gangliyli, koptokchali, donchali, tomirchali, do'mboqli.

"tegishli, oid" - ko'krak qafasiga tegishli , nog'oraga oid, diafragmaga oid, uyqu arteriyasiga oid, me'daga oid, limfaga oid, ko'rvu bo'rtig'iga oid, siyidik nayiga oid.



Uyga vazifa

115-mashq. -or qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang.

Constrictum - toraytirmoq; depressum - tushirmoq, bosmoq; injectum - ichiga tashlamoq; supinatum - to'ntarmoq, ag'darmoq; erectum - to'g'rilmamoq; monitum - eslatmoq, nazorat qilmoq; excavatum - o'yib olmoq; acceptum - qabul qilmoq; receptum - olmoq; ordinatum - tartibga solmoq.

116-mashq. -ura qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang.

Junctum - bog'lamoq; strictum - toraymoq; curvatum - egmoq; fissum - tilmoq, yormoq; comissum - biriktirmoq; sutum - tikmoq; fractum - sindirmoq, buzmoq.

117-mashq. Klinik terminlarni tarjima qiling:

Perforatio appendicis, abscessus chronicus, abscessus hepatis ascaridosus, glaucoma malignum pigmentosum, glaucoma juvenile, polypus mucosus simplex, polypus fibrosus, cancer papillaris, eruptio medicamentosa, ulcerus gangraenosum, cysta dentalis radicularis, cysta bronchogena, cysta palatina, cancer pulmonis.

118-mashq. Termin-so'z tuzilmalarini o'qing. Suffikslarni ajrating, ma'nosini tahlil qiling.

- | | |
|------------------------------------|--|
| 1. necrosis pulpaе | 2. resection apices radices dentis |
| 3. dermatitis faciei(dermato-teri) | 4. papillae fungiformes linguae |
| 5. pulpitis diffusa acuta | 6. periodontitis acuta |
| 7. parodontosis chronica | 8. fractura mandibulae |
| 9. glossitis purulenta profunda | 10. pulpitis gangraenosa chronica |
| 11. glossitis rhomboidea. | 12. perforatio parietis sinus maxillaris |

119-mashq. Termin-so ‘z tuzilmalarini lotin tiliga tarjima qiling:

1. Tanglayda yiring bo ‘lishi (tilning, pulpaning)
2. Tishning kraesi (tishlarning)
3. Chuqur yiringli o‘yma
4. Kariesli tish (tishlar)
5. Kariesli bo‘shliq (dog‘)
6. Katta shikastlanish (kichik)



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Semfer avarus eget* - Xasisning qorni to‘ysa ham ko‘zi to‘ymaydi.
2. *Si vera narretis, non opus sit testibus* - Agar haqiqatni gapirsangiz, guvohga hojat yo‘q.
3. *Sol lucet omnibus* - Quyosh hammaga teng boqadi.



Nazorat uchun savollar:

1. So‘z qanday tarkibiy qismlar yordamida yasaladi?
2. So‘z yasovchi va yasama negizlar deganda nimani tushunasiz?
3. Suffiksatsiya nima?
4. Ot yasovchi suffikslar qaysilar?
5. Sifat yasovchi suffikslar qaysilar?

Leksik minimum

<i>abcessus, us m</i> - abscess	<i>acutus, a, um</i> - o‘tkir
<i>cancer, cri m</i> - saraton	<i>comatosus, a, um</i> - komaga oid
<i>cysta, ae f</i> - pufak, kista	<i>caries, ei f</i> - karies, suyakchirishi
<i>coma, atis n</i> - koma, behush holat	<i>cystosus, a, um</i> - kistali
<i>diabetes, ae f</i> - diabet	<i>diabeticus, a, um</i> - diabetga oid
<i>diffusus, a, um</i> - tarqalish, diffuz	<i>eczema, atis n</i> - chilla yara, ekzema
<i>fractura, ae f</i> - shinish	<i>gangraena, ae f</i> - qorason, gangrene
<i>gangrenous, a, um</i> - gangrenali	<i>glaucoma, atis n</i> - nazla, glaukoma
<i>hernija, ae f</i> - churra	<i>hernalis, e</i> - churraga oid
<i>icterus, i m</i> - sariqlik	<i>ileus, i m</i> - ichak tutilishi
<i>infantilis, e</i> - bolalarga xos	<i>infectio, onis f</i> - yuqish, infeksiya
<i>infectiosus, a, um</i> - yuqumli	<i>inflammatio, onis f</i> - yallig‘lanish
<i>juvenile, e</i> - o‘spirinlarga xos	<i>morbus, i m</i> - kasallik
<i>malignus, a, um</i> - yomon sifatlari, xavfli	<i>oedema, atis n</i> - shish
<i>paralysis, is f</i> - falaj, shol	<i>paralyticus, a, um</i> - falajlikka oid
<i>paroxysm, is f</i> - Perez, yarim falaj	<i>pneumonia, ae f</i> - zotiljam

senilis, e - qarilikka xos	spasmus, i m - tirishish, spazm
spasticus, a, um - spazmga oid	trauma, atis n - shikastlanish
ulcus, eris n - yara	ulcerous, a, um - yarali
varix, icis m, f - vena tuguni	traumaticus, a, um - shikastlanish
varicosus, a, um - kengaygan venaga	volvulus, i m - ichaklarning buralib
qolishi	
colica, ae f - qorinda to'satdan bo'ladigan oq'riq (sanchiq)	

SO‘Z YASASH USULLARI. PREFIKSATSIYA

Darsning maqsadi: Ko‘p qo‘llaniluvchi anatomik prefikslarni *bilib olish*. Berilgan ma’noda prefiksli va prefiks-suffixksli yasama so‘zlarni tahlil va hosil *qila olish*. (*Tana tuzilishiga va yuz soxasini ifodalovchi TE*)

Darsning mazmuni: *Prefiks bu* - so‘z boshida joylashgan so‘z elementi. Bir prefiks o‘rniga boshqa prefiksnı qo‘yish so‘z ma’nosini o‘zgartiradi. Prefiks, odatda, son, vaqt, makon yoki inkorni ifodalaydi. Ushbu darslikda prefiks yakka holda kelsa, oxiriga defis qo‘yiladi.

Prefiksatsiya – old qo‘shimchani (prefiksnı) o‘zakka qo‘shish, bunda ma’no o‘zgarmaydi, balki ushbu tushunchaga *lokalizatsiyasi* (yuqori, quyi, oldingi, orqa), *yo‘nalishi* (yaqinlashish, uzoqlashish), *kechishi* (ilgari, keyin), *mavjudligi* yoki *inkor etishi* kabi tarkibiy qismni qo‘shadi.

Prefikslar ko‘makchilardan rivojlangan, shuning uchun ularning o‘z ma’nosini tegishli ko‘makchilarniki bilan mos keladi.

Ba’zi prefikslarning o‘z ma’nosini asosida *ikkilamchi*, *ko‘chma* ma’nolar yuzaga kelgan. Shu tarzda yunon ko‘makchisi *para* (atrofi, yoni) da ko‘chma ma’no “chekinish, og‘ish, ma’lum hodisaning tashqi namoyon mohiyatiga mos kelmaslik” rivojlangan, mas.: *paranasalis* – burun atrofi; *paramnesia* (yun. mnesis – xotira) – xotira buzilishi va yolg‘on xotiraning yuzaga kelishi; *paratyphus* – Salmonella avlodiga mansub ma’lum bakteriyalar tomonidan qo‘zg‘atiluvchi odam yuqumli kasalliklar guruhining umumiy nomi bo‘lib, ich terlama (qorin tifi) alomatlariga o‘xshash (!) ba’zi klinik ko‘rinish bilan xarakterlanadi.

Morfologiya fan sohalarida qo‘llaniluvchi tushunchalarda AE-prefikslar o‘z ma’nosiga ega. Patologik holatlar, kasalliklar, a’zo faoliyatining buzilishlarini ifodalovchi terminlarda esa AE-prefikslar ikkilamchi ma’noda foydalaniladi, misol uchun *anat. hypogastrium* - qorin osti; *pat. fiziol. hypotonia* - mushakning yoki kavak a’zo mushak qavatining tonusi tushishi.

Anatomik nomenklaturada lotin prefikslari, patologik anatomiya, fiziologiya, klinika fan sohalarida esa yunon prefikslari ustunlikka ega. Biroq istisnolar ham uchrab turadi: *epicranialis* - kalla usti, *epifascialis* - fassiya usti, *endocervicalis* - bo‘yin ichi.

NB! Prefikslarning negizga qo'shilishida negizning boshlang'ich tovushi tu'siri ostida prefiksda o'zgarish sodir bo'lishi mumkin. Bu, asosan, assimilatsiyada (*lot.* assimilatio - qiyoslash, o'xshatish) namoyon bo'ladi: prefiksdagi so'nggi undosh so'z yasovchi negizning boshlang'ich tovushiga to'liq yoki qisman qiyoslashadi, masalan: *ad*-prefiksi *c, f, g, n, p* boshlang'ich undoshlari oldida mos ravishda *ac-, af-, ag-, an-, ap-* ga to'liq qiyoslashadi; prefikslardagi so'nggi *n* boshlang'ich *b, p* oldida *m* ga o'tadi yoki *l, m, r* oldida to'liq assimilatsiyaga uchraydi.

ELIZIYA: Ba'zi lotin prefikslarida *eliziya*, ya'ni so'nggi undoshning tushib qolishi mumkin, masalan: *ex- va e-; con- va co-; dis- va di-*. Yunon prefikslari *anadia-, cata-, meta-, para-, anti-, epi-, apo-, hypo-, meso-* da eliziya so'nggi unli negizning boshlang'ich unlisi oldida tushib qolishi bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan unlilarning qator kelishi bartaraf etiladi, masalan: *met-encephalon* (meta+encephalon), *di-encephalon* (dia+encephalon).

Ko'p qo'llaniluvchi yunon-lotin prefikslari

Prefikslar		Ma'nosi	Misollar	Tarjimasi
Lot.	Yun.			
<i>ad- (ac-, af-, al-, an-, ap-, as-, at-)</i>		yaqinlashish, birlashish, qo'shilish	ad-ductio	yaqinlashtirish
			ag-glutinatio	yopishtirish
			ad-nexa (an-nexa)	o'simtalar
			af-ferens	olib keluvchi
			as-sistens	yonda turuvchi
<i>ab- (abs-, a-)</i>	<i>apo- (ap-, aph)</i>	uzoqlashish	ab-oralis	og'izdan uzoqda
			abs-tinentia	tiyilish
			a-vulsio	uzilish
			apo-physis	o'siq
			aph-aeresis (apo+hairesis)	aferez (tortib olish)
			intra-abdominalis	qorin ichi
<i>intra-, intro-</i>	<i>endo-, ento-</i>	ichkari, ichki	intro-itus	kirish
			endo-scopia	tana bo'shliqlari va kanallarini vizual tekshirish usuli
			ento-derma	ichki pushtyaproq'i

Eslatma: *intra-* "vaqt mobaynida" ma'nosiga ham ega: *intra-vitalis* - tirkichidagi.

extra-, extero-	ecto-, exo-	tashqari, tashqi	extra-uterinus	bachadondan tashqari
			extero-receptor	tashqi muhitdan taassurotni qabul qiluvchi retseptor
			ecto-derma	tashqi pushtyaprog'i
			exo-glossia	tilning yiriklashib og'izdan chiqib turishi
infra-, sub-	hypo- (hyp-)	ost, quyi, pastki normadan kam	infra-scapularis	kurak osti
			sub-acromialis	akromion osti
			hypo-gastrium	qorin osti hypotonia
supra-, super-	hyper-, epi-	usti yuqori normadan ortiq	supra-scapularis	kurak usti
			supra- acromialis	akromion usti
			super-medialis	yuqori medial
			epi-gastrum	qorin usti
			epi-glottis	hiqildaq usti sohasi hypertonia
ante-, prae- (pre-), pro-	pro-	oldingi, old; oldin, avval	ante-brachium	bilak
			prae-senilis	qarilikdan oldin
			pro-lapsus	a'zo tushib qolishi
			pro-nephros	buyrak oldi
post-	meta- (met-)	keyin, so'ng	post-nasalis	tug'ruqdan keyin
			meta-thalamus	ko'ruv bo'rtig'i orti
			met-encephalon	miya qismi

Eslatma: *meta-* - “bir joydan yoki holatdan boshqasiga o‘tish”, “o‘zgarish” ikkilamchi, ko‘chma ma’nolariga ham ega: *meta-stasis* - patologik materialning organizm bir joyidan boshqa joyiga ko‘chishi; *meta-bolismus* (*yun.* metabole) - moddalar almashinuvi.

inter-	meso- (mes-), dia- (di-)	oraliq, ora, o‘rta	inter-muscularis	Mushaklararo
			meso-derma	o‘rta pusht yaproq'i
			dia-physis	suyaklarning o‘rta qismi
			di-encephalon	oraliq miya

NB! meso- prefiksi qorin ichi a'zosini anglatuvchi negizga qo'shilib, ushbu u'zoning *tutqichini* hosil qiladi: *meso-colon*—chambarichak tutqichi; *meso-gastrum* — me'da tutqichi.

dia- prefiksining o'zga ma'nosi quyidagi jadvallarda berilgan.

circum-	peri-, para- (par-))	atrof, old	circum-analis	orqa peshov atrofi
			peri-arterialis	arteriya atrofi
			peri-cranium	kalla suyak ustı pardasi
			gl. par-otis	quloq oldi bezi
			para-metrium	bachadon atrofi kletchatkasi

NB! peri- prefiksi a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni qoplab turgan tashqi qobiq, g'ilof, to'qima, qorin pardani bildiradi: *peri-metrium* - bachadon seroz (qorin pardaga oid) pardasi; *peri-osteum* - suyak ustı pardasi; *peri-bronchitis* - bronxni o'rab turuvchi to'qima yallig'lanishi; *peri-nephritis* - buyrak fibroz g'ilosining yallig'lanishi.

para- prefiksi ichki a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni atrofidagi kletchatka (siyrak tolali biriktiruvchi to'qima) ni anglatadi: *para-nephritis* - buyrak atrofi kletchatkasi yallig'lanishi.

para- prefiksi "normadan og'ish", "berilgan so'z yasovchi negizdan firqlanuvchi" ikkilamchi ma'nolariga ham ega: *par-acusis* - eshitish taassurotlarini noto'g'ri yoki o'zgargan idrok qilish; *para-struma* - qalqon oldi bezlarining bo'qoqni eslatuvchi gipertrofiysi.

trans-		orqali; ma'lum chegarada harakatlanish	trans-thoracalis	ko'krak qafasi orqali
			trans-plantatio	ko'chirib o'tkazish
per-	dia-	orqali; harakat ma'nosining kuchayishi	per-foratus	Teshilgan
			per-tubatio	. bachadon naylari orqali
			per-sistens	doimiy
			per-tussis	ko'k yo'tal
			dia-rrheo (dia+rrheo)	ich ketishi

retro-		orqa, ort	retro-nasalis	burun orti
			retro-sternalis	to'sh orti
			retro-versio	orqaga burilish, og'ish
			retro-gnathia	yuqori jag'ning ortga siljishi
			retro-bulbaris	ko'z olmasi orti
re-		qaytalanish, takrorlanish; javoban, qarshi harakat	re-spiratio	nafas olish
			re-currens	qaytalanuvchi
			re-animatio	jonlanish
			re-fluxus	teskari oqim
con- (com-, cor-, col-, co-)	syn- (sym-, sy-)	birgalikda; aloqa, bog'lanish, bilan, birikish	con-junctiva	ko'zning biriktiruvchi to'qimali pardasi
			m. con-strictor com-missura	toraytiruvchi mushak bitishma
			m. com-pressor	toraytiruvchi mushak
			con-tractio	qisqarish
			cor-rectio	tog'rilanish
			syn-apsis	ikki neyron hamda asab va mushak birlashish joyi
			sym-biosis	birga yashash
			sy-stole	sistola
			contra-lateralis	qarama-qarshi tomonda joylashgan
			anti-tragus	Tortishga qarshi
contra-	anti- (ant-)	qarama- qarshi, qarshi, holat, harakat	ant-acidum	kisolotaga qarshi
			ana-crota	(yun. krote - zarba) puls to'lqini ko'tariluvchi qismi.
			ana-biosis (ana+bioo)	hayot jarayonlarining vaqtinchalik sekinlashishi yoki to'xtashi
			ana-mnesis	anamnez
	ana-	pastdan yuqoriga ko'tariluvchi harakat; harakat tiklanishi		

ana- prefaksi "so'z yasovchi negiz ifodalagan man'oga qarama-qarshi harakat, holat" ma'nosiga ham ega: *ana-toxinum* - zahrini yo'qtgan toksin.

	cata-	yuqoridan pastga tushuvchi harakat; harakat ma'nosining kuchayishi	cata-crota cata-mnesia	puls to'lqini tushuvchi qismi (yun. katamnemoneuo - eslamoq) katamnez
(im-, il-, ir-)	en- (em-)	ichida	in-cretorius im-pressio en-tropion en-cephalon em-bolia	ichki sekretsiyaga oid botiq qovoqning ichkariga buralib qolishi bosh miya (yun. ballo - tashlamoq) emboliya
ex- (ef-, e-)	ec-, ex-	ichidan	ex-cretorius ef-ferens e-missarium ec-topia ex-ostosis	tashqi sekretsiyaga oid olib ketuvchi bitiruvchi (olib chiquvchi kanal) (yun. topos - joy) a'zoning tug'ma siljishi (yun. osteon - suyak) suyakda o'siq
in- (im-, il-, ir-)	a-(an-)	so'z yasovchi negiz belgisini inkor etilishi yoki yo'qligi	in-suffientia in-nocens im-potentia im-munitas ir-regularis a-pathia an-algesia	yetishmovchilik ziyonsiz quvvatsizlik (asl. majburiyatdan ozodlik) immunitet nomuntazam hissiy befarqlik og'riqsizlanadirish, og'riqli qo'zg'alishlarni sezmaslik

	dys-	buzilish, qynalish; faoliyatning buzilishi; normadan sifat yoki miqdoriy og'ishi	dys-tonia	tonusning buzilishi
			dys-uria	bovluz buzilishi
	eu-	normal faoliyat; to'g'ri; yaxshi holatda	eu-rythmia	to'g'ri ritm
			eu-pnoë	normal nafas
dis- (dif-, di-)	dia-	bo'linish, ajralish, ayrilish	dis-seminatio	tarqalish
			di-vergentia	ayrilish
			dif-fusus	yoyilish
			dia-lysis	taqsimlanish
			dia-gnosis	tashxislash
			de-pilatio	soch yulish
			des-infectio	zararsizlantirish
			de-generatio	tubanlashish
			de-ferens	olib boruvchi
			se-paratio	bo'lish
de- (des-), se-		ajratish, yo'qotish	se-cretio	ajratish

de-prefiksi pastga harakatni ham bildirishi mumkin: *m. de-pressor* - tushiruvchi mushak.

Prefiks-suffiksli yasama so'zlar

O'zakka, negizga, prefiks va suffiksning bir vaqtida qo'shilishi oqibatida hosil bo'lgan so'zlar *prefiks-suffiksli yasama so'zlar* deyiladi. Shu tariqa qadimgi yunon terminshunosligida *hypo-gastr-ium* (*yun.* hypogastrium) - qorin quyi sohasi, *mes-enter-ium* (*yun.* mesenterion) - tutqich terminlari hosil bo'lgan. Natijada shunday qolip asosida *mesogastrium*, *epigastrium* terminlari va barcha tutqich nomlari (mesometrium, mesovarium va h.). Dastlab *epithelium* ko'krak so'rg'ichi ustidagi yupqa terini anglatgan (*yun.* thele - so'rg'ich), keyinchalik bu terminning ma'nosi kengaygan va shu qolip asosida *mesothelium*, *endothelium* terminlari yaratilgan.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

120-mashq. Berilgan terminlarning ma’nosini tushuntiring.

Infraorbitalis, supraclavicularis, infratrocLEARIS, supratrocLEARIS, interclavicularis, interosseus, intralobularis, intramuscularis, parasternalis, episternalis, suprasternalis, subcorticalis, subduralis, epitympanicus, endocervicalis, applicatio (*lot. applico* - qo‘ymoq), antenatalis (*lot. natus* - tug‘ilish), postnatalis, intertarsea, intranatalis, mesoduodenum, interalveolaris, subcutaneus, extrapulmonalis, extrapyramidalis, extramuralis (*lot. murus* - devor), paravesicalis, submandibularis, retrobuccalis, premolares, subpleuralis, connectivus (*lot. necto* - to‘qimoq, biriktirmoq), adducens (*lot. duco* - olib bormoq), abducens, abductio, praeglucoma, praecancerous.

121-mashq. Atamalardagi prefikslarni aniqlab tagiga chizing.

1. analgesia - og‘riq xissini yo‘qotish, analgeziya;
2. conjunctiva - ko‘zning biriktiruvchi pardasi, konyuktiva;
3. exoglossia - tilning kattalashishi, uning og‘iz bo‘shlig‘idan tashqariga chiqib qolishi, egzoglossiya;
4. endoscopia - tananing bo‘shliqlari va kanallarini ko‘z orqali o‘rganish usullari, endoskiopiya;
5. epiglottis - nadgortanik;
6. entropion - qovoqning ichkariga o‘girilib qolishi;
7. immunitas - yuqumlikka chiqamlilik, kasalliklar, immunitet;
8. metathalamus - miyaning ko‘rish do‘mbog‘ining orqasida;
9. parotis (ot- -uxo) - qulqoq oldi bezi;
10. prognathia - yuqori jag‘ning oldinga siljishi, prognatiya;

122-mashq. Berilgan terminlarni lotin tiliga tarjima qiling.

Mushak ichi, qirg‘oq usti, to‘s sh osti (ikki turli prefiks bilan), to‘s sh osti, chakka osti, umurtqalararo, qorin parda orti, halqum orti, g‘ilof ichi, buyrak usti, ko‘krak ichi.



Uyga vazifa

123-mashq. Terminlarni to‘ldiring:

1. Sezgining yoqolishi, reaktivlik yoqolishi: ...ergia
2. Xid bilishning yoqolishiyoki buzulishi: ...osmia
3. Yutishning qiyinlashishi: ...phagia
4. Qiyshayish (uzoqlashishi), misol uchun tish ildizi: ...viatio
5. Yuqori jag‘ning orqaga siljishi ...gnathia

6. Pastki jag'ning oldinga siljishi: ...genia
7. Tiklanishi (misol uchun tishning ildizi): ...plantatio
8. Ajralishning kamayishi (so'lak): ...secretio
9. Yuqori umumlashgan tishlar: ...odontia

124-mashq. Berilgan terminlarning ma'nosini tushuntiring.

Metathalamus, hypothalamus, epithalamus, epitympanum, epiphysis (*yun.* phyo - o'smoq), diaphysis, metaphysis, apophysis, decapitatio (doyalikda - homilani yo'qotuvchi opertsiya), decompressio (*lot.* compressio - qisilish), eutopia (*yun.* topos - joy), dystopia, revaccinatio, reinfectio, regeneratio, degeneratio, antagonismus (*yun.* agon - kurash), invalidus (*lot.* validus - kuchli), conjunctiva, collectivus.

125-mashq. Atamalardagi prefikslarni aniqlab tagiga chizing.

1. parodontosis - paradont kasalligi (parodontium – parodont – tishning ildizi sohasidagi anatomic o'zgarishlar yig'indisi) parodontoz;
2. periodontium - tishning suyak usti pardasi – biriktiruvchi to'qima. tish devori va tish ildizi orasidagi bo'shlig'ini to'ldiruvchi periadont;
3. retronasalis - burunning orqa qismi;
4. retrognathia - yuqori jag'ning orqaga siljishi, retrognatiya;
5. respiratio - nafas olishi, respirasiya ;
6. recurrens - oqaga qaytuvchi, rekurrentniy;
7. sesretio - ajratish, sekretsiya;
8. anabiosis - (gr. anabiosis -tirilmoq) – tirik organizmning vaqtinchalik

126-mashq. Berilgan terminlarni lotin tiliga tarjima qiling.

Pastki jag' osti, ensa osti, til osti (asabi), til osti (yo'li), bo'g'imlararo, qovurg'alararo, mushaklararo, to'sh orti, lunj orti, qorin pardadan tashqari,



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Facile dictum, difficile factum* – Oson aytmoq, qiyin qilmoq.
2. *Otium post negotium* – Ishdan keyingi hordiq
3. *Salus respublicae suprema lex* - Davlat farovonligi – oliv qonun.



Nazorat uchun savollar:

1. Qaysi lotin va yunon prefikslar "orqali" biror narsa orasida bo'lish ma'nosini bildiradi?

2. Qaysi prefikslar funksiya buzilishi, ma'nosini bildiradi?
3. O'zbek tilidagi "qarshi" prefiksi lotin va yunon tilidagi qaysi prefikslarga mos keladi?
4. Endoderma, mesoderma, ektoderma so'zlaridan qaysi biri terining ichki qavati hisoblanadi?



KLINIK ATAMALARING TUZILISHI. YUNON-LOTIN DUBLETLARI VA YAKKA TERMIN ELEMENTLARI.

Darsning maqsadi: Murakkab so'zlar yasalish qoidalarini; dublet va yakka TE minimumini; klinik terminlar o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish. Talabalarda murakkab so'zlarining rasmiyi va sermazmun (semantik) tomonlarini tahlil qilishni; yunon-lotin dubletlarini anatomik yoki klinik terminshunoslikga mos ravishda farqlab qo'llay olish ko'nikmasini oshirish.

Darsning mazmuni: Veterinariya klinik terminologiyasi kasal hayvonlarni davolash bilan bevosita bog'liq bo'lgan veterinariya fanlarining atamalari to'plamidir. Klinik terminologiyada asosiy til yunon tilidir. Klinik terminologiyada asosiy tarkibiy-semantik birlik so'z emas, balki termin elementidir.

Murakkab so'zlar

Agar so'z yasovchi negizlar ikki va undan ortiq bo'lsa, yasama so'z murakkab so'z hisoblanadi. Murakkab so'zlar ikki usulda hosil qilinadi: toza qo'shish yoki suffiksatsiya bilan birga qo'shish. Toza qo'shishda so'nggi, *tayanch qism* mustaqil so'z holida ifodalanadi. Ushbu qism so'zni grammatick jihatdan shakllantirib, ma'lum bir so'z turkumiga mansubligini belgilaganligi uchun tayanch qism deyiladi, masalan: *glossopharyngeus* birinchi komponent *glosso* + ikkinchi, taynach, komponent *pharyngeus* (I guruh sifati); *rhinencephalon* birinchi *rhin-* + ikkinchi, tanyanch, *encephalon* (II turlanishdagi ot). Termin elementi - bu bir necha atamalarda muntazam takrorlanadigan, maxsus ma'noga ega bo'lган komponent.

Masalan, *kardiologiya* - yurak-qon tomir tizimi kasalliklari haqidagi fan atamasasi *kardio* - yurak va oxirgi - *logia* - fan, bilim sohasi atamasidan iborat. Birinchisidan yurak bilan bog'liq bir qancha atamalar shakllanadi: *kardiopatiya* - yurak kasalliklarining umumiyl nomi, *kardialgiya* - yurak mintaqasida og'riq, *kardionevroz* - yurak nevrozi.

Boshlang'ich atama elementlari oxirgi unli bilan ishlataladi: o (keyingi undoshdan oldin) yoki unsiz (keyingi undoshdan oldin): *gastroskopiya*, *kardiologiya*.

Termin elementlari oddiy va murakkab. Murakkablar bir nechta (odatda ikkita) morfologik elementlardan iborat, lekin bir butunlikni ifodalaydi.

Misol uchun, *ektomiya* atamasi - olib tashlash prefaksi **eu** - dan, tashqaridan va element **-tomia** - kesma, element xoletsis - o't pufagi atamasi **-chole** safro va - **kist** - qovuq ildizlaridan iborat.

Tananing tabiiy funktsiyalari va unda sodir bo'ladigan jarayonlar yunoncha **a-/an-**, **dys-**, **hiper-**, **gipo-** prefiksleri yordamida ko'rsatilgan:

a-/an - so'zning ikkinchi qismida ifodalangan belgining yo'qligi, yetishmasligi yoki inkor etilishini bildiradi (*asialia* – so'lak oqmasligi);

gipo - pastki, pasaytirish, zaiflash degan ma'noni anglatadi (*giperemiya* – tananing yoki organning bir qismini qon bilan to'ldirish);

dys - buzilish, buzilish (*dizuriya* - siyish buzilishi; *distoni* - ohangning pasayishi);

giper – ko'payish, (*gipertoniya* - bosimning oshishi; *hypersalivatio* - gipersalivatsiya, so'lakning ko'payishi).

Klinik terminologiyada **-osis**, **-asis**, **-itis**, **-ism**, **-oma** qo'shimchalari. Jarayon, holat, kasallik nomlarida qo'llangan qo'shimchalar turli ma'noga ega.

-it - qo'shimchasi (yoki oxirgi atama elementi **-itis**) juda ixtisoslashgan ma'noga ega: u yallig'lanish kasalliklari (*gastrit* - oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi) nomlarini hosil qiladi.

-ias-, -ism-, -os- (mos ravishda yakuniy elementlar - **iasis**, **-ismus**, **-osis**) qo'shimchalari umumiyroq ma'noga ega: jarayon, holat, kasallik. Ayniqsa, klinik terminologiyada **-os-** qo'shimchasi keng qo'llaniladi . U kasallikning umumiylar xarakteristikasini (*dermatoz* - teri lezyonlarining umumiyligi nomi), me'yordan oshib ketishini (*melanoz* – to'qimalarda melaninning ortiqcha to'planishi), tarqalishini (*adenomatoz* – ko'plab adenomalarining mavjudligi) va boshqa xususiyatlarni ko'rsatishi mumkin.

Tanadagi patologik shakllanishlar shishlarni o'z ichiga oladi. Ularning nomlari **-oma** qo'shimchasi yordamida yasaladi . Boshlang'ich atama elementi o'simta paydo bo'lgan to'qimalarni bildiradi: *neyroma* - asab to'qimasidan o'simta; *myoma* - mushak to'qimalarining shishi. O'simtaning umumlashgan ma'nosи *n* bilan - va lotinchа o'simta, oris *m* bilan bog'liq element atamasi bilan ifodalananadi.

**A'ZO, TANA QISMLARIN VA YUZ JAG'NI IFODALOVCHI YUNON-
LOTIN DUBLETLARI**

Yunon TE	Lotin so'zlari	Ma'nosi
acro-, -acria (akron)	membrum, i n	tana qismining distal bo'limi, mucha; qol-oyoq uchli
arthro- (arthron)	articulatio, onis f	bo'g'im
cardio-, -cardium (kardia)	cor, cordis n ostium cardiacum (PNA)	yurak yurak, kardial teshik
cheilo-, -cheilia (cheilos)	labium, i n	lab
cheiro-, chiro-, -cheiria, -chiria (cheir)	manus, us f	qo'l
-genia (geneion)	mentum, i n	engak
-genia (genys, genyos)	mandibula, ae f	pastki jag'
glosso-, -glossia	lingua, ae f	til
gnatho-, -gnathia	maxilla, ae f	jag', yuqori jag'
gon- (gony)	genu, us n	tizza
kephalo-, cephalo-, -cephalia (kephale)	caput, itis n	bosh
melo- (melon)	bucca, ae f	lunj
odonto-, -odontia (odus, odontos)	dens, dentis m	tish
osteo- (osteon)	os, ossis n	suyak
podo-, -podia (pus, podos)	pes, pedis m	oyoq
r(h)achi- (rhachis)	columna vertebralis	umurtqa pog'onasi
rhino- (rhis, rhinos)	nasus, i m	burun
somato-, -soma (soma, somatos)	corpus, oris n	tana
spondylo- (spondylos)	vertebra, ae f	umurtqa
stetho- (stethos)	pectus; oris n thorax, acis m	ko'krak ko'krak qafasi
stomato- (stoma, stomatos)	os, oris n	og'iz
ul-, ulo- (ulon)	gingiva, ae f	milk
urano- (uranos)	palatum, i n (durum)	tanglay (qattiq)

YODDA TUTING

Yunon TE	Lotin so‘zları	Ma’nosi
cholangio- (chole+angeion)	ductus biliferi	o‘t yo‘llari
cholecysto- (chole+kystis)	vesica fellea s. v. biliaris	o‘t pufagi
choledocco- (chole+doche)	ductus choledochus	umumiyo‘t yo‘li
colpo- (kolpos)	vagina, ae f	Qin
cysto- (kystis - pufak; qovuq)	vesica, ae f vesica urinaria	pufak; qop qovuq, siyidik pufagi
dacryocysto- (dakryon+kystis)	saccus lacrimalis	ko‘z yoshi qopi
entero- (enteron; entera pl.)	intestinum, i n intestina pl. intestinum tenuer	ichak ichak-chovoq ingichka ichak
gastro-, -gastria (gaster, gastros)	ventriculus, i m	me‘da
laparo- (lapare – chov, biqin; pl. qorin)	abdomen, inis n venter, ntris m	qorin, qursoq
metro-, -metra, -metrium (metra)		
hystero- (hystera)	uterus, i m	bachadon
nephro- (nephros)	ren, renis m	buyrak
omphalo- (omphalos)	umbilicus, i m funiculus umbilicalis	kindik kindik tizimchasi
oo- (oon)	ovum, i n	tuxum
oophoro- (oophoron)	ovarium, i n	tuxumdon
orchi-, orchidi-, -orchidia, -orchia (orchis; orchidion)	testis, is m	urug‘don, moyak
pneumo-, pneumono- (pneumon)	pulmo, onis m	o‘pka
procto- (proktos)	anus, i m rectum, i n	orqa peshov to‘g‘ri ichak
pelo- (pelos)	pelvis renalis	buyrak jomi
salpingo- (salpinx, salpingos - nay; bachadon nayi)	tuba uterina tuba auditiva	bachadon nayi eshituv nayi
splanchno- (splanchna pl.)	viscera pl.	ichki a’zolar

spleno- (splen)	lien, enis m	taloq
trachelo- (trachelos)	cervix, icis f (uteri)	bachadon bo'yni
typhlo- (typhon)	c(a)ecum, i n	ko'r ichak



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

127-mashq. Quyidagi organlarning nomlaridan yallig'lanishiga xos iboralar tuzing.

Hepar, atis, *n*; gaster, gastris, *f*; glossa, ae, *f*; stoma, atis, *n*; larynx, ngis, *f*; pharynx, ngis *m*; appendix, icis, *f*; pancreas, atis, *n*; encephalon, i, *n*; colon, i, *n*; tonsilla, ae *f*; bronchus, i, *m*; gingiva, ae, *f*; pilula, ae *f*;

128-mashq. Quyidagi asosdan shishga mos iboralar tuzing.

Sarx, sarc—go'sht; *Haema,haemato* – qon; *Carcinos,carcin*—rak, o'sma; *Fibra, fibr* – tola; *Chondros,chondr*—tog'ay;

129-mashq. Quyidagi to'qimalarning shishini ayting.

Moyli, suyakli, nervli, muskulli, bezli, tomirlu.

130-mashq. Iboralarni lotin tilida yozing va ularning ma'nosini tushuntirib bering.

Leykoz, akrotsianoz, mikoz, eritrositoz.

131-mashq. Tarjima qiling va moslashtiring.

Jigarga tegishli koma, ko'ndalang sinish, cho'ziq sinish, diffuzli psess (ho'ppoz), parhezli koma, surunkali yara, son grijası(churra), o'tkir tishli kasalligi, o'tib bo'lmaydigan 12 barmoqli ichak.



Uyga vazifa

132-mashq. Old qo'shimchalarni ajrating, ularni ma'nosini tushuntiring, iboralarni ma'nosini ko'sating:

Anaemia, apathia, dysphagia, aphagia, hyperaemia, amnesia, dysergia, hyperergia, sympathia, synchondrosis, hyperthermia, syndesmosis, hypothermia, hyperkinesia, pericardium, pericarditis, epicondylus, antitoxicus, endocarditis, parametrium, metastasis.

133-mashq. Nuqtalar o'miga kerakli so'z yasovchi elementlarni qo'ying.

1.Organ to'qimalarida kislород moddasini pasayishi oxia 2.To'qimali elementlarning ko'payib hosil bo'lishicystosis 3.Organ yoki tana qismida o'datdagи holatdan chetga chiqishi ...plasia 4.Tomirlarda gidrostatik haroratning tushushi tonia 5.Bachadon pufagiga siydikni kelmasligi ... uria 6.Muskulni kesish ... tomia 7.Muskul tonusining kuchsizlanishi ... tonia

134-mashq. Tarjima qiling va moslashtiring.

Jigar og'rig'i, o'pka bo'lagi, tirik organizmda to'qimalar o'lishi, o'tkir kasallik, bronx, mushaklarning tonusining oshib ketishi, yuqumli sariq kasallik, bosh miyaning (chala) falaj (yoki qisman yo'qolishi) bo'lishi.




Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Vita brevis, ars longa* - Hayot qisqa, san'at abadiydir.
2. *Qui bene diagnoscit, bene curat* - Kim tashxizni to'g'ri qo'yolsa, o'sha yaxshi davolay oladi.
3. *Tempus vulnera sanat* – Kasalni vaqt davolaydi.




Nazorat uchun savollar:

1. Klinik atamalarning o'ziga xos xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Murakkab so'zlar qanday qoidalar asosida yasaladi?
3. Tananing tabiiy funktsiyalari va unda sodir bo'ladigan jarayonlar qaysi yunoncha prefikslari yordamida yasaladi?



26-rasm. Qulunda gidroperikardit (hidropericarditis)



**FAN, TA'LIM, TO'QIMA, ORGANLARNI IFODALOVCHI
YUNON-LOTIN ATAMA ELEMENTLARI (AE).**

Darsning maqsadi: Fan, ta'lrim, to'qima, organlarni ifodalovchi yangi yunon-lotin AE ma'nolarini bilib olish. Berilgan ma'nolardan turli yasama so'zlarini tahlil va hosil qila olish.

Darsning mazmuni: Fan, ta'lrim, to'qima, organlarni ifodalovchi yangi yunon-lotin atama elementlari quyidagilardan iborat:



Yunon AE	Lotin so'zlari	Ma'nosi
<i>adeno-</i> (aden - bez)	1) glandula, <i>ae f</i> 2) nodus lymphaticus (lymphonodus)	1) bez, bezli epitely 2) limfa tuguni 3) burun-halqum murtaklarining o'smasimon shishlari
<i>andro-, -andria</i> (aner, andros - erkak kishi)	mas, maris <i>m</i> masculinus, <i>a, um</i> vir, <i>i m</i>	erkak, erkakka oid
<i>angio-</i> (angeion - tomir)	vas, vasis <i>n</i> vasculum, <i>i n</i>	tomir (asosan, qonga oid)
<i>alg-, -algia, -algesia</i>		og'riq
<i>blasto-, blastus</i> (blastos - kurtak, pusht)	germen, <i>inis n</i>	kurtak; blast - pusht hujayrasi yoki erta embrional bosqich
<i>blepharo-</i> (blepharon - qovoq)	palpebra, <i>ae f</i>	qovoq
<i>-cele</i> (kele - shish; churra)	hernia, <i>ae f</i>	churra; shish
<i>chondro-</i> (chondros - don; tog'ay)	cartilago, <i>inis f</i>	tog'ay
<i>chole-, -cholia</i> (chole - safro)	fel, fellis <i>n</i> bilis, <i>is f</i>	o't, safro
<i>chylo-, -chylia</i> (chylos - shira, sutsimon shira)	lymppha, <i>ae f</i>	limfa
<i>copro-</i> (kopros - najas)	faeces, <i>ium f pl.</i> stercus, <i>oris n</i>	najas, axlat
<i>cyto-, -cytus</i> (kytos - qavariq idish, bo'shilq)	cellula, <i>ae f</i>	hujayra
<i>dacryo-</i> (dakryon - ko'z yoshi)	lacrima, <i>ae f</i>	ko'z yoshi
<i>dermo-, dermato-, - derma</i> (derma, dermatos - teri)	cutis, <i>is f</i>	teri
<i>galacto-</i> (gala, galaktos - sut)	lac, lactis <i>n</i>	sut
<i>geri-, gero-, geronto-</i> (geron, gerontos - qariya)	senex, senis <i>m</i> senilis, <i>e</i>	qarilikka xos

gyno- <i>gynaeco-</i> (<i>gyne</i> , <i>gynaikos</i> - <i>ayol kishi</i>)	femina, <i>aef</i> femininus, <i>a, um</i>	urg'ochi, ayolga oid
-graphia (<i>grapho</i>)		grafik tasvirlash
-gramma (<i>gramma</i>)		yozish
haemo-, haemato-, -aemia (<i>haima</i> , <i>haimatos</i> - <i>qon</i>)	sanguis, <i>inis m</i>	qon
hidro- (<i>hidros</i> - <i>ter</i>)	sudor, <i>oris m</i>	ter
histo-, histio- (<i>histos</i> , <i>histion</i> - to'qima)	textus, <i>us m</i>	to'qima
hydro- (<i>hydor</i> , <i>hydatus</i> - <i>suv</i> , suyuqlik)	aqua, <i>aef</i>	1) suv 2) suyuqlik; a'zo yoki kasallik nomi bilan birga - seroz suyuqlik, suyuq tarkibning to'planishi
kerato- (<i>keras</i> , <i>keratos</i> - <i>shox</i>)	cornea, <i>aef</i>	shox, muguz, muguzlanish
lipo- (<i>lipos</i> - <i>yog'</i>)	adeps, <i>ipis m</i>	yog'
litho-, -lithiasis (<i>lithos</i> - <i>tosh</i>)	calculus, <i>i m</i>	konkrement, tosh mavjudligi
-logia (<i>logos</i>)		fan, ta'limot
-logo- (<i>logia</i>)		nutq
masto- (<i>mastos</i> - <i>ko'krak</i> ; <i>so'rg'ich</i>)	mamma, <i>aef</i>	sut bezi
melo-, -melia (<i>melos</i> - <i>suyak</i> <i>iligi</i>)	medulla spinalis medulla ossium	orqa miya suyak iligi
myo-, -mysium (<i>mys</i> , <i>myos</i> - mushak)	musculus, <i>i m</i>	mushak
-metria, -metr- (<i>metreo</i>) (<i>metrom</i>)		o'lchash
neuro-, neuri- (<i>neuron</i> - tomir, pay; <i>tola</i> , <i>asab</i>)	nervus, <i>i m</i>	asab, asab tizimi
-odynia (<i>odyne</i>)		og'riq
onycho-, -onychia (<i>onyx</i> , <i>onychos</i> - <i>tiরnoq</i>)	unguis, <i>is m</i>	tiরnoq
ophthalmo-, -ophthalmia (<i>ophtalmos</i> - <i>ko'z</i>)	oculus, <i>i m</i>	ko'z
-op-, -opt-, optico-, -opia, - opsia (<i>ops</i> , <i>opos</i> - <i>ko'z</i> , <i>ko'rish</i>)	visus, <i>us m</i> - <i>ko'rish</i> visio, <i>onis f</i> - <i>ko'rish</i> qobiliyati	ko'z; ko'rish, ko'rav idroki
oto-, -otia (<i>us</i> , <i>otos</i> - <i>qulоq</i>)	auris, <i>is f</i>	qulоq
paedio-, paedo- (<i>pais</i> , <i>paidos</i> , <i>paedion</i> - <i>bola</i>)	infans, <i>ntis m, f</i> puer, <i>eri m</i>	bola
patho-, -pathia (<i>pathos</i>)		iztirob, kayfiyat

-paedia (paideia - tarbiya)		davolash usullari
phaco-, -phakia (phakos - yasmiq)	lens, lentis <i>f</i>	gavhar
phlebo- (phleps, phlebos - tomir, vena)	vena, <i>aef</i>	vena
phono-, -phonia (phone - ovoz, tovush)	vox, vocis <i>f</i> sonus, <i>i m</i>	ovozi tovush
sialo-, -sialia (sialon - so'lak)	saliva, <i>aef</i>	so'lak
sphygmo-, -sphygmia	pulsus, <i>us m</i>	puls
scopia (skopeo)		asbob yordamida tekshirish
teno- (tenon - pay)	tendo, <i>inis m</i>	pay
topo- (topos - joy)	locus, <i>i m</i>	joy
toxo-, toxico-, toxi- (toxon - kamon, o'q; toxicon - zahar)	venenum, <i>i n</i>	zahar
-therapia (therapeia)		davolash
uro-, -uresis, -uria (uron - siyidik)	urina, <i>aef</i> urinarius, <i>a, um</i>	siyidik, peshob siyidikka oid

**ORGAN VA TANA QISMLARINING GREKCHA, LOTINCHA,
O'ZBEKCHA DUBLETLARI**

Rasm	Grekcha ma'nosi	Lotincha ma'nosi	O'zbekcha ma'nosi
	kephalo-,cephalo-,-cephalia	caput,itis,n	bosh
	somato-,-soma, (soma,atos)	corpus,oris,n	tana
	osteo- (osteon)	os,osis n	suyak

	stetho-,(stethos)	pectus,oris n thorax,acis m	ko'krak (ko'krak qafasi)
	spondylo- (spondylos)	vertebra,ae f	umurtqa
	cardio-,-cardium (kardia)	cor,cordis n	yurak
	arthro-, (arthron)	articulatio, onis f	bo'g'im
	stomato-, (stoma,stomatos)	os,oris n	og'iz
	glossa-,-glossia (glossa)	lingua,ae, f	til
	rhino- (rhis,rhinos)	nasus,i, m	burun

	odonto- -odontia (odus,odontos)	dens,dentis, m	tish
	poda-,-podia (pus,podos)	pes,pedis m	oyoq
	gon-(gonu)	genu,us, n	tizza
	r(h)achi-, (rhachis)	columna vertebralis	umurtqa pog'onasi
	chelio-,-cheilia (cheilos)	labium,i,n	lab
	urano (uranos)	palatum,i,n (durum)	tanglay
	ul-,ulo- (ulon)	gingiva,ae,f	milk

	melo-(melon)	bucca,ae,f	lunch
	gnatho-,-gnathia (gnathos)	maxilla,ae,f	yuqori jag'
	genia (genus,genyos)	mandibula,ae f	pastki jag'
	genia(geneion)	mentum,i,n	iyak



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

135-mashq. Berilgan AE lardan atamalar yasang va ma'nosini tushuntiring.

Arthro (pathia, graphia, metria, algia), stetho (gramma, scopia, scopus, metria). (stomato, cardio, osteo, arthro) logia (spondylo, acro, glosso, rhachi) odynia.

136-mashq. Atamalarni tarjima qiling.

Osteologia, osteoarthropathia, somatologia, somatoscopia, acralgia, spondylodynia, arthropathia, stomatologia, pathologia, stethometria, cardiographia, hormonotherapya, vasoconstrictio, nosologia, brachialgia, logopathia, spondylographia, rhinologia, periosteum, osteogenus, podalgia,acheiria, chiroscopia, gonalgia, apodia, chirospasmus, macropodia, brachicephalicus, iliofemoralis, lymphonodus, thyreopathicus, thyreoglossus, ischiococcygeus, thyreogenous.

137-mashq. Berilgan atamalarni lotincha yozing.

Ensefalometriya, kardiografiya, spondilodiniya, logopatiya, patogen, artrologiya, stetoskop, elektroterapiya, gonalgiya, osteologiya, xirurgiya.



Uyga vazifa

138-mashq. Iboralarni lotinchaga yozing, termin elementlarni ma'nosini bilib oling.

1. Artropatiya (markaziy nerv sistemasi har xil bo'limlari shikastlanganida paydo bo'ladigan ikkilamchi dektrofik bo'g'im kasalligi).
2. Osteologiya (suyak haqidagi fan).
3. Elektrokardiografiya (yurak ishlab turganida paydo bo'ladigan elektr hodisalarini qayd qilish yo'li bilan yurak holatini aniqlash).
4. Ostalgiya (suyak og'rig'i).
5. Artrozis (bo'g'im kasalligi).
6. Xondroma (tog'aydagi xavfsiz o'sma).

139-mashq. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang.

Tishlarni davolash, ko'krak qafasidagi og'riq, boshni o'lhash, ogizni asbob yordamida tekshirish, burun (devorchalarini) asbob yordamida ko'rish, bosh miyani rentgen yordamida tekshirish, qo'l va oyoq xastaligi, tishlar xastaligi, bosh miya xastaligi, tish og'rig'i, burun xastaligi, bo'g'implar xastaligi, yurak xastaligi, yurak xastaligi bilan bog'liq umurtqa pog'onasidagi og'riq.

140-mashq. Tarjima qiling.

1.Cheilodynja, 2.Ulodynja, 3.Gnatodynja, 4.Genioglossus, 5.Geniohyoideus, 6.Meloplastica, 7.Gnathoplastica, 8.Agenia, 9.Uranographia, 10.Gnathoscopia, 12.Cheilospasmus, 13.Uranoptosis, 14.Syncheilia, 15.Melophatia.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Dum spiro, spero* - Nafas olyapmanki, tirikman.
2. *Historia est magistra vitae* - Tarix - bu hayot o'qituvchisidir
3. *Amocus certus,in re incerta cernitur* - Sodiq do'st og'ir kunda bilinar.



FUNKSIONAL VA PATOLOGIK HOLATLARNI HAMDA JARAYONLARNI IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLARI (AE).

Darsning maqsadi: -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffiksleri terminologik ma'nolarini; yangi yunon-lotin dublet va yakka AE bilib olish.Berilgan ma'noda suffiksli, qo'shma va qisqartma so'zлarni tahlil va hosil qila olish.

Darsning mazmuni: funksional va patologik holatlarni hamda jarayonlarni ifodalovchi yakka atama elementlari quyidagilardan iborat:

Yunon AE	Ma'nosি
-aesthesia-, -aesthesia (<i>aesthesia</i>)	sezish
-astheno (<i>asthenes, asthenos, asthenia</i>)	kuchsizlik, toliqish
-aëro-, (aër, aëros; aér, aëris)	havo
-aetio -(aitia)	aetio -(aitia)
-athero- (<i>athere</i>)	yog'simon modda
-aniso- (<i>anisos - noteng</i>)	noteng, nomutanosib
-allo- (<i>allos - boshqa, o'zga</i>)	boshqa, o'zga, o'zgargan, o'zgacha
-auto- (<i>autos - o'zi</i>)	1) o'z, xususiy; 2) beixtiyor
-bio- (<i>bios</i>)	hayot
-bary-, baro- (<i>barys - og'ir; baros - og'irlik</i>)	1) o'g'ir, og'irlik; vazn; 2) atmosfera bosimi
-bathy-, batho- (<i>bathys - chuqur; bathos - chuqurlik</i>)	chuqur, chuqurlik
-brachy- (<i>brachys - kalta</i>)	kalta, kaltalangan
-brady- (<i>bradys - sekin</i>)	sekin, sekinlashgan
-chloro- (<i>chloros - yashil, sarg'ish yashil</i>)	1) yashil; 2) xlor tutuvchi
-chromo-, chromato-, -chromia (<i>chroma, chromatos - bo'yoq, rang, tus</i>)	1) rang, tus; 2) xromga oid
-cryo- (<i>kryos - muzdek sovuq, ayoz</i>)	sovuj, past harorat, muzlashga oid
-crin-, -crinia (<i>krino</i>)	ajralib chiqish
-cyano- (<i>kyanos - to'q ko'k</i>)	1) to'q ko'k, ko'kargan; 2) sianid kislotaga oid
-cytosis (<i>cytus osis</i>)	hujayra miqdorining ortishi
-dolicho- (<i>dolichos - uzun</i>)	uzun, uzaygan
-dynamo-, -dynamia (<i>dynamis</i>)	kuch
-ergo-, -ergia, -urgia (<i>argon</i>)	faoliyat
-erythro- (<i>erythros - qizil</i>)	1) qizil; 2) eritrositlarga oid
-geno-, -genesis, - genesia, -genia	tug'ilish, rivojlanish
-glyco-, gluco- (<i>glykys - shirin</i>)	shirin; shakar mavjudligi; glukoza
-gnosis, -gnosia	bilish
-kinesia, kinemato-, kinemo-, (kinesis)	harakat
-hemi- (<i>yun.), semi- (lot.)</i>	yarim; bir tomonlama
-hetero- (<i>heteros - boshqa, turli</i>)	ikkisidan biri, boshqa, o'xshamagan
-homeo-, homo- (<i>homoios - o'xshash; homos - xuddi o'sha</i>)	o'xshash, bir xil

-iso- (isos - teng)	teng, mutanosib, bir xil
-lepto- (leptos - nozik, yumshoq, ojiz)	nozik, yumshoq, ojiz; tor
-leuco- (leukos - oq)	1) oq; 2) leykositlarga oid
-macro- (makros - katta)	katta, yirik
-megalo-, -megalia (megas, megalu - katta)	katta, kattalashgan
-melano- (melas, melanos - qora)	1) qora, qoramtir; 2) melanin tutuvchi
-micro- (mikros - kichik)	kichik, kichkina
-morpho-, -morph - (morphe)	tuzilish
-mnesia (mnnesia)	xotira
-necro- (nekros - o'lik, murda)	jonsizlanish; murdaga oid
-neo- (neos - yosh, yangi)	yosh, yangi; qayta yaralgan yoki vujudga kelgan
-oligo- (oligos - kichik, kam)	kichik, ozgina, kamaygan
-ortho- (orthos - to'g'ri)	1) to'g'ri, tik yo'nalgan; 2) normal holatga tegishli
-oxy-, oxia (oxys, oxygenium)	kislorod
-pachy- (pachys - semiz, qalin, zich)	zich, zichlangan, qattiq
-pan-, panto- (pan, pantos - barcha)	barcha, butunlay
-phago-, -phagia (phagein)	yutish
-penia (p4 nia)	yetishmaslik
-phreno-, -phrenia	aql, idrok, es, hush
-phrenico- (nervus phrenicus)	diafragmaga oid
-philo-, -philia (phielo, philia)	moyillik
-phobo-, -phobia (phobos)	qo'rqish
-platy- (platys - yassi)	yassi, yassilangan, keng
-pnoe, -pnoea (pnoe; pnoia)	nafas
-pneumo-, pneumato (pneuma, atos)	organdagi havo, gaz
-plasia (plasis)	shakllanish
-plegia (plege)	falaj'
-po(i)esis, -po(i)et	ishlab chiqarish
-polio- (polios - kulrang)	1) kulrang; 2) bosh miya kulrang moddasiga oid
-poly- (polys - ko'p)	ko'p; meyordan ko'proq
-pseudo- (pseudos - soxta)	soxta, yolg'on
-psycho-, -psychia (psyche)	ruh, ruhi
-pyr-, pyro-, pyreto- (pyr - olov, cho'g';	isitma holati

pyreto - isitma)	
-rhoea (rhoia, rhoe, rheo)	oqish
-rhagia (rhagos, haemorrhagia)	rhagia (rhagos, haemorrhagia)
-spiro- (spiro,spiratum)	nafas olish
-stasis (stasis)	stasis (stasis)
-tachy-, tacho- (tachys - tez; tachos - tezlik)	tez, tez-tez takrorlanadigan
-tele-, teleo-, telo- (tele - uzoq; telos - oxir; teleos - tugallangan)	1) uzoqlashgan (fazoda va vaqtda); 2) oxir, yakun
-tensio (tensio)	gidrostatik bosim
-tono-, -tonia (tonos, tonus)	tonus, bosim
-tropho-, -trophia (tropho)	oziqlanish
-tropo-, -tropia (tropos, trope)	yo‘nalish
-thermo-, -thermia (therme - issiqlik; thermos - issiq)	issiq; haroratga oid
-xantho- (xanthos - sariq)	sariq
-xeno- (xenos - begona)	begona, yet
-xero- (xeros - quruq)	quruq

NB! (Nota Bene!) – Yaxshi Tushun! E’tibor Ber!

1. «pneumo» boshlang‘ich AE i organ nomi bilan birikma holda qo‘llanganda, shu organda havo borligini bildiradi. Agar atamada «graphia» AE i bo‘lsa «pneumo» kontrast rentgenografiya maqsadida organga gaz yuborilishini ifodalaydi. «O‘pka» tushunchasi odatda «pneumon» bilan, ba’zi hollarda esa «pneum» negizi bilan ifodalanadi.

2. «haemo» yoki «haemato» boshlang‘ich AE organ nomi bilan birikmada kelsa, shu organ bo‘shlig‘iga qon quyilishini bildiradi. Bunda organ nomi qoidaga binoan bosh kelishikda suffikssiz qo‘llanadi (haematocolpos). Organ bo‘shlig‘ida suyuqlik yoki yiring to‘planishini ifodalovchi atamalar ham shu yo‘sinda yasaladi (hydrometra --- bachadondasuyuqlik bo‘lishi).



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

141-mashq. Berilgan atamalarni tarkibiy qismlarga ajratib ma’nosini tushuntiring.

Haemolysis, haemotherapia, haemostasis, empyema, haemangioma, haemangiomatosis, haemarthrosis, haematologia, haematoma, haematonephrosis, azotaemia, cholaemia, uraemia, haematuria, urohaematoma, ureteritis, vasoresectio, vasotomia, ectopia, vasoconstrictio, myoma, myoblastus, thymocytus,

Dori moddalariga xalqaro nom beruvchi maxsus qo'mita tomonidan Dorivor moddalarining patentlanmagan xalqaro nomlarini tuzish uchun amal qillinishi lozim bo'lgan asosiy printsiplar ishlab chiqildi.

Bosh prinsiplarga asosan XPN talaffuz qilishda va yozishda oson qaratiladigan bo'lishi kerak. Ular uzun bo'lmasligi yoki umumiy qo'llanishda foydalanim kelinayotgan nomlar bilan adashtirib yuborilmaydigan bo'lishi lozim.

Farmalogik jihatdan yaqin bo'lgan guruhga taalluqli moddalar uchun XPN ushbu taaluqlikni ko'rsatishi lozim.

Dorivor moddalarining patentlanmagan xalqaro nomlari Jahon Sog'liqni

Saqlash Tashkilotining "WHO Drug Information" jurnalida to'rtta tilda quyidagi ketma-ketlikda yoziladi: lotincha, inglizcha, frantsuzcha va ispancha.

Lotincha	Inglizcha	Frantsuzcha	Ispancha
laronidasum	laronidase	laronidase	laronidasa
amotosalenum	amotosalen	amotosalene	amotosaleno

V tipik guruh. Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari. Savdo nomlarida so'zlarning yasalishi.

Savdo nomi (ingl. Trade Name) - bu savdo uchun mo'ljallangan preparat (tayyor dorivor vosita) nomidir.

Ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif qilingan savdo nomi undan foydalanishga rasmiy ruxsatni olishi zarur. Belgilangan rasmiy savdo nomi berilgan dorivor vosita qonunchilikka muvofiq ro'yxatga olingan bo'lishi lozim. Shundan so'ng dorivor vosita unga berilgan savdo nomi ostida Dorivor vositalarning davlat ro'yxatiga kiritiladi.

Savdo nomlarining kelib chiqish manbalari turlicha. Bular bir xil dorivor substantsiyali preparatlarni turli ishlab chiqaruvchilari tomonidan qo'llanadigan umumiy, nopalentlangan nomlar, shuningdek aniq ishlab chiqaruvchi firma tomonidan qo'llanadigan individual firma nomlaridir. Firma nomlari patentlangan va nopalentlangan bo'ladi.

Umumiy savdo nomlarining kelib chiqish manbalari-bu odatda yoki XPN, yoki alohida mamlakat yoki mamlakatlar guruhida qabul qilingan milliy (farmakopeya) nomdir.

Masalan: Diclofenacum (INN): Germaniya, Hindiston, Isroil, Italiya, Makedoniya, Polsha, Jugoslaviyada; Nifedipinum (INN): Angliya, Germaniya, Bolgariya, Polsha, Xorvatiya, Shvesiyada.

Ayrim dorivor vositalarning savdo nomlarida shu preparat to'g'risida axborot beruvchi qadimgi yunon va lotin tilidagi so'z yasovchi qo'shimchalar uchraydi.

Masalan: Venitan (lotincha vena – vena, ko'k tomir)

Pulmex (lotincha pulmo- opka) Anatomik va fiziologik

Prododerm (yunoncha derma - teri) xususiyatlarini ko'rsatish

Febichol (yunoncha chole- ot, safro) uchun

Laxatin (lot. laxativum-surgi,ich suradigan)

Allergodil - allergiyaga qarshi

Orto-gynest (yunoncha gyne-ayol)-estrogen Farmakoterapevtik ta'sirini

Antithrombinum (yunoncha thrombos-quyuq- ko'rsatish uchun lashish, ivish)-qon ivishiga qarshi vositalar

Senade (lot.Senna-sano)- sano o'simligidan tayyorlangan preparat

SAVDO NOMLARIDA SO'ZLARNING YASALISHI.

Savdo nomlari mavjud bo'lgan so'z yasash qoidalari va modellaridan farqli ravishda so'z yasashning ma'lum qoidalariiga aniq amal qilmasdan shakllanadi. Shunga qaramasdan, so'z yasashning ba'zi usullarini savdo nomlarini berish amaliyotida uchratish mumkin.

1. Asos yoki so'z qo'shish - asos yoki so'zlar birikmasi, ko'pincha biror bir oxirgi bo'g'inni qo'shish orqali yasaladi. Asos odatda interfiks yordamida birlashadi, ya'ni birlashtiruvchi unli **-o-**, kam hollarda **-i-**, yoki **-a-**.

Masalan: Valocordinum (lot. *valeo* -sog' bo'lish + **-o-** + *cor* , *cordis*-yurak)-Valokordin, Myelosanum (yunoncha *myelos*- miya+ lot. *sano*-davolash)-Miyelosan.

2. Abbreviatsiya (lot. *abbrevio*-qisqartirmoq) - dastlabki so'z element-larini qo'shish yoli bilan qisqartma so'z (abbreviaturalar) hosil bo'l shidir.

Masalan: Calciparinum – *Calci* um + *Heparinum*, Corinfar - *cor*(lot.) - yurak + *infarctus* – infarct

3. Suffiksatsiya - suffiksning asosga biror bir ma'no keltirib chiqarish uchun birlashishidir.

Savdo nomlarida quyidagi suffikslar ko'p qollaniladi:

-in – suffiksi ko'pincha kimyoiy mazmundagi asoslarga qo'shiladi: Clophelinum- Klofelin, Ditrazinum-Ditrazin, Isadrinum-Izadrin.

Savdo nomenklaturasida **-in**-suffiksi maxsus ma'noga ega emas.

Masalan: Fungilin, Fulcin, Octadin.

Boshqa suffikslar:

- ❖ **-al-** Abaktal, Almiral, Bronal
- ❖ **-ol-** Aloprol, Asectol, Dopanol
- ❖ **-el-** Dicetel, Divigel, Quamatel
- ❖ **-an-** Advantan, Domenan, Vistagan
- ❖ **-on-** Gutron, Haemiton, Dexason
- ❖ **-en-** Voltaren, Dilren, Vaskoten
- ❖ **-il-**, **-yl-** Retabolil, Donormil, Biacodyl, Amaryl
- ❖ **-ax-, -ex-, -ix-, -ox-** va h.k.

4. Prefiksatsiya- so'z o'zagi (asosi) ga prefikslar (old qo'shimchalar) qo'shilishi.

Ayrim hollarda savdo nomlarida lotin-yunon prefikslari uchrab, ular kasallik yoki uning sababi, yoki kasallik qo'zgatuvchisini bildiradigan o'zak (asos) lar bilan muvofiqlashgan bo'ladi, hamda ularni bartaraf qilish harakatlarini ko'rsatadi:

- ❖ **anti-**, **contra-** - qarshi;
- ❖ **a-**, **an-** - inkor etish;
- ❖ **de(s)-** - dan.

Masalan: Antithrombinum (*anti* + yunoncha *thrombos*- quyqa+ **in**) - Antitrombin- ivishga qarshi

Contraspasminum (**contra** + yunoncha *spasmos*- tomir tortishish, spazm + **in**-)

Kontraspazmin – bronxlarni kengaytiruvchi

Abaktal (*a + bacterium + al*) - Abaktal - antibacterial

Decaris (*de + ascaris* -askarida) - Dekaris - gijjalarga qarshi

Savdo nomlarida preparatlarning samaradorligini takidlaydigan prefikslar ham uchraydi.

Masalan:

- ❖ *super-, supra-(lot.)* – ziyod
- ❖ *ultra-* - oortiq, ziyod
- ❖ *eu-(yunoncha)*- yaxshi

Suprastin (*supra* + yunoncha *asthma*, *asthmatic*- bog‘ilish, astma+ *in*)- Suprastin – astmaga qarshi, allergiyaga qarshi

Ultraproct (*ultra+* yunoncha *proctos*-orqa chiqaruv teshigi)-Ultraprokt-bavosilni davolash uchun

Eunoctin (*eu* + lot. *nox, noctis*- tun)- Eunoktin - uyqu dori.

MURAKKAB DORIVOR PREPARATLARNING NOMLANISHI.

Murakkab dorivor preparatlari ikki yoki undan ortiq dorivor moddalardan iborat bo‘ladi va ma’lum dori shaklida (tabletalar, shamcha, surtma) ishlab chiqariladi.

Murakkab preparatlarning nomi abbreviaturadan iborat bo‘lib, hamma yoki ba’zi ingrediyentlarning nomidan ixtiyoriy ajratib olingan bo‘laklardan tashkil topadi.

Masalan: “**Pyrcophenum**” abbreviaturasi *pyr+co+phen(um)* o‘laklardan tashkil topgan. Bu bo‘laklar *Amidopyrinum*, *Coffeinum*, *Phenacetinum* kabi preparatlari nomidan ajratib olingan. Odatda bunday shartli nom dori shaklining ma’lum ko‘rishiga biriktirib qo‘yiladi va qo‘shtirmoq ichiga **Nominativus Singularisda** yoziladi: tabulettas “*Pyrcophenum*”, suppositoria “*Bethiolum*”, dragees “*Undevitum*”. Murakkab tarkibli tabletalar va shamchalar uchun «tabletalar» va «shamchalar» so‘zleri retseptda **Accusativus Pluralisda** yoziladi:

Masalan: Recipe: Tabulettas “*Pyrcophenum*” numero 10.

Recipe: Suppositoria “*Anusolum*” numero 20.

Tabuletalar bitta ta’sir etuvchi moddadan iborat bo‘lsa, dori shaklidan keyin qaratqich kelishigida yoziladi:

Masalan: Recipe: Tabulettae Cordigit 0,0008

Shamchalar bitta ta’sir etuvchi moddadan iborat bo‘lsa uning nomi dori shakliga *cum* predlogi bilan Ablativusda yoziladi.

1. Tarkibiy qismlar taxminan anatomik, fiziologik va terapeutik xarakterdagи axborotni berishi mumkin.

LOTINCHA	O'ZBEKCHA	MA'NOSI
cor-, card-	-kor-, -kard-	yurakka ta'sir etuvchi, yurak tonusiga ta'sir etuvchi, toj tomirlarni kengaytiruvchi
-vas-, -angi-	-vaz-, -angi-	qon tomirlarni kengaytiruvchi, spazmolitik
-sept-	-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik
-dol-, -alg-	-dol-, -alg-	og'riqsizlantiruvchi, analgetik
-pres (s)-, -ten(s)-	-pres (s)-, -ten	qon bosimini tushiruvchi
-sed-	-sed-	tinchlantiruvchi, sedativ
-pyr-	-pir-	Haroratni tushiruvchi, antipiretik
-aesthes-	-estez-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik
-test-, -vir-	-test-, -vir-	erkak jinsiy gormonlaridan tayyorlangan
-andr-	-andr-	androgen
-thyrr-	-tir-	qalqonsimon bez faoliyatiga'sir etuvchi
-myco-	-miko-	zamburug'larga qarshi
-chol-	-xol-	o't haydovchi
-cid- (lot. occidere - o'ldirmoq)	-sid-	mikrobg'a qarshi

Masalan: Corvalolum, Cardiovalenum, Valosedan, Apressinum, Angiotensinamidum, Promedolum, Sedalgin, Antipyrinum, Anaesthesiaenum, Testosteronum, Agovirin, Androfort, Thyrotropinum, Cholosasum, Streptocidum, Mycoseptinum, Enteroseptolum.

2. Farmakologik axborot beruvchi tarkibiy qismlari:

Lotincha	O'zbekcha	Farmakologiyaga mansubligi
-sulfa-	-sulfa-	Antimikrob sulfanilamidlar
-illin-	-sillin-	Antibiotik penitsillinlar
-mycin-	-misin-	Mikrobg'a qarshi antibiotiklar, Streptomyces va boshqa zamburug'shtammalaridan olinadigan mikrobg'a qarshi.
-cyclin-	-siklin-	Tetratsiklin hosilalari antibiotiklar
-barb-	-barb-	Uxlatuvchi — barbituratlar, barbiturat kislota hosilalari

-cain-	-kain-	Mahalliy og'riq qoldiruvchi
-cort-	-kort-	Kortikosteroidlar — buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari va ularning sintetik analoglari
-oestr-	-estr-	Estrogenlar — ayol jinsiy gormonlari va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar
-andr- -ster-	-andr- -ster-	Androgen steroidlar — erkak jinsiy gormonlari va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar

Masalan: Sulfadimezinum, Penicillinum, Streptomycinum, Tetracyclinum, Barbamylum, Novocainum, Corticotropinum, Oestradiolum, Methandrostenolonum.

ESLAB QOLING!

Dragee (birlik), dragees (ko'plik)- draje (turlanmaydi)

Ginseng - jenshen (turlanmaydi)

Da tales doses Numero. - Shunday dozalarda. (son)ta ber.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

162-mashq. Quyidagi dorivor preparatlari nomini *Nominativus Singularis* va *Genetivus Singularis*da lotiga tiliga tarjima qiling.

Amidopirin, dermatol, novokain, kodein, fenobarbital, dibazol, rezerpin, etazol, kofein.

163-mashq. Quyidagi otlarning rodini va kelishigini aniqlang.

- | | |
|-----------------|--------------|
| 1) succi | 5) tincturae |
| 2) bolus | 6) aquarum |
| 3) crystallorum | 7) glucosa |
| 4) folia | 8) amyrum |

164-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Pasta Lassari, liquor Kastelliani, solutio Lugoli, species Zdrenko, balsamum Schostakovskiy, solutio Ringer-Locke, tinctura Petrovi, unguentum Koncovi, unguentum Wilkinsoni.

165-mashq. Quyidagi dorivor preparatlarning nomini *Gen. Sing.*da yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

Tetracyclinum, Flaminum, Riboxinum, Phytinum, Iodum, Trypsinum, Dimoestrolum, Myelosanum, Olivomycinum, Piperazinum, Cytarabinum, Ergotaminum.

166-mashq. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Depridol, Algolysin, Bicillinum, Lanocordalum, Furacilinum, Ferrocalum, Viprosalum, Pyromecainum, Cardigin, Anginal, Capresin, Dibazolum, Phenoxyethylpenicillium, Sovcainum, Tenormal, Anacardiol, Hexenalum, Barbamylum, Somnafin, Conferon, Tetracyclinum, Streptomycinum, Carminomycinum, Chendal, Valocormidum, Phenaminura, Methindionum, Napnthyzinum, Analginum, Novocainum, Norsulfazolum, Europlast, Dicainum, Cordalen, Presinol, Vasocil, Methicillinum, Valocordin, Diazolinum, Vasculat, Tetracor, Apressinum, Xycainum, Sulfamonomethoxinum, Dolgit, Barbenyl, Cardiazol, Furosemidum, Vasolanum.



Uyga vazifa

167-mashq. Dori vositalari nomidagi sizga ma'lum tarkibiy qismlarni belgilang, ma'nosini tushuntiring:

A. Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcolysinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolum, Mammophysinum, Oestronum, Erythromycinum, Aëvitum, Valosedan, Diiodthyrosinum, Polyoestradiolum, Pharyngosept, Adriamycinum, Mycoseptin, Chinocidum, Chlorophthalum, Methicillinum, Kanamycinum, Cholosasum.

B. Rifamycinum, Novurit, Sulfazinum, Pantocidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolum, Urodanum, Adrenalinum seu Epinephrinum, Gonadotropinum, Somatotropinum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Interodesum, Haemophobinum, Panangin, Quadevitum.

C. Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Phenobarbitalum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycetin, Mycoheptinum, Melosanum, Glycerinum, Glucosum, Asthmaatinum, Anaesthesiainum, Hydrocortisonum.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Fortes fortuna adiuvat* - Jasur kishilarga taqdir yordam beradi.
2. *Getta cavat lapidem non vi, sed saepe cadendo* - Tomchi kuchi bilan qurmas, tez tushishi bilan tosh teshar.
3. *Higena amica valetudinis.* - Ozodalik sog'liqning garovidir.



FE'L. FE'LNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI. RETSEPTURA.

Darsning maqsadi: Buyruq mayli birlik shakli hamda III shaxs istak mayli birlik va ko‘plik shakllarini hosil qilish qoidalarini; fe’lli retseptura formulirovkalari bilib olish. Fe'l negizini topish va uning tuslanishini aniqlashni; buyruq va istak mayllarining ba’zi shakllarini hosil qilish va tarjima qila olish.

Darsning mazmuni: Predmetning harakatini bildirib nima qildi? nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlariga javob beradigan so‘z turkumi *fe'l deb* ataladi. Lotin tilida fe’llar shaxs, son va zamonda o‘zgaradi. Fe’l 3 ta shaxs, 2 ta son (birlik va ko‘plik), 6 ta zamon, 4 ta mayl va 4 ta tuslanishga ega:

Fe’llar predmetning ish harakatini ifodalaydi. Lotin tilida fe’llar 5 ta grammatic kategoriyaga ega:

- ❖ *Zamon kategoriyasi - Tempus*
- ❖ *Son kategoriyasi - Numerus*
- ❖ *Shaxs kategoriyasi - Persona*
- ❖ *Mayl kategoriyasi - Modus*
- ❖ *Nisbat kategoriyasi - Genus*

Zamon kategoriyasi 2 ta katta guruhgaga bo‘linadi:

I. Tugallanmagan ish-harakatni ifodalovchi -**Infect** zamonlari. Bularga :

- 1) *Praesens* - Hozirgi zamon
- 2) *Imperfectum* - Tugallanmagan o‘tgan zamon

3) *Futurum primum* - Kelasi birinchi zamon

II. Tugallangan ish-harakatni ifodalovchi - Perfect zamонлари. Bu zamонларга :

1) *Perfectum* - Tugallangan o'tgan zamon

2) *Plusquam perfectum* - Uzoq o'tgan zamon

3) *Futurum secundum* - Kelasi ikkinchi zamon

Son kategoriyasi ham ikkiga bo'linadi :

❖ *Singularis* - birlik son

❖ *Pluralis* - ko'plik son

Shaxs kategoriyasi ham 3 ga bo'linadi :

❖ *Persona prima* - birinchi shaxs

❖ *Persona secunda* - ikkinchi shaxs

❖ *Persona tertia* - uchinchi shaxs

Mayl kategoriyasi 3 ga bo'linadi:

❖ *Modus Indicativus* - aniqlik mayli

❖ *Modus Imperativus* - buyruq mayli

❖ *Modus Conjunctionus* - shart mayli

Nisbat kategoriyasi ham 2 ga bo'linadi :

❖ *Genus actorum* - aniqlik nisbati

❖ *Genus passorum* - majhullik nisbati

Lotin tili fe'llari quyidagi turlarga bo'linadi. Qonun bo'yicha fe'llar negizdagи oxirgi unlige qarab 4 ta tuslanish turiga bo'linadi:

I. - *a* - amare - sevmoq

II. - *e* - monere - ishontirmoq

III a.- *e* - mittēre - jo'natmoq

III b. - *e* - capēre - olmoq

IV - *i* - audore - eshitmoq

Fe'llarning noaniq formasidan -*re*- qo'shimchasi olib tashlansa fe'llarning negizi hosil bo'ladi.

Masalan: laborare – ishlamoq- *re* - labora - ishla

videre - ko'rmoq - *re* - vide - ko'r

legēre - o'qimoq - *re* - legē - o'qi

capēre - olmoq - *re* - capi - ol

dormore - uxlamoq - *re* - dormo - uxla

Fe'lllar 4 ta formaga ega :

1. Praesens indicativi activi

2. Perfectum indicativi activi

3. Supinum

4. Infinitif

Masalan: orno, ornavi, ornatum, ornare- bezatmoq

video, vido vosum, videre - ko'rmfq

lēgo, legi, lectum, legēre - o'qimoq

fecio, feci, fectum, facēre - bajarmoq

audoo, audovi, audotum, audore - eshitmoq

Lug'atlarda fe'llarning 4 asosiy formasi ham shunday beriladi.

Fe'llar zamonlarda tuslanganda aniq va majhul nisbatning quyidagi shaxson qo'shimchalari qo'shiladi:

Genus activum			Genus passivum	
	sing.	plur.	sing.	plur.
I	o- m	mus	or-r	mur
II	s	tis	ris	mīni
III	t	nt	tur	ntur

BUYRUQ MAYLI (Imperativ)

Retsepturada buyruq mayli birlikda ishlatalidi xolos. I, II, IV tuslanishlarda fe'lning buyruq mayli negizi bilan mos tushadi. III tuslanishdagi fe'lning negiziga unli «e» qo'shiladi.

Jadvalga e'tibor bering:

Lug'at shakli	Negiz	Buyruq mayli (birlik)	Tarjima
signo, are 1	signa	signa	belgila
misceo, ere 2	misce	misce	aralashtir
recipio, ere 3	recip	recipe	ol
audio, ire 4	audi	audi	eshit

Buyruq maylida ko'p ishlariladigan so'zlar:

Misce. Da. Signa. - Aralashtir. Ber. Belgila.

Sterilisa. - Sterilizatsiya qil.

Repete - Takrorla.

Da tales doses. - Shunday dozalanda ber.

Adde. - Qo'sh.

SHART MAYLI (*Conjunctovus*)

Shart mayli fe'l negizini o'zgartirish bilan yasaladi: I tuslanishda «а» «е» ga o'zgaradi. II, III, IV tuslanishlarda negizga «а» qo'shiladi.

Fe'lning ma'nosi	Lug'atshakli	Negiz	O'zgargan shakli
belgilamoq	signo, are 1	signa	signe
aralashtirmoq	misceo, ere 2	Misce	miscea
takrorlamoq	repeto, ere 2	Repet	repeta
tinglamoq	audio, ire 4	Audi	audia

Shart maylida ko'p ishlariladigan so'zlar:

Misceatur.	-	Aralashtirilsin.
Detur.	-	Berilsin.
Signetur.	-	Belgilansin.
Sterilisetur.	-	Sterilizatsiya qilinsin.
Repetatur.	-	Takrorlansin.
Dentur tales doses.	-	Shunday dozalarda berilsin.

Retseptura — bu dorilarni yozish va tayyorlash qoidalarini o'rganuvchi fan.
Retsept va uning asosiy qismлari

Retsept - shifokorning dori tayyorlash kerakligi to'g'risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi.

Retsept so'zi «receptum» - «олинган» so'zidan kelib chiqqan. Retsept rasmiy hujjat bo'lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergen dorishunos ham retseptning to'g'riliqi uchun yuridik jihatdan javobgardir.

SHART MAYLINING RETSEPTDA QO'LLANILISHI

Retseptda lotin tilida ko'p ma'no beruvchi faqat bitta shart maylining ish harakatiga undash, buyurish ma'nolari ishlatiladi. Retseptda qo'llaniladigan buyruq maylining na'munalari:

Da – ber **Misce** – aralashtir **Signa** – belgila

Recipe – ol·**Addе** – qo'sh **Repete** – takrorla

Verte – ag'dar **Sterilisa** – qaynatib tozala **Consperge** – sep

Shart maylining shakli ikki xil tarjima qilinadi:

1. Fe'l bilan **bo'lsin** so'zi birgalikda

2. Fe'lning noaniq formasi

Aralashtirilgan bo'lsin Aralashtirilsin.

Berilgan bo'lsin! Berilsin.

Faqat 3 shaxs birlik yoki ko‘plikda ishlatalib birlikda fe’l negiziga -tur, ko‘plikda –ntur qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Fio, fieri fe’li – birlikda – t, ko‘plikda –nt qo‘shimchalariga ega bo‘ladi.

Retseptda qo‘llaniladigan shart maylining na’munalari

1. **Detur** – Berilsin. Berilgan bo‘lsin.
2. **Misceatur** – Aralashtirilsin. Aralashtirilgan bo‘lsin.
3. **Signetur** – Belgilansin. Belgilangan bo‘lsin.
4. **Repetatur** – Takrorlansin. Takrorlangan bo‘lsin .
5. **Sterilisetur** – Qaynatib tozalansin. Qaynatib tozalangan bo‘lsin
6. **Dentur tales doses** – Shunday doza berilsin. Shunday doza berilgan bo‘lsin

Retseptda **fio,eri fe’li** bilan qo‘llaniladigan shakllar:

- ❖ **Misce, fiat pulvis** – Kukun hosil bo‘lgancha aralashtir.
- ❖ **Misce, fiat unguentum** – Maz hosil bo‘lgancha aralashtir.
- ❖ **Misce, fiat linimentum** – Liniment hosil bo‘lgancha aralashtir .
- ❖ **Misce, fiat pasta** – Pasta hosil bo‘lgancha aralashtir.
- ❖ **Misce, fiat emulsum** – Emulsiya hosil bo‘lgancha aralashtir.
- ❖ **Misce, fiat suppositorium** – Shamcha hosil bo‘lgancha aralashtir .
- ❖ **Misce, fiat suppositorium vaginalis** – Qinli shamcha hosil bo‘lgancha aralashtir
- ❖ **Misce, fiant pilulae** – Aralashtirib, hab dori tayyorlansin.
- ❖ **Misce, fiant species** – Aralashtirib, yig‘ma hosil qilinsin.

fio, fieri Fe’lining retsepturaformulirovkalari.

fio, fieri fe’li o‘zbek tiliga «hosil bo‘lmoq» deb tarjima qilinadi. Uning shart mayli quyidagicha hosil bo‘ladi. «fi» negiziga suf. «a» qo‘shiladi va 3 shaxs birlikda fiat shakliga ega bo‘ladi, 3 shaxs ko‘plikda fiant shakligaega.

Birlik

- | | |
|---|---|
| Misce, fiat pulvis. | - Aralashtir, kukun hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat unguentum. | - Aralashtir, surtma (maz) hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat linimentum. | - Aralashtir, liniment hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat pasta. | - Aralashtir, pasta hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat emulsum. | - Aralashtir, emulsiya hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat suppositorium. | - Aralashtir, sham hosil bo‘lsin. |
| Misce, fiat suppositorium vaginalis. | - Aralashtir, vaginal shamcha hosil |
| | bo‘lsin. |

NB! (Nota Bene!) – Yaxshi tushun! E’tibor ber!.

Bu formulirovkalarda Misce — Aralashtir fe’li buyruq maylida birlikda berilgan, shart maylida qo’llanmaydi.



1 Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

168-mashq. Berilgan fe’llarning buyruq va shart maylini hosil qiling:

Belgilamoq, tozalamoq, bermoq, davolamoq, aralashtirmoq, qo’llamoq, takrorlamoq, yashamoq, sog’lom bo‘lmoq, eshitmoq, oziqlanmoq.

169-mashq. Atamalarни tarjima qiling.

Kseroform surtmasi, dibazol tabletkalari, yalpiz tindirmasi, papaverin eritmasi, yalpiz barglarining damlamasi, adrenalin eritmasi, qalampir yalpiz moyi, amidopirin donachalari, ixtiol surtmasi, evkalipt barglarining dam- lamasi, sulfadimezin tabletkalari, evkalipt moyi, kanakunjut moyining emulsiyasi, novshadil spirti.

170-mashq. Retseptlarda qo’llaniladigan quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. 1,5 ml kanakunjut moyidan qo’sh.
2. 30,0 xloroform surtmasini ol.
3. 10 ml marvaridgul tindirmasini va 15 ml. valeriana indirmasini aralashtir.
4. 3 ml qalampir yalpiz moyidan qo’sh.
5. 25,0 sintomitsin linimentidan ber.
6. Kanakunjut moyining emulsiyasini ol.
7. 10 ml adrenalin eritmasidan ber.
8. 20 ml kanakunjut moyini sterilizatsiya qil.



Uyga vazifa

171-mashq. Fe’llarni turlanishi va asosini aniqlang

Legere – o’qimoq, sterilisare – qaynatib tozalamoq, recipere – olmoq, diluere – qo’shmoq, valere – sog’ bo‘lmoq, munire – himoya qilmoq, coquere – qaynotmoq, laborare – ishlamoq, obducere – parda bilan qoplamoq.

172-mashq. Buyruq maylini hosil qiling.

conspergere – sepmoq, signare – belgilamoq, studere – o’qimoq, extrahere – chiqarmoq, colare – suzmoq, sezmoq, solvere – eritmoq, miscere – aralashtirmoq, addere – qo’shmoq, finire – tugatmoq, vertere – ag’darmoq.

173-mashq. Fe’llardan lotin tilida buyruq va shart mayllarini hosil qiling.

belgilamoq, sterillamoq, bermoq, davolamoq, aralashtirmoq, qo’llamoq,

qaytarmoq, yashamoq, sog‘ bo‘lmoq, tugatmoq, eshitmoq, oziqlantirmoq.

174-mashq. Retseptlarda qo‘llaniladigan quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. Dibazol va papaverin berilsin.
2. Shamchaldardan 6 dona berilsin.
3. Evkalipt moyi berilsin.
4. Amidopirin eritmasi berilsin.
5. Valeriana ildizining damlamasi berilsin.
6. Novokain eritmasi sterilizatsiya qilinsin.
7. Surtma (maz) takrorlansin.
8. Ekstrakt berilsin.
9. Vaginal shamchalar berilsin.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Natura sanat, medicus curat morbos* - Shifokor davolaydi, tabiat sog‘aytiradi.
2. *Nihil est tam populare, quam bonitas* - Xalq yahshilikni yuksak qadrlaydi.
3. *Nil desperandum* - Hech qachon umidsiz bo‘lma



Nazorat uchun savollar.

1. Lotin tilida shart va buyruq mayillari qanday?
2. Yig‘malar yozilganda qanday ibora ishlataladi?
3. Misce. Da. Signa. Shart mayilda qanday bo‘ladi?
4. Accusativus qanday kelishik?
5. Retseptura iboralari qanday?
6. Fe’l nechta tuslanishga ega?
7. Fe’lda nechta mayl bor?

Leksik minimum

Fe’llar

addo, ere 3	- qo‘shmoq	audio, ire 4	- eshitmoq
curo, are 1	- davolamoq	do, dare 1	- bermoq
finio, ire 4	- tugatmoq	misceo, ere 2	- aralashtirmoq
recipio, ere 3	- olmoq	repeto, ere 3	- qaytarmoq
signo, are 1	- belgilamoq	steriliso, are 1	- sterillamoq
verto, ere 3	- burmoq salveo,		
valeo, ere 2	- sog‘ bo‘lmoq, kuchli bo‘lmoq, xayrashmoq		

Dorivor o’simliklar

Convallaria, ae f - marvaridgul

Eucalyptus, i f	- evkalipt
Mentha (ae f) piperita (us, a, um)	- qalampir yalpiz
Salvia, ae f	- mavrak
Valeriana, ae f	- valeriana


Dorivor moddalar

Adrenalinum, i n	- adrenalin
Amidopyrinum, i n	- amidopirin
Dibazolum, i n	- dibazol
Ichtyolum, i n	- ixtiol
Norsulfazolum, i n	- norsulfazol
Novocainum, i n	- novokain
Oleum (i n) Ricini (us, i m)	- kanakunjut moyi
Papaverinum, i n	- papaverin
Sulfadimezinum, i n	- sulfadimezin
Synthomycinum, i n	- sintomitsin
Xeroformium, i n	- kseroform
Solutio Ammonii (um, i n) caustici (us, a, um)	- ammiak eritmasi, novshadil

spiriti

Boshqa so‘zlar

rectificatus, a, um	- tozalangan
spiritus, us m	- spirt
spirituosus, a, um	- spirtli



RETSEPT STRUKTURASI.

Darsning maqsad: Retsept yozib berish asosiy qoidalarini bilib olish; retseptdagи lotincha qismni rasmiylashtira olish.

Darsning mazmuni: Retsept bu shifokorning dori tayyorlash, tayyorlangan dorini qabul qilish usullari ko‘rsatmasi va davolash uchun bemorga berish kerakligi to‘g‘risidagi dorixonaga xat orqali murojjaat qilishi. “Retsept” so‘zi/lot. Receptum, i, n/ lotin tilidagi reciperi-olmoq fe’lidan yasalgan.

Retsept aniq va tushunarli siyoh rangda yoki ruchkada barcha ko‘rsatilgan qoidaga asosan yoziladi. Retsept varaqasini to‘g‘rilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

RETSEPT TUZILISHI

Har bir retsept 9 qismga bo‘linadi:

1. *Inscriptio* – davolash muassasasini manzili va telefon raqami

2. *Datum* – retsept yozilgan kun, oy, yil
3. *Nomen aegroti* – bemorning ismi va sharifi
4. *Aestas aegroti* – bemorning yoshi
5. *Nomen medici* – shifokorning ismi va sharifi
6. *Designatio materiarum* – dorining nomi va miqdori
7. *Subscriptio* – dorixona xodimiga dori tayyorlash to‘g‘risida ko‘rsatma
8. *Signatura* – belgilansin. Har doim lotin tilidagi **Signa /Signetur/** belgilansin, belgilangan bo‘lsin fe‘li bilan bog‘lanib, undan so‘ng rus tilida yoki o‘zbek tilida bemorga dorini qabul qilish usuli haqida ko‘rsatma beriladi.
9. *Nomen et sigillum medici personale* – shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.

Retsept varaqasining orqa tomoni

Shifokorga eslatma

- davolash-profilaktika muassasasining shartli belgisi bosmoxona usulida bosiladi yoki to‘rtburchak muhr qo‘yiladi;
- retsept lotin tilida tushunarli qilib, aniq harflar bilan siyohda yoki sharikli ruchkada yoziladi, retseptni tuzatish man etiladi;
- bir retsept varaqasida tarkibida zaharli yoki nasha moddasi bo‘lgan bitta dori yoki ikkita oddiy va kuchli ta‘sir etuvchi dori bo‘lishi mumkin;
- faqat qabul qilingan qistqartma otlarning shartli belgisi yozilishi kerak;
- qattiq va sochiluvchan moddalar – grammlarda (0,1; 0,001; 1,0), suyuqliklar - millilitrlarda , grammlarda va tomchilarda yozilishi kerak;
- dorini qabul qilish usuli bemor tushunadigan tilda yozilishi kerak, ichki, ma’lum kabi umumiyo ko‘rsatmalar bilan cheklanish mumkin emas;
- retsept shifokorning imzosi, shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

RETSEPTNI YOZISH QOIDASI

Retseptni yozishdan oldin quyidagi qoidalarni bilish kerak:

1. Bitta retsept varaqasida faqat bitta dorining nomi yoziladi va ayrim holatlarda ikki dori turini yozish mumkin.
2. Dorini tezlik bilan tayyorlash yoki berish kerak bo‘lsa retsept varaqasining yuqori qismiga:

Cito – Tez! Tezlik bilan

Statim – Darhol so‘zlarini yoziladi.

Retseptning 9 qismidan 6-7-si, 8-qismining birinchi so‘zi lotin tilida yoziladi. Retseptning 6-asosiy qismi shartli belgi *Rp: /Recipe –ol/-recipere* – olmoq fe‘lining buyruq mayli 3-shahs birlik sonidagi formasi bilan boshlanadi. So‘ngra bosh harf bilan dori nomi (qaratgich kelishigida) yoziladi, keyin miqdor ko‘rsatiladi

Qancha? Nimadan?

Recipe: Ol:	Dori moddasining nomi qaratqich kelishikda	Accusativus Tushum kelishikda
----------------	--	----------------------------------

Nimadan?

Retseptni quyidagi qoidalar yordamida yozish kerak.

1. Har bir dori moddasining nomi yangi satrdan yoziladi
2. Har bir qator bosh harf bilan boshlanadi.
3. Dori moddani yoki o'simlikning nomi ham bosh harfda yoziladi.
4. Har bir modda nomi qaratqich kelishigida yoziladi
5. Qattiq va sochiluvchan moddalar miqdori grammrlarda, suyuqliklar millilitrlarda arab raqamlari bilan /5,0; 0,5; 0,05/, tomchilar esa rim raqamlari bilan so'zdan so'ng "tomchi" chiqish kelishigida turadi.

1,0 – gramm

0,1 – detsigramm

0,01 – santigramm

0,001 – milligramm

0,0001 - detsimilligramm

0,00001 – santimilligramm

0,000001 – mikrogramm

guttam I – bir tomchi

guttas II – ikki tomchi

Dori moddalarning biologik ta'sir birligi qisqacha **BT** shaklida, soni esa arab raqamlari bilan birliklar, mingliklar, milionlarda belgilanadi

6. Agar ikki dori moddasining miqdori teng bo'lsa, belgi ana teng miqdori ko'rsatiladi.

7. Agar dori moddasi / tabletka, shamcha/ standart holatda yoziladi. Bu vaqtida birinchi o'rinda dori shaklining nomi **Accusativus pluralis** / tushun kelishigi ko'plik/da so'ngra preparat nomi **Nominativus** yoki **Ablativus cum predlogi** bilan va doza miqdori / numero 6; 10 va boshqalar/ ko'rsatiladi.

• Recipe: Tabulettas "Besaolum" numero 6.

Recipe: Suppositoria cum Glycerino numero 12.

Bu yerda doza ham ko'rsatilishi mumkin.

Recipe: Lamellas ophthalmicas cum Neomycino sylfate numero 30

Recipe: Tabulettas Bromcamphorae 0,15 numero 10

Designatio materiarum ni ikki holatda yozish mumkin.

1) Barcha dori shakllarini ifoda etayotganda ularni sonini keng ma'noda yozish.

2) Aniqlovchini nomlanishi murakkab tartibga ega uning tarkiblari faqat

qisqartma holatda ifoda etiladi.

Retseptning yettinchi qismida shifokor dorishunosga dori moddalariga qanday ishlov berish /aralashdirib, tozalab/, dori moddasiga qanday shakl berish/kukun, maz, hab dori/, qanday miqdorda/tabletka, pilyula, ampula/da va so'ogra dorilarni qanday narsaga o'rab yoki solib/qog'ozga, qora rangli shishachada/ berishligi haqidagi kerakli ko'rsatmalar beradi.

8. shartli qisqartirilgan S harfi bilan boshlanadi (**Signa** – belgila, ya'ni bu **Signare** belgilamoq fe'lining buyruq maylining 3 shaxs birlik sonidir, yoki shart maylining **Singnetur** – belgilansin). Bu qism rus tilida yoki ona tilida bemorga shifokor dori miqdori, vaqt, dorini qanday usulda qabul qilish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Signa: 15 tomchidan kuniga ikki marta ovqatdan yarim soat oldin.

Signa: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

175-mashq. Terminlarni lotin tiliga tarjima qiling.

Kseroform malhami, dibazol tabletkalar, yalpiz tindirmasi, papaverin eritmasi, yalpiz barglari damlamasi, mavrak barglari damlamasi, adrenalin eritmasi, qalampir yalpiz moyi, amidopirin granululari, ixtiol malhami, evkalipt barglari damlamasi, sulfadimezin tabletkalar, evkalipt moyi, kanakunjut moyining emulsiyasi, novshadil spriti.

176-mashq. Gaplarni lotin tiliga tarjima qiling:

- | | |
|--|---|
| 1) 5 ml kanakunjut moyi qo'sh. | 2) 30,0 kseroform malhami ol. |
| 3) 3 ml qalampir yalpiz moyi qo'sh. | 4) 25,0 sintomitsin surtmasi ber. |
| 5) 20,0 kanakunjut moyi emulsiyasi ol. | 6) 10 ml adrenalin eritmasi ber. |
| 7) 10 ml marvaridgul tindirmasi va
15 ml valeriana tindirmasini aralashdir. | 8) 20 ml kanakunjut moyini sterilla.
9) Salom; xayr. |

177-mashq. Gaplarni lotin tiliga tarjima qiling:

- | | |
|---|------------------------------------|
| 2) dibazol va papaverin berilsin. | 2) 6 dona shamcha berilsin. |
| 3) evkalipt moyi berilsin. | 4) amidopirin eritmasi berilsin. |
| 5) valeriana ildizi damlamasi berilsin. | 6) novokain eritmasi sterillansin. |
| 7) malham qaytarilsin. | 8) ekstrakt berilsin! |
| 9) qin shamchalari berilsin! | |

178-mashq. Retseptni o'qing va tarjima qiling

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml

Signa: 15 tomchidan kuniga 2-3 marta

2. Recipe: Tabuletas Monomycini 0,05 numero 20

Signa: 1 tabletkadan kuniga 3-4 marta 15 min ovqatdan oldin



Uyga vazifa

179-mashq. Yetmayotgan tugallanmalarni qo‘ying:

Recipe: Suppositori... cum Ichtyol... numero 10

Recipe: Tabulett... extract... Valerian... 0,02 obduct... numero 50

Recipe: Spirit... aethylic... 95% - 20 ml

Aqu... pro injection... 10 ml

Recipe: Pulver... cum Oxytetracyclin... pro suspension... 30,0

180-mashq. Retseptni o‘qing va tarjima qiling

1. Recipe: Codeini 0,05

Sirupi Althaeae 10,0

Aquae destilatae 50ml

Signa: sirtqi, tashqi

2. Recipe: Sirupi Aloës cum Ferro 100,0

Da .Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga ¼ stakanda 3 marta

3. Recipe: Solutionis Jodi spirituosae 2 ml

Tanini 3,0

Glycerini 10 ml

Misce. Da.

Signa: milkga suykash uchun

(Solutio, onis, f – eritma)

4. Recipe: Dragee Diazolini 0,05

Da tales doses numero 20

Signa : Kuniga 3 marta 1 ta donachadan ovqatdan keyin .

5. Recipe: Olei Ricini 30,0

Xeroformii 1,5

Misce. Da.

Signa: surtmali bog‘lamlar uchun.



Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Labor omnia vincit* - Mehnat hamma narsani yengadi.

2. *Mala herba cito crescit* - Begona o‘t joy tanlamaydi.

3. *Mendaci homini verum quidem dicenti credere non solemus* –

Yolg‘onchingin rost gapi ham yolg‘on bo‘lur.



Nazorat uchun savollar

1. Retsept nima?

2. Retsept qanday tuziladi.

3. Retseptlarni yozish qoidalari nimalardan iborat?

4. Retseptdagি lotincha qismlar qanday rasmiylashtiriladi?

RETSEPT VARAQASINING NAMUNASI

<p>(davolash-profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtampi o'mni)</p>	<p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi lisenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>	<p>(davolash - profilaktika muassasasining nomi va rekvizit-lari ko'rsatilgan shtampi o'mni)</p>	<p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi lisenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>
RETSEPT		RETSEPTNING yirtma koreshogi	
<p>Kattalarga</p> <p>(keraksizi o'chirilsin)</p> <p>Retsept yozilgan sana</p>	<p>Bolalarga</p>	<p>Kattalarga</p> <p>(keraksizi o'chirilsin)</p> <p>Retsept yozilgan sana</p>	<p>Bolalarga</p>
<p>Kun _____ Oy _____ Yil _____</p> <p>Bemorning F.I.O.: _____</p> <p>Bemorning yoshi: _____</p>	<p>Kun _____ Oy _____ Yil _____</p> <p>Bemorning F.I.O.: _____</p>	<p>Shifokorming F.I.O.: _____</p>	<p>Shifokorming F.I.O.: _____</p>
<p>Kasallik tarixi № _____</p>	<p>Kasallik tarixi № _____</p>		
<p>Rp: _____ (savdo nomi)</p>	<p>Rp: _____ (savdo nomi)</p>		
<p>(xalqaro patentlanmagan nomi) D.S. _____</p>	<p>(xalqaro patentlanmagan nomi) D.S. _____</p>		
<p>Shifokorming imzosi _____ tel: _____ (shifokorming shaxsiy muhri o'mni)</p>	<p>Berilayotgan dori vositasining nomi va seriyasi: _____</p>		
<p>Retseptning amal qilish muddati _____</p>	<p>Farmasevt xodimning F.I.O.: _____</p>		
<p>(imzosi) (Dorixona shtampi o'mni)</p>			

RETSEPTDAGI MUHIM QISQARTMALAR.



Darsning maqsadi: Umum qabul qilingan retseptura qisqartmalarini bilib olish. Qisqartmalarni qo'llagan holda retseptdagi lotincha qismni rasmiylashtira olish.

Darsning mazmuni: retseptlardagi so'zlarni quyidagicha qisqartirish mumkin:

1. Retseptlarda so'zlarni qisqartirganda ko'pincha ularning boshlang'ich qismi olinadi.

Masalan: semen – sem., folium – fol.

2. Agar so'zning bosh qismida qatorasiga bir nechta undosh harflar kelsa, so'zni qisqartirganda ular saqlanib qoladi.

Masalan: emplastrum –empl., infusum – inf.

3. Retseptlarda tez-tez uchrab turadigan so'z va iboralar bitta harfgacha qisqartirilishi mumkin.

Masalan: Misce – M., Da - D., Signa – S.

Retseptlarda qisqartirishga ruxsat etilgan so'z va iboralar ro'yxati.

So'z yoki ibora	Qisqartirish	O'zbekcha tarjimasi
ana	āā	teng miqdorda, baravar
aqua destillata	aq.dest.	distillangan suv
cortex	cort.	po'stloq
Da (Detur) tales doses numero	D.t.d.N.	Shunday dozalardan. (son) ber. (berilgan bo'lsin)
decoctum	dec.	qaynatma
dilutus	dil.	suyultirilgan
Divide in partes aequales	Div.in p.aeq.	Teng qismlarga bo'ling
emulsum	emuls.	emulsiya
emplastrum	empl.	malham
. Extractum extractum	extr.	. ekstrakt
fiat yoki fiant	f.	hosil bo'lguncha
flos	fl.	gul
folium	fol.	barg
fructus	fr.	meva
guttas	gtt.	tomchi
herba	hb.	o't, yer ustki qismi

in ampullis	in amp.	ampulada
in capsulis	in caps gel	jelatinli kapsulalarda
in obl.	in oblatis	g*iloflarda
in tab.	in tabulettis	tabletikalarda
in vitr. nigr.	in vitro nigro	qora shishada
linim.	linimentum	surtma
liq.	Liquor	suyuqlik
M.	Misce, Misceatur	Aralashtir, Aralashtirilsin
mucil.	Mucilago	shilliq
N.	Numero	sonda, dona
obd.	obductus, a, um	qoplangan, qobiqli
ol.	Oleum	moy
past.	Pasta	pasta
praec., pct., ppt.	praecipitatus, a, um	cho'kma
pro inject.	pro injectionibus	ineksiya uchun
pulv.	Pulvis	kukun
q. s.	quantum satis	qancha kerak bo'lsa
r., rad.	Radix	ildiz
Rp.	Recipe	Ol
rectif.	rectificatus, a, um	tozalangan
rhiz.	Rhizoma	ildizpoya
S.	Signa, Signetur	Belgila, Belgilansin
sem.	Semen	urug'
simpl.	Simplex	oddiy
sir.	Sirupus	sirop
sol.	Solutio	eritma
spec.	Species	yig'ma
spir.	Spiritus	spirt
Steril.	Sterilisa! Sterilisetur!	Sterilla! Sterillansin!
supp.	suppositorium	shamcha
supp. vagin.	suppositorium vaginale	qin shamchasi
susp.	Suspensio	suspenziya
tab.	Tabuletta	tabletka
t-ra, tinct.	Tinctura	tindirma
ung.	unguentum	malham

1. Dori vositasining terapevtik yo‘nalganligini ko‘rsatuvchi tarkibiy qismlar:

-alg-, -dol-	og‘riq qoldiruvchi, analgetik	Promedolum
-aller(g)-	allergiyaga qarshi	Allergival
-atrax-	Tinchlantiruvchi	Atraxin
-barb-	uyqu chaqiruvchi	Barbamylum
-chol(e) -, -bil-	o‘t haydovchi	Cholenzimum
-cid- (<i>lot. occidere</i> - o‘ldirmoq)	mikrobgta, parazitga qarshi	Streptocidum
-cor-, -card-	yurakka oid, toj tomirlarini kengaytiruvchi	Corvalolum
-c(o)um-, -arol-	qon ivishiga to‘sinqinlik qiluvchi	Acenocumarol
-haem(at) -, -aem-	qon yaralishini rag‘batlantiruvchi	Haematogenum
-lax-	bo‘sash tiruvchi, surgi	Acetolax
-myc(o) -, -fung-	zamburug‘ga qarshi	Amycazolum
-orex-	ishtaha tushiruvchi	Anorex
-peps-	ovqat hazm bo‘lishini tartibga soluvchi	Pepsinum
-pres(s) -, -ten-	qon bosimini tushiruvchi, gipotenziv	Apressinum
-phlog- (-flog-)	yallig‘lanishga qarshi	Flogicort
-pyr-	harorat tushiruvchi	Antipyrinum
-sed-, -tranqu-, -val-	tinchlantiruvchi, sedativ	Sedonal
-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik	Enteroseptolum
-trast-, -gnost-, -graf-	rentgen kontrast, tashxisga oid	Choletrast
-tromb-	tromblar agregatsiyasiga to‘sinqinlik qiluvchi	Trombolytinum
-ur-	siyidik haydovchi	Diurometan
-vas-, -angi-	qon tomirini kengaytiruvchi, spazmni yo‘qotuvchi	Vasodilatol
-verm-, -helm(int)-	gijjaga qarshi	Univerm
-vom(it) -, -emet-	qayt qilishga qarshi	Emetisan

2. Dori vositaning farmakologik guruhini ko‘rsatuvchi tarkibiy qismlar:

I) og‘riqsizlantiruvchilar

aesthes-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik	Anaesthesia
-cain-	mahalliy og'riqsizlantiruvchi	Novocainum
-morph- (<i>yun.</i> <i>Morpheus - Morfej,</i> <i>tush ma'budi</i>)	umumiylig' og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	Morphinum
-narc-	umumiylig' og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	Narcotan

2) antibiotiklar, mikrobgaga qarshilar:

-ceph- (-cef-, -cep-)	sefalosporinlar guruhi antibiotiklari	Cephaloridinum
-cillin-	penitsillinlar guruhi antibiotiklari	Oxacillin
-cyclin-	tetrasiklin guruhi antibiotiklari	Tetracyclinum
-mycin-, -mycetin-	<i>Streptomyces</i> shtammi zamburug'laridan ishlab chiqariladigan antibiotiklar	Laevomycetinum
-sulfa-	mikrobgaga qarshi sulfanilamidlar	Norsulfazolum

3) gormonal:

-cort(ic)-	buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari	Hydrocortisonum
-gest-	sariq tana gormonlari	Progesteronum
-insul-	me'da osti bezi gormonlari	Insulincridesum
-oestr- (<i>yun.</i> oistros - ehtiros)	ayol jinsiy gormonlari vositalari	Dimoeestrolum
-stan-, -ster-, -vir-, - andr-, -test-	erkak jinsiy gormonlari vositalari	Tetrasteronum
-parathyrr-	qalqon oldi bezi vositalari	Parathyreoidinum
-pitu(itr)-	gipofiz orqa bo'lagi vositalari	Pituitrinum
-thyr- (-tyr-, -tir-)	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar	Liothyroninum

4) fermentli:

-as-	Fermentlar	Lydasum
-------------	------------	---------

5) vitaminli:

-vit-	vitaminlar	Hexavitum
3. O'simlik yoki hayvon mahsulotlarini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:		
-al(li)-	sarimsoq, piyoz	Allisatum
-anth-	gul	Strophanthinum
-api-, -virap-	asalari hayot faoliyati mahsulotlari	Apisatronum
-haemato-	hayvon qoni	Haematogenum
-ichthy- (yun. ichthyo - baliq)	qazilma baliq va boshqa dengiz hayvon qoldiqlari tutgan tog' jinslari	Ichthyolum
-papaver-	ko'knor boshchasi, guli, urug'i	Papaverinum
-phyll-	barg	Euphyllinum
-phyt-	o'simlik	Phytinum
-rhiz-	ildiz, ildizpoya	Glycyrrhizin
-theo- (1. yun. theobroma - “ma'budlar taomi”, kakao; 2. xit. thea - choy)	choy bargi	Theophyllinum
-vipr-	ilon zahri	Vipraxinum

Keng tarqalgan dori shakllari

aerosolum, in	aerozol
applicatio, onis f	applikatsiya (<i>balchiq, parafin qo'yish muolajasi</i>)
auristilla, ae f	quloq tomchisi
bacillus, i m	tayoqcha
butyrum, i n	sariyog'
capsula, ae f	kapsula ·
capsula, ae f amyacea seu oblata	kraxmalli kapsula yoki g'ilofli
capsula, ae f gelatinosa	jelatinali kapsula
charta, ae f	qog'oz
caramelum, i n	karamel
cataplasma, atis n	kataplasma (mahalliy isitish uchun xamirsimon yoki bo'tqasimon qorishma)
collyrium, i n	ko'z malhami

conspersio, onis f	sepki
cremor, oris m	krem
decoctum, i n	qaynatma
dragée (fr.)	draje
emplastrum, i n	plastir
emulsum, i n	emulsiya
extractum, i n	ekstrakt
globulus, i m	sharcha
granulum, in	granula
gutta, aef	tomchi
infusum, i n	damlama
limonatum, i n	limonad
linimentum, i n	surtma
lotio, onis f	losyon
membranula ophtalmica seu lamella ophtalmica	ko'z plyonkalari
mixtura, ae f	aralashma
naristilla, ae f	burun tomchisi
oleum, i n	moy
pasta, ae f	pasta
potio, onis f	ichimlik
pulvis, eris m	kukun
sapo, onis m	sovun
serum, i n	zardob
sirupus, i m [medicinalis]	sirop
solutio, onis f	eritma
solvella, ae f	eriydigan tabletka
species, ei f (ko'plikda species, erum)	yig'ma
suppositorium, i n	shamcha
suspensio, onis f	suspenziya
stylus, i m seu stylum, i n	qalam
tabuletta, ae f	tabletka
tabuletta obducta	qobiqli tabletka
tinctura, aef	tindirma
unguentum, i n	malham
vaccinum, i n	vaksina,emlik



Mustaqil bajarish uchun mashqlar.

181-mashq. O‘zbekcha so‘zлarni lotin tiliga tarjima qiling:

Recipe: Tabulettas (yo‘talga qarshi) numero l2

Recipe: Tabulettas Furacilini 0,02

(tashqaridan qo‘llash uchun).

Recipe: Aetheris (narkoz uchun) 100 ml. Reci pe:Solutio nis Di prophyllini 10% — 5 ml.

Da tales doses numero 6 (ampulalarda).

Quyidagi retseptlarni tarjima qiling:

1. Ol: Valeriana ekstrakti 0,3.

Do‘lana nastoykasi 0,15. Ravoch nastoykasi 0,8.

Barbital-natriy 0,2. Etil spirti 20 ml.

Distillangan suv 200 ml gacha. Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

2. Ol: Marvaridgul nastoykasi.

Valeriana nastoykasi tengma-teng 10 ml. Nitroglitserin eritmasi 1% — 1 ml.

Validol 2 ml.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

3. Ol: Monomitsin 0,25

Shunday dozalarda 10 dona ber. Belgila.

4. Ol: Barbital-natriy 0,5.

Kakao moyi keragicha, shamcha hosil qilish uchun. Shunday dozalarda 12 dona berilsin.

Belgilansin.

5. Ol: Eufillin 0,1.

Dimedrol 0,0125. Shakar 0,2.

Aralashtir, kukun hosil bo‘lsin.

Shunday dozalarda 12 dona kapsulalarda ber. Belgila.

182-mashq. Tarjima qiling:

Qalampir yalpiz moyi, mavrak bargi, marvaridgul o‘ti; valeriana nastoykasi, evkalipt moyi, belladonna ekstrakti, furatsilin pastasi, kordigitli shamchalar, tetratsiklin surtmasi, sintomitsin linimenti, novokainli vaginal shamchalar, ravoch ildizining kukuni, chayono‘t barglarining damlamasi, efir narkoz uchun, do‘lana nastoykasi, itjumrut po‘stlog‘ining qaynatmasi, kordiamin shpris tyubiklarda inyeksiya uchun, ampulardagi pioesid, zig‘ir urug‘larining shillig‘i, etil spirti, ergotal eritmasi inyeksiya uchun.

183-mashq. Retseptni o‘qing va tarjima qiling:

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml.

Signa.

2. Recipe: Codeini 0,5

Siripi Althaeae 10,0. Aquae distillatae 50,0. Signa.

3. Recipe: Solutionis Iodi spirituosa 2 ml.

Tannini 3,0. Glycerini 10 ml. Misce. Da. Signa.

Tarjima qiling:

1. Ol: Marvaridgul nastoykasi.

Valeriana nastoykasi tengma-teng 10 ml. Suyuq do'lana ekstrakti 5 ml.

Mentol 0,05.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

2. Ol: «Novomigrofen» tabletkalari 12 dona. Berilsin. Belgilansin.

3. Ol: Sintomitsin linimenti 1%. Novokain bilan 0,5 % — 50,0. Berilsin. Belgilansin.

4. Ol: Dibazol eritmasi 5 ml.

Shunday dozalarda ampulalarda 6 dona ber. Belgilansin.

5. Ol: Moyli nitroglitserin eritmasi 1% — 0,0005.

Shunday dozalarda kapsulalarda 6 dona ber. Belgilansin.

6. Ol: Amidopirin.

Analgin tengma-teng 0,25.

Shunday dozalarda tabletkalarda 12 dona ber. Belgila.



Uyga vazifa

184-mashq. Qisqartma so'zlar bilan tarjima qiling va qisqartmasiz o'qing:
Noto'g'ri tarjima qilingan terminlarni toping.

Oleum Ricini, infusum gemmorum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, siripi Rubi idaei, tinctura Leonurae, oleum Anisi.

185-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini. 2. Oleum Ricini in capsulis datur.

3. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur. 4. Praeparatum Cardiovalenum extractum Crataegi continet. 5. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, si - rupus Citri in medicina adhibentur. 6. Pilula in officina praeparantur.

186-mashq. Tarjima qiling.

1. Ol: Askarbinat kislotosi eritmasidan 5% 1ml

Shunday miqdorda 20 ampulada ber.

Belgila: Muskulga 1 ml da.

2. Ol: Rovoch ildizi poroshogidan teng miqdorda magniy oksididan 0,03
Belgila: 1-kukundan kuniga 2-3 mahal .
3. Ol: Angishvinogul bargi nastoykasidan 0,5 180 ml
Oddiy sharbatdan 20 ml
Aralashtir. Ber
Belgila: Kuniga 1-osh qoshiqdan 3 -4 mahal .
4. Ol: Qaytarilgan temirdan
Askarbinat kislotasidan 0,1
Kukun hosil bo‘lgunicha aralashtir
Shunday miqdorda 20 temirli kapsulalardan ber
Belgila. Kuniga 1-kapsuladan 3 mahal .
5. Ol: Tozalangan oltingugurtdan 0,3
Shaftoli moyidan 0,05
Aralashtirilsin. Tozalansin .
Berilsin.
Belgilansin . In’eksiya uchun.
6. Ol: Strixnin nitratidan 0,05
50 miqdorda plyulalar hosil bo‘lsin .
Ber.
Belgila: kuniga 2 mahal 1 pilyuladan.
7. Ol: Eufillindan 0,1
Dimedroldan 0,00125
Shakardan 0,2
Kukun hosil bo‘lguncha aralashtir .
12 miqdordagi kapsulada ber.
Belgila: kuniga 3 mahal 1 kapsuladan .
8. Ol: Itjumrit po‘stlog‘idan
Chayono‘t barglaridan teng miqdorda 15,0
Qalampir yalpizi barglaridan
Valerina ildizi bilan ildizpoyasidan teng miqdorda 5,0
Yig‘ma (species) hosil bo‘lguncha aralashtir .
Ber.
Belgila: kechqurun va ertalab 1/2 stakanda ichilsin.




Quyidagi maqollarni yod oling.

1. *Cedant arma togae* - Tinchlik oldida urush chekinsin.
2. *Consuetudo est altera natura* - Tarki odad amri mahol.
3. *De lingua stulta incommoda multa* - Avval o‘yla, keyin so‘zla.

Nazorat uchun savollar



1. Qisqartmalar retseptda qanday yoziladi?
2. Dori vositasining terapevtik yo'nalganligini ko'rsatuvchi tarkibiy qismalar qaysilar?
3. Dori vositaning farmakologik guruhini ko'rsatuvchi tarkibiy qismalarga qaysilar kiradi?
4. O'simlik yoki hayvon mahsulotlarini ko'rsatuvchi tarkibiy qismalar qaysilar?
5. Keng tarqalgan dori shakllariga nimalar kiradi?



LOTIN TILIDA KIMYOVIY NOMENKLATURA. KIMYOVIY MODDALARNING NOMLANISHI.

Darsning maqsad: Talabalarda eng muhim kimyoviy elementlarning lotincha nomlarini bilsish; lotin tilida kislota va oksidlarning nomlarini yasash ko'nigmalarini o'stirish.

Darsning mazmuni: Barcha lotincha kimyoviy moddalarning nomi ikkinchi turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, Nominativus singularisda – um, Genetivus singularis da – i qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Maqsad: Muhim kimyoviy moddalarning nomlarini bilib olish. Kislota va oksidlarning nomlarini lotin tilida hosil qila olish.

Kimyoviy moddalarning nomlari

Barcha kimyoviy moddalarning nomlari II turlanish n rodidagi otlar bo'lib, faqat ikkita: *Sulfur*, *uris*, *n* (III turlanish) – oltingugurt va *Phosphorus*, *i*, *m* – fosfor kimyoviy moddalarning nomi bundan istisno.

NB! Kimyoviy moddalarning belgisi lotincha nomlardan olingan bo'lib, ularning orfografik xususiyatini aks ettiradi: *Ca* - *Calcium*, *Fe* - *Ferrum*, *K* - *Kalium* va boshqalar.

Kimyoviy modda	Lotincha nomi	O'zbekcha nomi
<i>Al</i>	Aluminium, i n	aluminiy
<i>Ag</i>	Argentum, i n	kumush
<i>As</i>	Arsenicum, i n	margimush
<i>Au</i>	Aurum, i n	oltin
<i>B</i>	Bromum, i n	brom
